

A. A. Elmurodov, Y. U. Abdullayeva

KARTOSHKANAVLARINI IN VITRODA KO'PAYTIRISH



monografiya

A.A.Elmurodov, Y.U.Abdullayeva

**KARTOSHKA NAVLARINI IN VITRODA
KO'PAYTIRISH**

Monografiya

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nashr matbaa markazi, 2025**

UO'K: 635.21:631.52::631.55:66.098

KBK: 40.06

A.A.Elmurodov, Y.U.Abdullayeva.

Kartoshka navlarini in vitroda ko‘paytirish. Monografiya / – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2025. - 188 b.

Monografiya Samarqand davlat veterinariya medisinasiga, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining 2025 yil 28-fevral №7 son bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu monografiya qishloq xo‘jalik mutaxassislari, kartoshkachilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklar, tadbirkorlar, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistralar uchun tavsiya etiladi.

Taqrizchilar:

N.X.Halilov -Qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor

**J.B.Xudayqulov- ToshDAU O‘simlikshunoslik kafedrasи mudiri,
qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor**

ISBN: 978-9910-640-23-0

MUNDARIJA

	KIRISH	6
I-BOB.	KARTOSHKHA NAVLARI MINITUGANAKLARINI BIOTEXNOLOGIYA LABORATORIYALARIDA OЛИSH, ULARNI O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGINI O'RGANISH	8
1.1-§.	Kartoshka navlari minituganaklarini olish usullari	8
1.2-§.	Kartoshka navlari urug'bop minituganaklarini turli ozuqa muhitlarda shakllanishi	14
1.3-§.	Kartoshka navlari minituganaklarini o'sishi, rivojlanishi, mahsuldorligi, hosildorligi va urug'lik sifatlari	19
II-BOB	TADQIQOTLARNING TUPROQ-IQLIM SHAROITLARI, OBYEKTTLARI VA USLUBLARI	23
2.1-§.	Tadqiqot olib borilgan xududning geografik joylashuv o'rni va tuproq sharoitlari	23
2.2-§.	Tadqiqot olib borilgan xududning iqlim sharoiti	25
2.3-§.	Tajriba o'tkazish usuli va uslublari	28
2.4-§.	Tajribada o'rganilgan kartoshka navlaringin ta'rifi va minituganaklarni yetishtirish texnologiyasi	33
2.5-§.	Tajriba dalasida olib borilgan agrotexnik tadbirlar	34
III- BOB.	KARTOSHKHA NAVLARINI TUGANAK VA BOTANIK URUG' O'SIMTALARIDAN IN- VITRODA MINITUGANAKLAR OЛИSH	39
3.1-§.	Uchki meristema hujayralarini ajratish, hujayra morfogenezi	39
3.2-§.	Probirka nihollarini o'sish va rivojlanishi	45
3.3-§.	O'simliklarda mahsuldorlik	51
3.4-§.	Minituganaklarning urug'lik sifati	54
IV- BOB.	IN VITRO DA MURASIGA-SKUGA OZUQA MUHITINI MUVOFIQLASHTIRISH VA MINITUGANAKLARNI O'SISHI RIVOJLANISHI VA MAHSULDORLIGI	60

4.1-§.	O'simliklar bo'yи va barg soni	60
4.2-§.	O'simliklarda ildiz bilan ta'minlanganlik	62
4.3-§.	Minituganaklarni shakllanishi	65
4.4-§.	Navlarda serologik tahlil natijalari	68
4.5-§.	Navlarda minituganaklar chiqimi	70
4.6-§.	Birinchi va ikkinchi tunganak reproduksiyalarda hosildorlik	72
4.7-§.	Minituganaklarni mahsuldorligi	75
4.8-§.	In-vitro da yetishtirilgan turli vazndagi minituganaklarni har xil ekish chuqurliklarida tunganaklar chiqimi	78
4.9-§.	Minituganaklar hosildorligi va yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi	81
4.10-§.	Ishlab chiqarish sharoitda yetishtirilgan urug'lik reproduksiyalarning hosildorligi va iqtisodiy samaradorligi	83
V-BOB	ISHLAB CHIQARISH SHAROITIDA MAQBUL VARIANTLAR SINOVI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI	88
5.1-§.	MS-takomillashtirilgan maqbul ozuqa muhitlarida iqtisodiy samaradorligi	88
5.2-§.	Minituganaklarni qulay ekish vazni, sxemasi va chuqurligi	89
5.3-§.	Biotexnologik laboratoriyalarda yetishtirilgan kartoshka navlarining reproduksiyalarda hosildorligi va iqtisodiy samaradorligi	92
	XULOSALAR	97
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	100
	ILOVALAR	111

Annotatsiya

Kallus to'qimalar ekilgan namunalarda murtak hosil bo'lishi, o'sish nuqtasini o'sa boshlagan davri tiganak o'simtalardan olinganda 17 kunda, urug' o'simtasidan olinganda esa 14 kunda, (3 kun oldin) kuzatilib, to'qimalarni bir-biridan farq qilish jihatni, genotipik bir xilligi ya'ni Arnova va Pikasso navlarini urug' hamda tiganak o'simtasidan o'stirishga yaroqliligi aniqlandi, urug'dan nishlatilib, olingen kallus nihollarida ko'paytirish koeffisiyenti 20% ga yuqori bo'lishi aniqlandi.

Kartoshka navlarini in-vitro da ko'paytirishda tiganaklarni o'simtasi meristema hujayralaridan yetishtishtirilgan nihollarda minituganklar chiqimi 50-54 dona m^2 , botanik urug'dan nishlatib, meristema hujayralari asosida yetishtirilgan nihollar ekilgan bir metr kvadratda 62-63 dona yoki har bir metr kvadratdan 8-13 dona, gektarida 80-130 ming dona yuqori miqdorda minitugananaklar olish ta'minlandi.

Ozuqa muhitda saxarozani miqdorini 90-mg/l oshirib, (gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l va IUK-2,0 mg/l) da kuzatuvning 30-kuni poya va barg vazni 8,4 gramm, minitugananaklar soni 12,9 dona, o'rtacha vazni 8,8 gramm, viruslar bilan kasallanish Red Skarlet navida 0,5-0,7%, Arnova navida 0,9-1,2%, Pikasso navida 0,7-0,9%, Sante navida 1,3-1,4%, yuqori minitugananaklar chiqimi Sante navida (saxaroza-90 mg/l da, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1, mg/l va IUK-2,0 mg/l) bir idishda 12,7 dona, bir metr kvadratda 139,7 dona, uch qavatda 417,3 dona olish (ikki oyida), bir yilda 2503,8 dona va saxaroza 90-mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l va IUK-2,0 mg/l variantlarda mos ravishda 14,0; 154,0; 462,0; 2772 dona olish aniqlandi.

Yetishtirilgan minitugananaklarni fitotronnda ekilganda o'simlik bo'yi 60,0-70,0 sm, poya soni 1,9-2,1 dona, bir tupdag'i tiganaklar soni 8,0-9,1 dona, ularni o'rtacha vazni 55,0-64,5 gramm, o'rtacha hosil 451,0-586,0 gramm, gektariga 32,2-41,8 tonna tashkil etib, olingen hosilni yozda yangi kovlangan tiganaklar bilan ekilganda yuqori o'simlik bo'yi Sante navida 74,5 sm, poya soni (4,5 dona) va tiganaklar soni 7,1 dona Red Skarlet navida, bir tupdag'i o'rtacha tiganaklar vazni (130,8 gramm) bir tupdag'i hosil 889,4 gramm, hosildorligi (63,5 t/ga) va urug'lik tiganaklar chiqimi (98% va 62,2 t/ga) bo'yicha Sante navida yuqori bo'lganligi aniqlandi.

KIRISH

Bugungi kunda “Dunyoning 155 mamlakatida yiliga 18,2 mln. gektarga yaqin maydonga kartoshka ekilib, provardida 373,2 mln. tonnadan ortiq tunganak hosili yetishtirib kelmoqda”¹. Keyingi vaqtarda dunyoda yuz berayotgan global iqlim o‘zgarishi kartoshka ekinining hosildorligi va hosil sifatiga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. FAOSTAT Butunjaxon oziq-ovqat tashkilotining ma’lumotlarga qaraganda, “dunyoda kartoshka yetishtirish hajmi 2023 yilga kelib 2020 yilga nisbatan 5,7 foizga oshgan bo‘lsada, ammo tunganak hosildorligi 3,2 foizga kamayganligi kuzatilgan”². Bu esa o‘z navbatida agrar sektorini bakterial va virusli kasalliklardan holi, tabiatning ekstrimal sharoitlariga bardoshli ko‘chat hosil qiluvchi urug‘likka bo‘lgan extiyojini kuchayib borishiga olib kelmoqda. Bu borada qishloq xo‘jaligini kartoshkachilik tarmog‘iga in vitro laboratoriyalardan foydalangan holda yetishtirilgan mini tunganaklarni olib kirish va sifatli tunganak hosildorligiga erishish bo‘yicha ilmiytadqiqotlar olib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

Dunyoda yetishtirilayotgan kartoshka hosilining 55,4 foizi aynan Xitoy, Hindiston, Ukraina, AQSh va Rossiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu davatlarda kartoshkachilikni rivojlantirish va yuqori tunganak hosildorligiga erishishda global iqlim o‘zgaruvchanligiga chidamli bo‘lgan yangi avlod navlarini yaratish hamda urug‘chiligin tashkil etishda in vitro sharoitida urug‘idan hamda nishlatilgan o‘sintilaridan yetishtirilgan mini tunganaklarni ishlab chiqarish sharoitiga keng targ‘ib etish orqali yuqori samaradorlikka erishib kelmoqdalar. Hozirda qishloq xo‘jaligini bakterial va virusli kasalliklardan holi bo‘lgan urug‘likka, aholini esa sifatli tunganak mahsulotiga bo‘lgan extiyojini to‘laqonli qondirishga qaratilgan ilmiytadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 maydag‘i PQ-4704-sonli “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligin yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020 yil 25 noyabrdagi PQ-4899-sonli “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi

¹ <https://www.atlasbig.com/ru/strany-po-proizvodstvu-kartofelya>

² <https://www.fao.org/faostat/en/#home>

qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi Zarafshon vodiysining sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida kartoshka navlarini urug'bop minituganaklarini in vitro da yetishtirish, urug'lik tunganaklarni turli vaznda hamda ekish chuqurliklarida o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini o'rganish hamda maqbul natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: quyidagilardan iborat:

- kartoshka navlarini tunganak va botanik urug' o'simtalaridan olingen hujayra nihollarini shakllanishi, kallus to'qimalar olish hamda nihollarni ko'payish koefitsiyentini aniqlash;

- probirkaga nihollarini turli ekish sxemalarida o'sishi, rivojlanishi mahsuldarligi, hosil shakllanishi, hosildorligi, tovar, urug'bop hosil chiqimi va ko'payish koefitsiyentini belgilash;

- takomillashtirilgan ozuqa muhitlarda kartoshka minituganaklarini shakllanishi, sog'lomlik darajasi va urug'lik sifatlarini aniqlash;

- in vitro da yetishtirilgan turli vazndagi minituganaklarni turli ekish chuqurliklarida o'sishi va rivojlanishi hamda hosildorligini aniqlash;

- tajribada kartoshka navlaridan in vitro da minituganaklar yetishtirish va ulardan foydalanishning maqbul agrobiotadbirlarini iqtisodiy samaradorligini hisoblash va ishlab chiqarishga tavsiyalar yaratish.

I-BOB. KARTOSHKA NAVLARI MINITUGANAKLARINI BIOTEXNOLOGIYA LABORATORIYALARIDA OLİSH, ULARNI O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGINI O'RGANISH

1.1-§. Kartoshka navlari sog'lom minituganaklarini olish usullari

T.E.Ostonaqulov [66; 9-11-b.], X.N.Atabayeva, J.B.Xudoyqulov [29; 263-264- b.] kartoshka eng muhim oziq-ovqat mahsuloti bo'libgina nafaqat oziq-ovqat sanoatida, balki chorvachilikda ham yem-xashak, uning tarkibidagi kraxmal esa muhim texnik mahsulot hisoblanadi. Kartoshka tiganagi tarkibida 75% suv, 25% quruq modda bor. Quruq moddaning 70-80% kraxmal bo'lib, bundan tashqari oqsil, klechatka, moy, shakar, kul mavjud. Shuningdek, C, B₁, B₃, PP, K vitaminlari, karatinoidlar, mineral tuzlar ham bor.

T.E.Ostonaqulov, A.X. Hamzayev [63; 348-b.], [64; 29-34-b.] ayniqsa, yosh pishmagan tiganaklar C vitamini yoki askorbin kislotasini 40 mg % gacha saqlaydi. Tiganaklar pishganda va saqlash mobaynida C vitaminning miqdori kamayib boradi. Yosh, o'sayotgan odam organizmi suyak va muskullarning mustahkam va baquvvat bo'lishida tiganak tarkibidagi mineral elementlar kalsiy, temir, yod, oltingugurt, fosfor, kaliy muhim rol o'ynaydi. Kartoshka oqsili tarkibida almashinmaydigan aminokislotalar (lizin, leysin, valin, tirozin, izoleysin, metionin, triptofan) ko'p saqlaydi, o'zining biologik ahamiyati bo'yicha boshqa ekinlar oqsilidan yuqori turadi.

X.N.Atabayeva, O.Qodirxo'jayev [28; 11-12-b.], R.O.Orifov, N.X.Xalilov [60; 34-35-s.] kartoshka chorva mollari uchun yaxshi shirali ozuqa hisoblanadi. Uning 100 kg tiganagida 29,5 palagida esa 8,5 oziq birligi mavjud. Bir gektardan olingen 150 s tiganak va 80 s palak hosili 5500 oziq birligiga tengdir. Chorva mollariga kartoshka tiganaklari xomligicha, siloslangan yoki bug'langan, palagi esa siloslangan holda beriladi. Bundan tashqari qayta ishlashdan chiqqan qo'shimcha mahsulotlari ham mollarni oziqlantirishda foydalaniлади. Kartoshkadan olinadigan spirt tibbiyotda, kraxmal esa qog'oz, to'qimachilik va oziq - ovqat sanoatlarida almashinmaydigan, tengi yo'q mahsulotdir.

T.E.Ostonaqulov, X.X.Xonqulov [70; 220-b.], I.T.Ergashev, D.S.Normurodov, B.M.Eshonqulov, F.A.Obloqulov [111; 16-24-b.]

kartoshka urug'chilagini qiyinlashtiruvchi omillardan biri respublikamizda virus kasalliklarining keng tarqalganligi hamda mo'tadil iqlim ekini bo'lgan kartoshka uchun salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, bizning sharoitimidagi xos issiq iqlim sharoiti hisoblanadi.

А.Э.Шабанов, А.И.Киселев [102; 29-30-с.] ekinni vegetativ ko'paytirish esa infeksiyaning keyingi bo'g'lnlarga va ular tomonidan keltiriladigan zarar miqdorining oshishiga olib kelmoqda.

L.S.Ostonova [76; 22-б.] odatda, umumqabul qilingan tartibga muvofiq kartoshkaning elita urug'lik tuganaklarini yetishtirish jarayoni 5-6 yil davom etadi. Bu uzoq davomli muddat ichida urug'lik kartoshka yuqori noqulay harorat ta'sirida viruslar bilan kasallanib ayniydi va urug'lik sifati keskin pasayadi.

I.T.Ergashev, M.A.Xasanov [109; 363-368-б.] O'zbekistonda kartoshka ko'paytirilib reproduksiyalari oshgan sari uzunchoq tuganaklar salmog'i oshib boradi. Uzunchoq tuganaklar ekilganda ko'karmagan xato joylar, aynigan o'simliklar ko'payib, hosil keskin kamayadi. Tuganak shakli o'zgarishining yana bir ko'rinishi beso'naqaylikdir. Bunday tuganaklar mexanizasiya yordamida ekish, saralash, po'stini archish ishlarini qiyinlashtiradi va archish vaqtida ko'pi po'choqqa chiqib ketadi. Eng muhimi tez so'liydi, chiriydi, yomon saqlanadi.

I.T.Ergashev, D.S.Normurodov, B.M.Eshonqulov [107; 44-б.] kartoshkaning aynishi deganda yuqumli viruslar va noqulay ekologik sharoitlar ta'sirida keyingi tuganak reproduksiyalarda hosildorlik, tovarlilik, oziq qiymati va urug'lik sifatining pasayishi tushuniladi.

С.К.Завриев, Д.Ю.Рязанцев, Т.Е.Кошкина, Д.Д.Абрамов [41; 100-103-с.] kartoshka o'simligi bitta yoki bir necha viruslar bilan kasallangan bo'lishi mumkin. Bir nechta virus bilan kasallanish hosildorlikning jiddiy kamayishiga olib keladi. Aynigan kartoshka ekinlariga ilg'or agrotexnik qoidalarda parvarishlash, o'g'itlash, sug'orish kabilar ham ta'sir ko'rsata olmaydi va urug'lik uchun deyarli yaroqsiz bo'lib qoladi.

О.Ю.Антонова, О.В.Апаликова, Ю.В.Ухатова, Е.А.Крылова, О.Ю.Шувалов, А.Р.Шувалова, Т.А.Гавриленко [25; 95-104-с.] kartoshkaning aynishi hamma joylarda uchraydi, lekin bizda keng tarqalgan va kartoshkachilikni rivojlantirishga jiddiy xalal beradigan to'siqlardan biridir.

I.T.Ergashev [110; 154-б.] virusli aynish keyingi reproduksiyalarga tuganaklar orqali o'tadi. O'zbekistonda kartoshkaning

X, C, M, Y va boshqa viruslar chaqiradigan aynish kasalliklari keng tarqalgan.

A.I.Rasulov, A.M.Abbosov [80; 26-b.] viruslar tunganakda saqlanadi va kasallangan o'simliklar sog'lom o'simliklarga tekkanda o'tadi.

B.C.Шевелуха, Е.А.Калашникова, Е.З.Кочиева [16; 104-105-с.] hujayra va to'qimalar kulturasi sohasida erishilgan yutuqlar vegetativ ko'paytirishning yangi usullarini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu uslub an'anaviy uslublarga nisbatan bir qator qulayliklarga ega.

O.A.Авксентьева, В.А.Петренко [7; 49-50-с.] meristema kulturasidan foydalanib virussiz o'simliklar olish, yuqori o'sish koyeffitsiyenti, seleksion davrining qisqaligi, o'simliklarning yuvenil fazadan reproduktiv fazaga o'tishining tezlashishi, qiyin ko'payuvchi o'simliklarning ko'paytirilishi va maydonni tejash imkonini beradi. R.Artiqova, S.Murodova [26; 117-118-б.] XX asrning 50-yillarda fransuz olimi J.Morel tomonidan bиринчи orxideya o'simligidan regenerant-o'simlik olindi. In-vitro apikal meristemalarni o'stirish usulidan foydalandi.

Birlamchi eksplant sifatida o'simliklarning yuqori meristemalaridan foydalilanadi.

O'simliklarni klonal mikroko'paytirish jarayonini 4 ta bosqichga bo'lish mumkin :

1-donor o'simlik tanlash, eksplantlarni ajratish va yaxshi o'suvchi steril kultura olish;

2-maksimal miqdorda meriklonga erishilgandan so'ng xususiy mikroko'paytirish;

3-ko'paytirilgan novdada ildiz hosil qilish, ularni tuproq sharoitida o'sishiga ko'nikma hosil qilish;

4-o'simliklarni issiqxona sharoitida o'stirish va ularni dalaga ekishga tayyorlash;

A.Б.Алимбай, А.К.Амирова, Ж.Т.Лесова [27; 7-10-с.] klonal mikroko'paytirishning bir qancha usullari mavjud. O'simlikda mavjud bo'lgan meristemani faollashtirish; eksplant to'qimalarida adventiv kurtaklarning paydo bo'lish induksiyasi; somatik embriogenez induksiyasi; birlamchi va qayta egiluvchi kallus to'qimasi adventiv kurtaklarning differensiasiyasi orqali amalga oshadi.

Q.D.Davronov., B.S.Alikulov [38; 157-158-б.] o'simliklarni mikroklonal ko'paytirishda o'simlikda mavjud bo'lgan meristemalarni

faollashtirish uslubi keng qo'llaniladi. Bu ikkita yo'l bilan amalga oshiriladi:

a) Poyaning yuqori meristemasini olib tashlash va in-vitro garmonsiz muhitda novdalarni mikroqalamchalash.

b) bachki novdalarini rivojlantirish indusirlash uchun ozuqa muhitiga sitokinini kabi ta'sirli moddalar qo'shish.

М.К.Кокшарова, Ф.Р.Лепп, Л.А.Келик [48; 174-175-с.], В.В.Мелихов, А.А.Новиков [57; 16-17-с.] sitokinin sifatida 6-benzilaminopurin (BAP) yoki 6-furfuril-aminopurin (kinetin), shuningdek 2-izopenteniladinin va zeatindan foydalaniлади. Shu tarzda olingan novdalar onalik eksplantlardan ajratiladi va bachki meristemalaridan novdalarning ko'proq hosil bo'lishi uchun yana yangi tayyorlangan muhitda o'stiriladi.

М.К.Кокшарова, Ф.Р.Лепп, Л.А.Келик [47; 3-5-с.] ba'zi qishloq xo'jalik o'simliklari kartoshka uchun klonal mikroko'paytirish texnologiyasi ishlab chiqarishning asosini tashkil qiladi. O'simlikda mavjud bo'lgan meristemaning aktivasiya usuli kartoshkaning bitta meristemidan yuz mingdan ortiq o'simlik olish imkonini beradi. Texnologiya asosida probirkalarda xo'jalik ahamiyatga molik qimmatli urug'lik materiallar-mikrotugaganaklar yaratilmoqda.

О.А.Тимофеева, Ю.Ю.Невмержицкая [92; 3-5-с.] klonal mikroko'paytirishning asosiy xususiyati bu genetik bir xil, virussiz ekish materiallari olishdir. Bunga apekslarning meristema to'qimalaridan va poya organlarga xos bachki kurtaklaridan foydalaniib erishish mumkin. Klonal mikroko'paytirishni muvaffaqiyati meristematik eksplantning o'lchamiga bog'liq. Barg asosi va poya to'qimasi qancha katta bo'lsa morfogenez jarayoni yengilroq kechadi va normal probirka o'simligining hosil bo'lishi bilan tugallananadi.

V.Rani, S.A.Raina [83; 319-330-б.] virus bilan zararlangan o'simliklarning meristema to'qimalari virusdan holi ekanligini birinchi bo'yib Chung va P.R.Uayt tomonidan aniqlangan. XX asrning 50 yillarida orxidiya o'simligini o'sish nuqtasidan virus siz o'simlik olish bo'yicha birinchi muvaffaqiyatlari tajriba J.Morel va S.Martin tomonidan amalga oshirildi.

T.E.Ostonakulov [68; 289-293-б.] kasallangan o'simliklarda viruslar tarqalishi bo'yicha tez o'sayotgan yosh organlardan orqada qoladi, ayniqsa didifferensialmagan yosh to'qimalarda virusning miqdori yo'q darajada bo'ladi. Bu usul asosiga qo'yilgan nazariy konsepsiya sababi keyingi vaqlarda aniqlana boshladi.

D.A.Durnikin, N.A.Kolpakov, K.Yu.Guseva, A.V.Matsyura [118; 679-689-b.] amaliyatda qo'llanilish holatida strukturaviy asos bo'lib, o'simlik o'sish nuqtasi tuzilishining spesifikasi xizmat qiladi; uning apikal meristema deb ataluvchi distal qismi turli o'simliklarda turlicha o'lchamga ega bo'lib, o'rtacha 200 mkm va 20-150 mkm uzunlikka ega bo'ladi. Differensiyalyanayotgan meristema hujayralarni hosil qiladi.

Ilze Dimante, Zinta Galle [46; 69-71-b.] klonli mikroko'paytirishdagi muvaffaqiyat meristema eksplantini pastroq qatlamida o'tkazuvchi sistema bog'lamlarini paydo qiluvchi prokambiy o'lchamiga bog'liq, barg asoslari va poya to'qimalari qancha katta bo'lsa morfogenez jarayoni shuncha yengil kechadi va normal probirka o'simligi hosil bo'lishi bilan tugaydi. Shu bilan birqalikda, virus zarralaridan holi zona turli viruslar uchun turlichadir. Bu o'simlikning turlari va navlariiga bog'liq.

E.V.Oves, N.A.Gaitova, O.A.Shishkina [124; 22-25-b.] apikal meristemani bunday o'ziga xos tuzilishi o'tkazuvchi tizimlar orqali tez tashilishini istisno qiladi, lekin plazmodesma orqali biriktiruvchi meristema hujayralariga sekin tarqalish imkoniyatiga yo'l qo'yadi. Kartoshkani 200 mkm o'lchamidagi apikal meristemasini oziqa muhitda kulturalash va keyinchalik regenrant o'simlik olishda aniqlanishicha, olingan o'simliklardan faqat 10% gina X virusidan, ammo 70% Y virusdan holi ekan. I.T.Ergashev [106; 265-266-c.] elektron mikroskop orqali ba'zi viruslar bilan o'simliklar meristemalarining ham zararlanganligi aniqlangan bo'lib, bu zararlangan o'simlikning meristemalariga ham virusning yetib borganligidan darak beradi.

D.T.Abdukarimov, T.E.Ostonaqulov, I.T.Ergashev, A.A.Elmurodov, A.X.Hamzayev [22; 16-25-b.] ma'lumki, o'simlikning tashqi morfologik belgilari va serologik hamda indikator usullaridan foydalanim nav urug'lik materiallarini viruslardan to'la sog'lomlashtirib, ular asosida virussiz o'simliklarni tanlab, urug'lik tunganaklarini yetishtirib bo'lmaydi. Elita olish uchun viruslardan xoli boshlang'ich urug'lik materiallarni faqatgina termoterapiya va xemoterapiya usullari yordamida virusdan tozalash kerak.

Andreea Nistor, Gheorghe Campeanu, Nicolae Atanasiu, Nicoleta Chiru, Diana Karacsonyi [24; 5319-5320-b.] termoterapiya qilinayotgan o'simliklar maxsus termokameralarga joylashtiriladi va birinchi haftada harorat 25°C dan 37°C gacha har kuni 2°C dan oshirib boriladi. Termoterapiyada butun jarayon davomida optimal rejimni yaratish va uni ushlab turish ham muhim bo'lib, harorat 37°C, kunduzgi lampa

yorug'ligi 5 ming lk, kulturaga qarab, fotodavr bir sutkada 14-16 soat, termokameraning havo namligi 90% ni tashkil etishi lozim.

I.M.Lukova [54; 542-543-b.] termoterapiyani meristema kulturasi bilan birgalikda qo'llash orqali nina bargilarning regenerant o'simliklarini 70% ini xloroz virusidan, qulupnay o'simligini 90%, qizil va qora qarag'at (smorodina) 20%, maymunjonning 50%, kartoshka o'simliklarining 80% sog'lomlashtirilgan virusdan xoli o'simliklarni olish mumkin.

D.T.Abdukarimov, M.Abduraximov [21; 26-28-b.] o'simliklarda virusni mavjudligini immunoferment tashxisi, elektron mikroskop, o'tchil indikator-o'simliklar orgiali aniqlash mumkin.

B.P.Mishurov [59; 27-c.] xemoterapiya usuli apikal meristemalar kulturalanayotgan oziqa muhitiga guanozinni analogi virazol 20-50 mg/l konsentrasiyada qo'shishdan iborat. Bu virusga qarshi preparat bo'lib keng ta'sir spektriga ega. Virazolni kultural muhitda qo'llanilganda virussiz meristema o'simliklarni olish foizi virus odatiy bo'lib qolgan o'simliklar uchun 80-100% nazoratda esa 0-41% ga oshadi.

M.A.Rahman, M.A.Ali, S.M.Hasan, and M.Sarker [126; 669-675-b.] apikal to'qima yoki uchki meristema usuli. Kartoshkani turli virus, bakteriya va mikoplazmali kasalliklarini sog'lomlashtirishdagi eng keng tarqalgan, samarali usuldir. Tuganak ko'karayotgan o'simtasining uchki apikal to'qimasi yoki meristema hujayralari uzunligi 0,1-0,2 millimetrgacha bo'lgan qismi virus yuqtiruvchilardan holi sun'iy o'stirish oziqa muhiti sharoitida viruslardan holi bo'lishi mumkin.

D.B.Volkov, D.L.Daurov, A.K.Daurova, J.C.Abay, K.K.Japar, K.J.Khambakin, M.X.Shamekova [117; 432-442-c.] ana shunday kartoshka tiganagining uchki meristema o'sish sharoitida o'simlik to'qimalari hujayralarini in-vitro da o'stirish o'simtasidan sog'lom o'simliklar olish bo'yicha barcha ishlar yuqori malakali ilmiy xodimlar tomonidan maxsus labaratoriyalarda o'tkazilishi shart. Ajratib olingan meristema hujayralaridan sog'lom o'simliklar o'stirishda qo'llaniladigan oziqa muhiti ko'p komponentli aralashma bo'lib, makro va mikro tuzlar, vitaminlar, o'stiruvchi regulyatorlarni o'z ichiga oladi.

R.A.Gami, S.K.Parmar, P.T.Patel, C.J.Tank, R.M.Chauhan, H.S.Bhaduria. and S.D.Solanki [37; 5640-5647-b.] kartoshka o'simligini klonli mikroko'paytirishning afzalligi genetik bir xil virussiz ekish materiallari olish mumkinligidir. Bunga apeks to'qimalari va poyaga xos kurtaklar meristemasidan foydalanim erishish mumkin.

Meristema o'sish konusi va bir yoki ikki barg asosidan iborat bo'lib, virusdan holi bo'ladi.

3.П.Котова [50; 146-148-с.] odatda, olimlar birlamchi eksplant sifatida o'simliklarning meristemalaridan foydalaniib, oziqa muhiti tarkibini o'simliklarning regenerasiya va paydo bo'lish jarayonlariga ta'sirini o'rGANADILAR. U o'sib kelayotgan konussimon ko'rinishdagi, ikki-uch barg oldi elementlaridan iborat bo'lgan va undan ma'lum sharoitda qubbali, yumaloq-protokormlar paydo bo'lishini kuzatgan.

С.В.Мальцев [56; 236-242-с.] xosil bo'lgan (yetilgan) protokormlarni bo'lib keyin alohida mustaqil ravishda yangi tayyorlangan oziqa muhitida barg va ildiz paydo bo'lguncha o'stirish mumkin. Natijada bu jarayon chegarasiz ekanligi va yuqori sifatlari, genetik bir xil, virussiz ekish materialini juda ko'p miqdorda tayyorlash mumkinligi kuzatilgan.

V.Sarasso, M.Mussiaryelli [87; 101-111-р.] kartoshka tuganaklari 4-8°C da saqlanadi, so'ng qorong'ulikda 20-22°C da o'stiriladi. Meristemalarni bo'laklarga ajratish ishlari bakteriosid lampalar bilan sterillangan laminar bokslarda amalga oshiriladi. Barcha asboblar sterillanadi. Nihollarni meristemalarga ajratishdan oldin 3-5 daqiqa davomida 0,1% li diasid eritmasida sterillanadi. Buning uchun nihollar kimyoviy stakanga solinib ustidan diasid eritmasi quyiladi. Keyin 3 marta steril holatda chayiladi.

Hozirgi kunda Samarqand viloyatida ham o'simliklar jumladan, kartoshkani in-vitro sharoitida ko'paytirish imkoniyati mavjud. Bunda barcha sharoitlarga ega zamonaviy labarotoriyalar steril sharoitlarda ishlaydi. Bunga sabab o'rganilayotgan materialning boshqa muhitdagi mikroorganizmlar bilan zararlanmasligi, atrof-muhitning va tadqiqodchilarni muhofaza qilishdir.

1.2-§. Kartoshka navlari urug'bop minituganaklarini turli ozuqa muhitlarda shakllanishi

Kartoshkani botanik urug'idan o'stirish texnologiyasining elementlari ko'pchilik olimlar tomonidan o'rganilgan va ishlab chiqilgan T.E.Ostonaqulov, V.I.Zuyev, O.K.Qodirxo'jayev [65; 552-б.], D.T.Abdukarimov, T.E.Ostonaqulov, I.T.Ergashev [17; 34-б.], D.T.Abdukarimov [18; 489-б.], A.X.Hamzayev [98; 84-б.], T.E.Ostonakulov, A.A.Shamsiyev, I.X.Amanturdiyev, I.M.Lukova [72;

64-68-s.], ma'lumotlariga qaraganda kartoshkani botanik urug'idan o'stirishning uchta usuli mavjud:

1. Urug'ni bevosita dalaga ekish. Bunda ko'p urug' talab etiladi.
2. Parnikda urug'dan ko'chat o'stirish va so'ng dalaga ko'chirish.

3. Ko'chatlarni plastmassa tuvaklarda o'stirib mikrotuganaklar (ekmalar) olish. Shulardan eng ko'p tarqalgani ko'chat usuli hisoblanadi.

In vitro da ko'chat ekini sifatida o'stirishning afzalliklari:

-ko'chatlarni sog'lom o'stirish baquvvat o'simlik olish va dalada yuqori hosil toplash imkonini beradi;

-yilning istalgan vaqtida kerakli miqdorda urug'lik mikrotuganaklar olish mumkin;

-agroteknik tadbirlar xarajati kamayadi;

Фетодов Л.С, Г.И.Филиппова [83; 10-10-с.] kartoshka botanik urug'dan bevosita (to'g'ri-to'g'ri) dalaga va ko'chat o'tqazish yo'li bilan ekilganda ham yuqori hosil olish mumkin.

Xitoya ko'chat ekini sifatida o'stirish usulini ko'p qo'llaydilar [131; <https://www.cnverify.com/companies/Growing-Potato-Crops>]. Б.Е.Ториков, О.А.Богомаз [80; 53-59-с.] urug'ni to'g'ridan-to'g'ri dalaga ekib ko'chat o'stirish juda murakkab, urug' unib chiqish energiyasini noqulay tuproq sharoitida saqlab qololmaydi.

К.А.Пшеченков, А.В.Смирнов [78; 31-32-с.] urg'oqchilik va hashoratlar bilan zararlanish tufayli tup son kamayishiga olib keladi. Dastlabki rivojlanish davrida ko'chatlarning sekin o'sishi, o'suv davrida kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishi, bu usulni qo'llashning chegaralovchi omili hisoblanadi.

Lekin, shunga qaramasdan Perudagi Xalqaro kartoshka markazida [136; <https://cipotato.org/>] urug'ni bevosita dalaga ekganda hosildorlik gettaridan 210-320 senterni tashkil etган. Ushbu usul bilan yetti yil davomida kartoshka o'stirish, tuganaklar shakli, sifati va hosili standart navlarga nisbatan ekvivalent bo'lgan.

Angliya, AQSh ning shimoliy rayonlarida va Xitoya kartoshkani urug'idan ko'chat ekin sifatida o'stirish ma'qul. Ammo o'stirish usullarini tanlash, tuproq-iglim sharoitlarini hisobga olgan holda yetishtirish regioniga bog'liq [137; <https://www.potatopro.com/product-types/grows-table-potatoes/northern-america>].

Rossiya sharoitida vegetasiya davri qisqa bo'lgani uchun ko'chatlar to'liq to'lig'icha tovar tuganaklar to'play olmaydi. Shu sababli professor B.A.Харченко [97; 215-220-s.] urug'dan ikki yillik ekin sifatida foydalanishni taklif etadi. Bunda dastlabki ko'chatlarda

mayda tunganaklar ekmalar (sevkalar) olinadi va kelgusi yil esa xo'raki kartoshka yetishtirish uchun urug'lik material sifatida foydalaniladi.

Ikki yillik ekin sifatida o'stirish borasida С.Д.Киру, Е.В.Рогозина [52; 7-15-с.] С.С.Басиев, И.Г.Джиова, М.Дз.Газдаров, А.Э.Шабанов, О.С.Хутинаев [30; 21-22-с.], Г.В.Гуляева, Е.Д.Гарьянова, Н.А.Петрова, Н.А.Токарев, П.В.Герасимов [36; 22-с.], А.В.Коршунов, Р.Л.Рахимов [49; 7-10-с.] boshqalar izlanishlar olib borishgan.

D.T.Abdukarimov., I.T.Ergashev., A.I.Ismoilov [20; 4-8-б.] ko'chat ekini sifatida urug'dan ko'chat o'stirib, dalaga o'tqazish bevosita urug'ni dalaga ekishdan qator afzalliklarga ega.

Perudagi xalqaro kartoshka markazida kartoshkani botanik urug'idan yetishtirishning texnologik elementlari urug'ni ekish, issiqxonadan dalaga o'tqazish, dala tuprog'i, qum va torf aralashmalari tayyorlash; urug'ni nishlatib ekish, ko'chat o'tqazish chuqurligi va ko'chatlar balandligi, ko'chatlarni toza ildizlari bilan yoki qisman tuproq bilan o'tkazish, o'g'itlarni solish muddatlari va ular bilan ishslash, turli xil pestisidlardan foydalanish, ko'chatlar o'tqazmasdan dalani ishslash va ko'chat o'tqazilgandan keyin ishslash va boshqalar borasida izlanishlar olib borilmoqda [135; <https://www.cnverify.com/companies/Growing-Potato-Crops>]. Urug'ni ekishda unib chiqishni himoya qilib turuvchi bosma (teshilgan) qog'ozni tavsiya etadi. Bu tuproqdagi namlikni ushlab turadi va begona o'tlar o'sishini sekinlashtiradi. Afsuski, ushbu qog'oz hozir ishlab chiqilmaydi.

Н.И.Шестаков [105; 6-7-с.] torf bilan mulchalash ko'chat hosildorligini 40-55% oshiradi. Eng ma'qul mo'lchalash materiali torf hisoblangan, ikkinchi esa polietilin plynokalardan foydalanilganda va past hosildorlik go'ng bilan mo'lchalanganda olingan, chunki go'ng tuproq yuzasida tezda qurib namlikni yo'qotadi.

И.Н.Романова, С.Е.Терентьев, М.И.Перепичай, К.В.Мартынова [82; 19-21-с.], urug'ni ekish seyalkalar yordamida ekishni mexanizatsiyalashtirishga imkon beruvchi texnik jarayonlarini va qator oralariga ishlov berish seyalkalarini ishlab chiqdilar.

Unib chiqishini tezlashtirish uchun А.В.Гордеева, И.Т.Бачикин [35; 137-140-с.] 2-3 kun suvda saqlash yoki 24 soat gibberillin eritmasida ivitib, qisman quritib so'ngra ekishni tavsiya etadi. Suvda saqlanganda unuvchanligi 6-kun 91-94%, gibberillinda ishlaganda esa 89-90% ni tashkil etgan.

А.В.Ивойлов, А.А.Танин, О.В.Волков [44; 6-7-с.] urug'ni (gidrovisev) suv orqali maxsus vakuum idish orqali ekish usulini taklif etadi. Bunda ekish normasi urug'ni unuvchanligiga qarab belgilanadi. Urug' ekish oldidan nishlatilib suv bilan birga ekiladi. Ekilganning 10-14 kuni unib chiqish boshlanadi.

А.В.Кравченко, А.В.Федосов [51; 151-158-с.] urug'ning yuqori dala unuvchanligi rezavor-mevadan 2-yili ajratib olinganda kuzatilgan bu esa ingibitor moddalar ta'sir etish tugashi bilan bog'liq.

Kartoshkani botanik urug'dan ko'chat ekin sifatida turli tup qalinliklarida o'sish, rivojlanish va hosildorlikka ta'sirini T.E.Ostonaqulov [67; 324-б.], T.E.Ostonaqulov, A.X.Hamzayev, B.A.Abduxoliqova [69; 62-65-б.], A.J.Haverkort, B.V.Anisimov [129; 50-51-б.], B.M.Eshonkulov, I.T.Ergashev, D.Normurodov va boshqalar o'rganganlar [132; 997-1005-б.].

T.E.Ostonaqulov, I.M.Lukova [71; 34-35-б.], ko'chatlarni 70x30 sxemada har bir uyaga 1,2,3,4,5 ta o'simlik va 70x10 hamda 70x6 sxemada o'stirib samaradorligini o'rgangan. Tajriba variantlari bo'yicha hosildorlik 196,4 dan 306,7 ga/s gacha o'zgargan va yuqori ko'rsatkich 70x30 santimetr sxemada har bir uyada 2 ta (306,7 s.ga) va 70x30 sm da har bir uyada 3 ta (280,3 s.ga) o'simlik o'tkazilganda 167, 243-47x Aranova kombinasiyadan olingen. Ushbu variantlarda tiganaklar soni 18,6-22,2 donani tashkil etgan. 70x30 sm da bir uyada 5 o'simlik o'tkazilganda hosildorlik 251,6 ga/s va tiganaklar soni esa 28,1 dona, tiganaklar o'rtacha vazni esa 16,8 g ni tashkil etgan. Ko'payish koyeffisiyenti 70x30 sm uyada 3 ta o'simlik tajriba variantida 14,2-14,3 ga erishilgan.

A.Xamzayev, M.Ortiqov [99; 22-24-б.], ma'lumotlari bo'yicha esa ekish sxemasini to'g'ri tanlangan holda 1 uyadagi ko'chatlar sonini 2-3 ta oshirish urug'li tiganaklar chiqimini oshiradi. Ular odatdag'i 70x30-1 va tur tup qalinligiga 70x30-2, 70x30-3 sxemalarda o'simliklar o'tkazib 4 ta kombinasiya (Лвованкад x Зарева; Лвованк x 800174; Мовка x Добро; Мавка x Зарева) larni tekshirib ko'rdilar. O'rtacha tajriba variantlari bo'yicha kombinasiyalarda tiganaklar chiqimi 17,4 donadan 23,2 donagacha o'zgardi. Tup qalinligi gettaridan 760 ming dona tiganaklar (ekma) olinsa, odatdag'i 70x30 sxemada esa 440 ming dona olingen.

Kartoshkani botanik urug'idan texnologik elementlarini o'rganish borasida O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda D.T.Abdukarimov, D.S.Normurodov [19; 226-228-б.], V.I.Zuyev, O.Kodirxujayev,

X.Ch.Buriyev, B.B.Azimov [42; 336-b.], A.Xamzayev, N.Nishonov, B.Xolmirzayev [100; 75-77- b] keyingi yillardagi tadqiqotlarda urug‘ni ekish oldi ishlov berish, ekish chuvurligi, tutuvchanligini oshirish maqsadida TUR preparatini turli dozalarini qo‘llash, ko‘chatlarni turli o‘tkazish sxemalarida ekish, mineral va organik o‘g‘itlar turli normasi bilan birga alohida va birgalikda sug‘orish rejimi va sonini o‘rgangan.

P.C.Struik, S.G.Wiersema [127; 87-91- b.] urug‘ning parnikka ekish muddati mahalliy sharoitda fevral oyining ikkinchi yarmi bo‘lib, ekish normasi esa $0,8-0,9 \text{ g-m}^2$: bunda ko‘chatlarning qora ildiz chirish va rizoktoniz bilan kasallanishi 26,3% kamaygan va standart ko‘chatlar chiqimi oshgan. I.T.Ergashev, F.Rafiyeva [108, 40-43-b.] urug‘larni ekish oldi o‘stiruvchi stimulyator va mikroelementlar aralashmasida 12 soat davomida ishlash, unib chiqish energiyasini 94,4-98,6 % gacha oshirgan, urug‘ni ishlov berish muddatini oshirish aralashmalarda va suvda ham unuvchanligini kamaytiradi. Ya‘ni fermentativ prosesslarni to‘xtatish gibberilinni uzoq muddat ta’siri esa ingibitor kabi ta’sir qiladi.

TUR preparati turli dozalarda ko‘chatlar turli fazalarida nishlatilib tutuvchanligiga ta’siri tekshirilganda, bu ko‘rsatkich 97,1-99,2% gacha oshgan, ko‘chatlarni unib chiqqandan keyin 25-30 kuni ishlaganda, ko‘chatlarni parnikda bo‘yiga o‘sishi sekinlashdi. Standart ko‘chatlar chiqimi oshadi. Ko‘chatlardan yuqori miqdorda urug‘lik tuganaklari olish uchun (70x10, 70x20, 70x30 sm) tup qalinligida uchta duragay populyasiyalardan hosildorligi o‘rganilgan.

B.E.Ториков, О.А.Богомаз [93; 60-64-s.] o‘rganilgan duragay populyasiyalarda ko‘chat o‘tkazish sxemasi 70x20 sm bo‘lib, ko‘chatlarni tutuvchanligi oziqlanish maydoniga bog‘liq emasligi qayd etilgan. Xalqaro kartoshka markazi [136; <https://cipotato.org/>] da ko‘chatlarni har bir uyada 5 donadan ekish kerak, shunda minimum 3 tasi tutuvchan bo‘lib qoladi deb ta‘kidlaydi. T.E.Ostonaqulov, I.M.Lukova [75;16-b.] bir uyaga 4 donadan urug‘ ekish ko‘chat ko‘karib chiqqandan so‘ng turli qalinlikda (yagana) siyraklashtirib mahsuldarligini kuzatgan. Muqobil qalinligi bir m^2 96 o‘simlik deb topilgan. В.А.Шевченко [104; 163-c] tup qalinligini 1m^2 da 6 donadan 96 donagacha olinganda, ko‘chatlarni yashab qolishi 84-91% dan 38-40% gacha kamaygan. Ko‘chatlarni Sank-Peterburg sharoitida 70x25, 70x10 sm da ekib taqqoslanganda 1m^2 maydonidan o‘rtacha tuganaklar chiqimi tajriba variantlaridan (70x25) 60, (70x10) da esa 129 dona, odatda nazorat variantida esa 32 donani tashkil etgan. В.П.Ходаева, В.И.Куликова [96; 44-48-c.], И.В.Темерева, Т.Б.Смирнова,

Т.Ю.Степанова, Т.Т.Толстогузова [88; 30-33-с.] urug‘larni Tambov viloyatlarida namiqtirib dalaga 70x15 va 70x25 sxemada ekilganda 1m² tunganaklar chiqimi 169 va 74 ni va shu sharoitda ko‘chatlarda 70x10 sm da ekilganda tunganaklar chiqimi 163 dona m² ni, 70x25 da esa 74 donani tashkil etdi. Olingen tunganaklar esa yuqori sifatli urug‘lik materiali bo‘lib, keyingi tunganak reproduksiyalarida yuqori hosil olishni ta’minlaydi.

T.E.Ostonaqulov, I.M.Lukova [73, 16-19- b.] ko‘chatlarni muqobil oziqlanish maydoni, 70x10-15 sm bo‘lib ko‘chat hosilidan olingen tunganaklar hosili 200-500 ga/s gacha bo‘lgan.

1.3-§. Kartoshka navlari minituganaklarini o‘sishi, rivojlanishi, mahsulдорлиги, hosildorligi va urug‘lik sifatlari

T.E.Ostonaqulov, I.M.Lukova [74; 82-85-b.], I.T.Ergashev, I.B.Begimkulov, F.A.Oblokov, N.S.Kuchkorov [113; 31-34-b.] va boshqalarning fikricha, yuqori sifatli hosil ko‘chatlar siyraklashtirilmasdan, xatto boshqa (dalaga) tuproqqa, sharoitiga o‘tkazmasdan urug‘ ekilgan joyda yetishtirilsa olinar ekan. Н.А.Колпаков, К.Ю.Гусева [119; 37-40-s.] ko‘chatlar siyraklashtirilsa, asosiy joyga (dalaga) tuproqqa o‘tkazilsa, o‘sish sekinlashadi, tunganak tugishi uzoq muddatga uzayib ketadi. Ko‘chat unib chiqqan joydan ko‘chirilmasa o‘sish, rivojlanishi normal bo‘lib, kamida 150-180 g hosil olingen.

Б.К.Сердеров, Т.Г.Ханбабаев, Д.В.Сердерова [85; 24-26-s.] ham ko‘chatlarni siyraklashtirish (pikirovka qilish) o‘sish va rivojlanishini sekinlashtiradi va urug‘ni unib chiqqan yerda o‘stirish kerakligini ta’kidlaydi. Lekin urug‘ni bevosita dalaga ekib, tovar tunganaklari olish va xo‘raki kartoshka yetishtirish, ishlab chiqarish sharoitida qator qiyinchiliklar tug‘diradi.

В.И.Ольгаренко [62; 52-56-s.] qisqa vegetasiyali sharoitida kartoshka urug‘idan o‘stirilsa ko‘chatlar to‘liq o‘suv davrini o‘tmaganligi, yetarli urug‘lik, tovar tunganak to‘plashga ulgurmaganligi uchun ikki yillik ekin sifatida qo‘llashni taklif etgan. Bunda birinchi yil mikrotuganaklar yetishtirilib, keyingi yil xo‘raki kartoshka yetishtirish uchun birinchi yilgi mikrotuganaklar urug‘lik material hisoblanadi.

B.M.Eshonqulov [133; 33-45-s.] generativ yo‘l bilan o‘stirilganda kartoshkaning hosildorligi odadagi yo‘l bilan yetishtirilgandan kam bo‘lmasligi mumkin.

Ninel Efimovna Pavlovskaya, Irina Alekseevna Gneusheva, Marina Aleksandrovna Polyakova, Irina Yurevna Solokhina [123; 65-70-p.] kartoshkani botanik urug‘idan o‘stirishning istiqbolli usullaridan biri urug‘ ekilgan yerdan mikrotuganaklar olishdir. So‘nggi yillargacha urug‘dan ko‘chat ekin sifatida o‘stirib, dalaga pikirovka qilish yo‘li bilan, urug‘ni dalaga ekish; quruq urug‘ni ekish va nishlatilib suv bilan ekish va ularni agrotexnik elementlari kichik maydonlarda o‘rganilib, faqat ko‘chat ekin sifatida o‘stirib ishlab chiqarishga tadbiq etilmoqda.

I.T.Ergashev, I.B.Begimkulov [114; 210-212-b.] maydon birligidan ko‘p miqdorda tuganaklar olish urug‘ni ekish qalinligiga bog‘liq va $1m^2$ dan chiqadigan tuganaklar soni 300-1000 donagacha, vazni 5-10 gramm bo‘lib, 4-5 kg ni tashkil etadi. 1-10 grammlik kichik mikrotuganaklarni ya‘ni ekilganda hosildorlik 200-300 sentnerni tashkil etgan.

Н.А.Тимошина, Л.С.Федотова, Е.В.Князева [89; 40-43-s.] urug‘dan ekip olingan tuganaklar yirik, mayda va aralash fraksiyadagi urug‘lik materiallarini nav va populyasiyaga taqqoslaganda vazni oshib borishi bilan hosildorlik sezilarli darajada oshib borgan. Populyasiyada esa bu o‘zgarish 4-30 s.ga bo‘lib, mayda fraksiyadagi tuganaklar ham gektaridan 200 s va undan yuqori hosil berish imkoniyatiga ega ekan.

В.И.Ольгаренко [61; 160-164-s.] mikrotuganaklar mahsuldarligi fraksiya tarkibiga bog‘liqligi isbotlab berilgan. Mikrotuganaklar vazni 10-15 grammlik bo‘lganda juda yuqori hosil gektaridan 440,5 s olingan. Vegetativ ko‘paytirilganda esa 361 ga.s ni tashkil etgan.

Р.Р.Исмагилов, А.Ш.Юсупов [45; 126-129-s.] kimyoviy tarkibi generativ ko‘paytirilgan tovar tuganaklarda mikrotuganaklar fraksion tarkibiga bog‘liq bo‘lmay, vegetativ ko‘paytirilgan bilan taqqoslaganda esa undan kam bo‘lmasagan. mazasi jihatdan ham farq bo‘lmasagan.

D.T.Abdukarimov [23; 26-28-b.] urug‘dan o‘stirilgan o‘simliklarni virus “Y” bilan kasallanishi 2-8 % bo‘lgan xolos.

I.M.Lukova [121; 48-b.] ikki yillik ekin sifatida kartoshkani o‘rganish borasida 20-50 gramm vazndagi urug‘dan o‘stirib yetishtirilgan tuganaklar hosildorligi vegetativ ko‘paytirilgan tuganaklar hosildorligidan 38,4-80,0 ga.s yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Faqat mikrotuganaklar 5-10 grammlik vaznda bo‘lishi xo‘raki kartoshka hosildorligini kamayishiga olib kelgan.

B.T.Спиридонов, Л.В.Спиридонова, С.Н.Смирнов [86; 16-17-s.] mikrotuganaklar orqali xo‘raki kartoshka yetishtirishda ko‘payish koyeffisiyenti yuqori (52,8) bo‘lgan, nazoratda esa 7,7 bo‘lgan.

Mikrotuganaklardan olingen material sog'lomligi bilan vegetativ ko'paytirilgan reproduksiyalardan ustun turadi.

Д.С.Усков [94; 101-106-с.] bir gektaridan olingen mikrotuganaklar hosili 30-50 gektarni urug'lik bilan ta'minlashi mumkin.

Е.В.Лекомцева [53; 101-103-с.] mayda fraksiyadagi tuganaklar (1-2 va 2-5 g) ekilganda unib chiqish uzoq muddatga cho'ziladi, xarakterli tomoni sekin o'sadi, kam poya hosil qiladi, shoxlanish kam, katta bo'lman assimilyatsion yuzaga ega bo'ladi.

Parnikda ko'chatlar qalinligining hosildorlikka ta'sirini B.В.Бакуленко [31; 27-28-с.], o'z tajribalarida aniqlab, bunda 7x7, 10x10, 14x14 va nazorat esa 70x10 sm dalada o'stirilganda, hosildorlik 7x7 sxemada 199,0 nazoratda esa 93,3 ga.s bir metr kvadrat yerdan ekma tuganaklar chiqimi 7x7 variantda 318,5 dona 70x10 da esa 36 donani tashkil etgan. Tuganaklarni o'rtacha vazni 7x7 variantda 6,3 gramm, 14x14 da 7,7 gramm va nazoratda 70x10 da 25,6 gramm bo'lib mayda tuganaklar (1-5 g) ham yuqori hosil berishi (187,1 ga.s) aniqlangan. Б.В.Ивенин, А.В.Ивенин, С.П.Тихонов, А.М.Магомеджасумов [43; 3-4-с.] 10 g dan kichik ekma tuganaklar hisilining kamayishiga olib keladi. B.M.Eshonqulov [133; 44-б.] botanik urug'dan o'stirib olingen tuganaklar o'ta sifatlari urug'lik material hisoblanadi.

С.Н.Черезов, А.Т.Гизатуллина, З.Сташевски [101; 207-216-с.] turli fraksiyon vazndagi mikrotuganaklar hosildorlikka ta'sirini o'z tajribalarida 73365x3арево kombinasiyasi ustida o'rganib, 1-5 g, 5-10 g, 10-20 g, 20-30 g va 20-30 g nazorat sifatida sinalganda 1-5 g vazndagi mikrotuganaklardan tuganaklar soni 9,3 dona, 5-10 g vazndagidan 14,0 10-20 grammdan 9,9 ta, 20-30 grammda 12,2 nazoratda esa 9,4 dona tuganak hosil qilgan. Tuganaklar o'rtacha vazni birinchi variantda 4,7 g, ikkinchi variantda 37,7 g, uchinchi variantda 45,5 g, to'rtinchi variantda 37,4 g nazoratda esa 42,5 ni tashkil etgan. Hosildorlik bo'yicha yuqori ko'rsatgich 5-10 grammli ikkinchi variantda 231,3 ga.s, 199,3 va 2025,2 ga.s uchinchi va to'rtinchi variantlarda olingen. Vazni 1-5 grammli mikrotuganaklar ham 187,1 ga.s hosil to'plagan. Nazorat (20-30) da esa 193,6 ga.s hosildorlik kuzatilgan.

К.Рентек [84; 24-25-с.] ko'rsatishicha botanik urug'dan yetishtirilgan tuganaklar sifatlari sog'lom urug'lik material hisoblanib, birinchi, ikkinchi va uchinchi, hatto to'rtinchi tuganak reproduksiyalarida yuqori hosil olishni ta'minlaydi. Hosildorlik Sank-

Peterburg sharoitida 1-2-3-tuganak reproduksiyalarida 326-371 ga.s gacha o'zgardi, bir tupdag'i tuganaklar soni 9,8-9,1 dona va tovarliligi 84-92% ni tashkil etdi. Tambov viloyati sharoitida hosildorlik 1-2-tuganak reproduksiyalarida 287-334 ga.s tuganaklar soni 14,0-17,7 donani va tovarliligi esa 86-89% ni tashkil etgan [138. www.kartoffel.de].

O.N.Плотникова [77; 26-28-c.] ma'lumotlariga qaraganda xo'jaliklarda yuqori unumdon uchastka bo'lmasa, kartoshkaning botanik urug'dan yetishtirib o'stirishning 3 yillik sxemasini qo'llash mumkin. Bu holatda xo'raki kartoshka yetishtirish uchun II-tuganak reproduksiyasi ekiladi.

A.A.Elmurodov, D.Normurodov, N.Normurodova [112; 60-62-b.] ikki yillik ekin sifatida o'rganilganda urug'lik material harajatlari 5 marta kam bo'lib, barcha ishlab chiqarish harajatlari odatdag'i texnologiyaga nisbatan bir gektar hisobiga 50% dan kamdir. Ko'chat hosildan kartoshka yetishtirish istiqbolli hisoblanadi, chunki ko'payish koyeffisiyenti yuqori va tuganaklar turli kasalliklardan holidir.

Mateus-Rodriguez, J.R., de Haan, S., Andrade-Piedra, J.L., Maldonado, L., Hareau, G., Barker, I., Chuquillanqui, C., Otazú, V., Frisancho, R., Bastos, C., Pereira, A.S., Medeiros, C.A., Montesdeoca, F., and Benítez, J [122; 357-368-p.] mikrotuganaklardan foydalanish, ko'chatlarni o'tqazish va ularni tutuvchanligi kabi muammolardan xolis qilib, botanik urug'dan kartoshka ishlab chiqarishni ham yengillashtiradi.

Perudagi xalqaro kartoshka markazi odatdag'i va yangi, ya'ni kartoshkani botanik urug'idan yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi turli tuproq-iqlim sharoitlarida (3 zonaning 30 xo'jaligida) sinab ko'rilgan. Tajriba natijalari shuni ko'rsatganki, dehqon-fermer xo'jaliklari uchun arzon urug'lik sotib olish va xususiy urug'lik bazasini tashkil etish mumkin bo'lган. Kartoshkaning botanik urug'idan o'stirish rivojlanayotgan mamlakatlarda katta ahamiyatga ega [136; <https://cipotato.org/>].

M.Z.Rahman, S.M.Islam, A.N.Chowdhury, S.Subramaniam [125; 369-374-P.] mikrotuganaklar yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini ko'chatzorda ko'chatlarni turli sxemalarda o'stirib aniqlangan. Eng yuqori iqtisodiy samarali variant 14x14 sm bo'lib, nazoratga nisbatan 1,7 marta kam harajat sarflangan. 10x10 sm variant ham samarali hisoblangan. 1000 dona ekishga yaroqli tuganaklar tannarxi past bo'lib (1,52 so'm), bu variantda ko'chat maydoni 1 gektarga yetarli tuganak

olish uchun 2 martaga kamayadi, nazorat variantiga nisbatan 5 marta kamayadi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda urug'lik va xo'raki kartoshka yetishtirishda issiq quruq havo sharoitida odatdag'i vegetativ usul bilan birga generativ usulning texnologik elementlarini ishlab chiqish, ularni urug'chilikka tadbiq etishni takomillashtirish mahalliy urug'chilikni tashkil etish, arzon, sifatli, toza va mahsuldar urug'lik kartoshka yetishtirish, shu bilan xo'raki tovar kartoshka ishlab chiqarishni ko'paytirishga imkoniyat yaratadi.

II-BOB. TADQIQOT OLIB BORILGAN XUDUDNING GEOGRAFIK JOYLASHUV O'RNI, TUPROQ-IQLIM SHAROITLARI, TAJRIBA OBYEKTI VA USLUBLARI

2.1- §. Tadqiqot olib borilgan xududning geografik joylashuv o'rni va tuproq sharoitlari

Samarqand viloyati O'zbekiston Respublikasining markaziy qismida, Zarafshon vodiysida joylashgan. Zarafshon vodiysining yuqori qismi Tojikiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi, markaziy va quyi qismlari O'zbekiston Respublikasi hududida joylashib, shimolda Nurota tog' tizmalari, janub va janubiy-sharqdan Turkiston, Zarafshon tog' tizmalari, shimol va shimoli-g'arbdan Qizilqum sahrosi bilan chegaralangan.

Ilmiy-tadqiqot o'tkazilgan hudud, Zarafshon daryosi lyossimon prolyuvial-allyuvial yotqiziqlaridan tuzilgan uchinchi qayir usti terassasida joylashgan, eskidan sug'orib kelinayotgan tipik bo'z tuproqlardan iborat.

P.Uzoqov, O.Saidmurodov, A.Xudoyqulov [128; 148-149-b.] ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand viloyatining asosiy suv manbai - Zarafshon daryosi. Zarafshon daryosi suv havzasasi maydoni 10-200 m², unga Mag'iyondaryo qo'yilgandan keyin -11782 km² bo'ladı.

Samarqand viloyati relefiga ko'ra, uchga-shimoliy, markaziy va janubiy mintaqaga bo'linishi mumkin. Viloyatning markaziy qismi g'arbiy tomon sathi pasayib boruvchi tekislikdan iborat. Zarafshon vodiysi dunyodagi eng qadimiy sug'oriladigan dehqonchilik markazlaridan biridir [5; 32-34-b].

Samarqand viloyatining tuproq qatlami asosan och tusli, tipik va to'q tusli bo'z hamda o'tloqi-bo'z tuproqlardan iborat. «O'zyerloyiha» ma'lumotlari bo'yicha viloyatdagi sug'oriladigan maydonlarning 48,6 foiz tuproqlari tipik bo'z, 40,4 foizi - o'tloq bo'z, 8,6 foizi - och tusli bo'z va 2,4 foizi o'tloq-botqoq tuproqlardan iborat.

Viloyat tuproqlarining hosil bo'lishi, ularning suv-fizik xossalari, kimyoiy tarkibi, strukturasи, mexanik tarkibi, unumдорлик holati, iqlim ko'rsatkichlari P.Uzoqov, O.Saidmurodov, A Xudoyqulov manbalarda keltirilgan [128; 148-149-b].

Viloyatning markaziy qismi Zarafshon daryosi bilan ikkiga bo'linuvchi o'ziga xos voha. Markaziy qismning daryo sohillari bo'ylab daryo yotqiziqlaridan shakllangan gidromorf tuproqlar joylashgan.

M.M.Siyazov ma'lumotlariga ko'ra, Zarafshon daryosi havzasining umumiy maydoni 56000 km^2 , shundan 10000 km^2 tog'lar, 28000 km^2 adirlik va 18000 km^2 ni esa cho'llar tashkil etadi.

Tayloq tumanining hududidagi tuproqlar o'tloq-bo'z, o'tloq-botqoq tuproqlardan iborat. Mexanik tarkibi o'rtacha qumoq-lyoss va sho'x yotqiziqlar asosida shakllangan. Sizot suvlarning joylashish chuqurligi 2-3 m. Bunday o'tloq-bo'z tuproqlarning suv-fizik xossalari o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi uchun qulay, svjni yaxshi o'tkazadi, xlorli sho'rланish yo'q, qisman sulfatlari va ko'proq karbonatli sho'rланish uchraydi. Tuproq profilida agroirrigatsiya qatlami juda qalin $1,5\text{-}2 \text{ m}$.ga yetadi va bu qatlam ko'p asrlar davomidagi dehqonchilik madaniyati tufayli yuzaga kelgan. Tuproqning haydalma qatlamida gumus miqdori $0,7\text{-}1,2$ foiz. Oziqa moddalar miqdoriga ko'ra, o'rtacha unumdorlikka ega. Tuproq muhiti ph - 7.0-7.2. Biz tajriba o'tkazgan maydonlarda ko'p yillar davomida yem-xashak, kartoshka, sabzavot, don ekinlari ekib kelgingan.

Tajriba o'tkazilgan dalaning agrokimyoviy tavsifi 2.1 - jadvalda keltirilgan.

2.1 – jadval.

**Tajriba dalasi tuprog'ining dastlabki agrokimyoviy holati,
(2020-2022 yy.).**

Tuproq qatlami, sm	Gumu s, %	Umumi shakldagi, %			Xarakatchan shakldagi, mg/kg tuproq		
		azot	fosfor	kaliy	N-NO ₃	P ₂ O ₅	K ₂ O
2020 yil							
0-30	0,921	0,046	0,112	0,833	18,4	32,8	300
30-50	0,654	0,034	0,095	0,712	15,2	28,5	280
2021 yil							
0-30	0,930	0,041	0,110	0,829	18,2	30,6	290
30-50	0,660	0,030	0,089	0,705	14,9	25,1	240
2022 yil							
0-30	0,942	0,053	0,132	0,810	19,5	33,5	310
30-50	0,680	0,038	0,091	0,680	16,2	27,2	280

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, eng ko'p gumus miqdori tuproqning 0-30 sm qatlamida saqlanadi. Tuproqning pastki qatlamlarida gumusning miqdori kamayib boradi. Shunday holat tuproqdagi azot, fosfor va kaliy bo'yicha ham kuzatildi. Nitratlar ko'rinishidagi azot miqdori ham tuproq yuza qatlamidan pastki qatlamga tomon kamayib boradi va 0-30 sm dan 30-50 sm qatlamgacha 2020-yilda 18,4 dan 15,2

mg/kg 2021-yilda 18,2 dan 14,9 mg/kg va 2022-yilda 19,5 dan 16,2 mg/kg ga o'zgaradi. Tuproqning tarkibidagi harakatchan fosfor miqdori 0-30 sm qatlamdan 30-50 sm qatlamigacha 2020-yilda 32,8 dan 28,5 mg/kg 2021-yilda 30,6 dan 25,1 mg/kg va 2022-yilda 33,5 dan 27,2 gacha o'zgaradi va pastki qatlamlarga tomon uning miqdori kamayib boradi. Harakatchan fosfor bilan ta'minlanishi o'rtachadan kam hisoblanadi.

Almashinadigan kaliy miqdori 0-30 sm qatlamda 2020-yilda 300 dan 2021-yilda 290 mg/kg va 2022-yilda 310 dan kg bo'lsa, 30-50 sm qatlamda 2020-yilda 280 mg/kg 2021-yilda 240 mg/kg va 2022-yilda 280 mg/kg ni tashkil etadi. Almashinadigan kaliy bilan ta'minlanishi o'rtacha ta'minlangan guruhg'a kiradi. Tajriba dalasida tuproqning 0-100 sm qatlamida cheklangan dala nam sig'imi (ChDNS) - 20,2 foizga teng, karbonatlar miqdori 10-14 foizni tashkil qiladi. Umuman, tajriba dalalarining tuproq qatlami Zarafshon vodiysining Samarcand viloyati markazi qismi uchun xos va unda topinambur, kartoshka, sabzavot, don ekinlari, yem-xashak ekinlaridan mo'l, sifatli hosil olish imkoniyatlari mavjud.

2.2- §. Tadqiqot olib borilgan xududning iqlim sharoiti

Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori barqaror hosil yetishtirishda mintaqaning tabiiy iqlim sharoiti muhim omillardan biri hisoblanadi.

Samarqand viloyatida 10°C yuqori faol harorat yig'indisi hududning tekislik qismida o'rtacha 4000-4900 $^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Eng issiq davr iyul, eng sovuq davr – yanvar oyлari hisoblanadi. Viloyat iqlimi keskin kontinental, yozda havo harorati $+42$, $+43$ $^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi va qishda $22\text{-}23^{\circ}\text{C}$ gacha pasayadi. Viloyatning yozi issiq va quruq, qishi sovuq, bahorda yog'ingarchiliklarining ko'p bo'lishi, kuzda issiq hamda sovuq havoning navbatlashib turishi kuzatiladi (2.2-jadval).

Л.Н.Бабушкин [9; 114-120-с.] ma'lumotlari bo'yicha, Samarqand viloyati sug'oriladigan maydonlari tog'-oldi mintaqasiga mansub bo'lib, ob-havosi keskin kontinental, yillararo va yil davomida kutilmaganda o'zgaruvchan. Sovuqsiz kunlar davomiyligi 180-210 kunni, o'simliklar vegetatsiyasi 255-275 kunni tashkil etadi. Kuzda harorat nisbatan barqaror, 15°C dan pasayishi ko'pgina hollarda noyabrning oxiriga to'g'ri keladi. Zarafshon vodiysida bulutli kunlarning kam bo'lishi, mintaqal kengligi uchun barqaror bo'lмаган qish, yillik va kunlik haroratning katta amplitudada o'zgarishi, iliq yomg'irli bahor va quruq

Tajriba o'tkazilgan yillardagi ob-havo sharoitlari (Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi ma'lumotlari).
O'rtacha oylik havo harorati, °C.

Yillar	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	O'rtacha
2020	1,4	6,6	11,0	15,0	20,6	25,7	27,7	26,5	19,1	12,3	13,6	0,4	15
2021	2,3	8,2	9,5	16,3	7,5	27,7	29,2	26,7	23,0	11,5	6,7	6,9	14,6
2022	4,9	6,7	8,5	19,8	20,7	26,3	28,6	25,3					
O'rtacha ko'p yillik havo harorati, °C													
	5,3	7,1	9,7	11	16,3	26,6	27,5	26,2					

Yillar	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	O'rtacha
2020	66,5	52,6	74,3	99,1	101,8	0,0	0,3	15,4	4	-	35,7	20,9	39,2
2021	0,1	23,8	72,7	6,6	12,8	-	0,3	-	-	7,3	14,9	19,4	13,2
2022	62,2	13,4	148,6	47	80,4	-	0,0	0,0					
O'rtacha ko'p yillik yog'ingarchilik miqdori, mm													
	42,9	29,9	98,5	50,9	65	0,0	0,2	5,1					

issiq yoz bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Xududda iqlim sharoiti tez o‘zgaruvchan, xarorat va yog‘ingarchilik oylar kesimida notekis tushadi yillik yog‘ingarchiliklar miqdori 300-350 mm (Samarqand shahrida ko‘p yillik ko‘rsatkich 320-360 mm). Tajriba o‘tkazilgan hududda meteorologik sharoitlar ko‘p yillik ma’lumotlarga yaqin bo‘lib, o‘rtacha oylik harorat yog‘ingarchilik, havoning nisbiy namligi olinib, tahlil qilindi. Eng yuqori o‘rtacha oylik harorat iyul oyida olinib, +25,6 +27 °C ni, ko‘p yillik ma’lumot esa +25,5 °C ni yoki haroratning barcha tajriba o‘tkazilgan yillarda o‘rtacha ko‘p yillikka nisbatan +0,2, +2,0 °C ga oshganligi ma’lum bo‘ldi.

2.3-§. Tajriba o‘tkazish usuli va uslublari.

Tadqiqot ob‘yekti sifatida Kartoshkaning Red Skarlet, Arnova, Pikasso va Sante navlaringin tiganaklari va botanik urug‘lari olindi. Tadqiqotlar dasturini bajarish uchun tajribalarimiz O‘zbekiston Respublikasi Yong‘oq yetishtiruvchilar uyushmasi Samarqand viloyatida joylashgan Bog‘bon biotexnologiya laboratoriysi sharoitida o‘tkazildi.

Kartoshka urug‘lik tiganaklari odatda sog‘lom o‘simglik tuplaridan klonli tanlangan tiganaklarni ko‘paytirish asosida yetishtiriladi. Bizlar tiganaklarni va botanik urug‘ini nishlatib, o‘simgatlardan olingan hujayralarni in-vitro da o‘stirish orqali o‘rgandik.

Biotexnologiya laboratoriya sharoitida kartoshkaning 4 ta navlari Red Skarlet, Pikasso, Arnova va Sante navlari tiganaklari, botanik urug‘lari tadqiqotlarimizning ob‘yekti hisoblanadi.

Laboratoriya sharoitida tiganaklardan o‘simgatlarni Laminar boks (BIOBASE, 2019) muhitida mikroskopda ajratib oldik. Hujayralar Murasiga-Skuga ozuqa muhitiga ekilib, shu vaqtning o‘zida o‘stirish (kultura) xonaga qo‘yildi. Kultura xonasining muhiti harorat 25-26°C, namlik 70-75 %, bir kunda 16 soat yorug‘lik, yorug‘lik intensivligi 3-5 ming/lyuks.

Dala tajribalarini o‘tkazish, ekish, fenologik kuzatishlar, biometrik o‘lchovlar, ekin parvarishi, hosilni aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining, Sank-Peterburg agrar universiteti, Butunrossiya o‘simglikshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining, Butunrossiya kartoshka xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot institutining, Qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi navlarini sinash bo‘yicha Davlat nav sinash komissiyasining, “O‘simglikshunoslikda ilmiy tadqiqot asoslari” uslubiy

qo'llanmalariga muvofiq olib borilgan. «Insektisid, akarisid, biologik aktiv moddalar va fungisidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar» dan ozuqa muhitlar tayyorlashda foydalanilgan.

Б.А.Доспеховнинг «Методика полевого опыта» [10; 280-285 с] singari manbalari, tavsiyalari, ko'rsatmalari, uslublari asosida olib borildi. Dala tajribalarda olingen natijalarining statistik tahlili WinQSB-2.0 hamda Microsoft Excel dasturlari yordamida hisoblandi.

Tajribada quyidagi kuzatishlar, biometrik o'chovlar, tahlillar, hisoblashlar o'tkazildi:

- in-vitro muhitini boshqarish - bir kunda 16 soat yorug'lik, harorat 25-26° C, namlik 75%, yorug'lik intensivligi 3-5 ming lyuksdan 7-8 ming lyuksgacha;

-tajriba issiqxona gruntni agrokimyoviy ko'rsatkichlari tuproq haydalma qatlamida quyidagi uslublarda aniqlandi;

-gumus - I.V.Tyurin usulida, yalpi azot, fosfor, kaliy- I.M.Malseva va L.P.Grisenko usulida, nitrat azoti-Grandvald-Lyaju usulida, harakatchan fosfor - V.P.Machigin usulida, almashinuvchi kaliy - P.V.Protasov usulida;

-tuproq namligi termostat usulida;

-fenologik kuzatishlar, Davlat nav sinash komissiyasining uslubi bo'yicha;

-o'simliklarda biometrik hisoblar-Davlat nav sinash komissiyasining uslubi bo'yicha;

-o'simliklarda o'sish dinamikasi biolaboratoriya kultura xonasida har kuni soat 10.00-12.00 da kuzatib borildi;

-sun'iy ozuqa muhitda hujayra eksplantlarini rivojlanishi, biomassa shakllanishi kuzatib borildi;

-navlarda MS-takomillashtirilgan ozuqa muhitlarida minituganaklarni shakllanish dinamikasi o'rganildi;

-o'simlik va tunganaklarning viruslar bilan zararlanishi vizual va serologik xamda immunoferment taxlillari yordamida aniqlandi (Методические указания по серологической диагностике вирусов и бактерий, поражающие картофель, Москва, 1972);

-o'rtacha xar bir tupning maxsuldarlik ko'rsatkichlari (bir tup palak vazni, tunganaklar va ildiz massasi, tunganaklar soni, tupdag'i tunganaklarning o'rtacha vazni) turli nav va tajriba variantlarida xar bir delyankadan 20 tadan o'simliklar tanlash orqali Butunrossiya kartoshka xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti (NIIKX; 1967; 1989) uslubi bo'yicha o'rganildi;

-xosildorlik va tovar, urug'bop xamda aynigan tugaraklar chiqimi aniqlandi;

-protein azoti Keldal usulida aniqlab 5,7 ga ko'paytirib ($N > 5,7$), oqsil Barnshteyn usulida, yog' Sokslat apparatida, kletchatka Shtaman va Genneberg usullarida aniqlandi;

-quruq modda miqdori tarozida tortish usulida, qand-Bertran usuli bo'yicha, askorbin kislota va karotin I.K.Murri usuli bo'yicha ($O'z O'ITI$) aniqlandi;

-hosildorlik ko'rsatkichlari dispersion tahlil qilinib, matematik yo'il bilan hisoblanib tajriba aniqligi, xatosi va eng kam aniqlikdagi farq (Б.А.Доспеков bo'yicha) aniqlandi;

-tajribada maqbul variantlarni ishlab chiqarishga joriy etish va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlandi;

-tajriba variantlari bo'yicha tugaraklarning urug'lik sifati (virusli kasalliklar bilan zararlanishi va aynigan tugaraklar chiqimi xamda keyingi yildagi reproduksiya xosildorligi bo'yicha) o'rGANildi;

2.3 – jadval.

Birinchi tajriba variantlari (2019-2021 yy.).

No	Varian tlar	Har bir variantda 100 donadan fiziologik ozuqa muhitida hujayra ekildi
1.	1	Tugarak o'simtasidan olingan in-vitro ko'chati –takroriyiliklar 4 ta, bir takroriyilikda 25 dona idishda, har bir idishga 10 donadan meristema ekildi
2.	2	Botanik urug'ni nishlatib undan olingan in-vitro ko'chati-takroriyiliklar 4 ta, bir takroriyilikda 25 dona idishda, har bir idishga 10 donadan meristema ekildi

Tadqiqotlarning laboratoriya sharoitida meristema hujayralarini ajratish, o'stirish, dastlabki morfogenezni kuzatish ishlari bevosita in-vitro laboratoriyasida 5 fevraldan boshlanadi. Tugaraklarni va urug'lar xona haroratida saqlanib, tugaraklar 20 kun davomida issiqxona sharoitida nishlatildi, o'simtalar 1,5 sm bo'lganda meristema ajratishga olindi. Kartoshkaning botanik urug'lari 0,5% gibberillin eritmasida ivitilib, nishlatildi va bir kunda bir vaqting o'zida (ertalab soat 10.00) nishlatilgan urug' hamda tugarak o'simtalaridan meristemalar ajratildi. Arnova va Picasso navlarini tugarak 2019 va urug'i 2018 yilda yetishtirish dalasidan kuzda olingan. Tajribada har bir tugarak o'simtasidan 100 donadan, urug' o'simtasidan ham 100 donadan meristema hujayralar ajratilib oldindan tayyorlab qo'yilgan Murasiga

Skuga ozuqa muhitiga, har bir idishga 10 donadan, har bir takroriylik 25 dona idishda, 4 takroriyliklarda ekildi. Ekilgan hujayralar kultura xonasida o'stirishga qo'yilib, kuzatuv olib borildi. Kuzatuv har kuni kunning aniq bir vaqtida (soat 10:00 da) o'tkazildi.

2.3.1 – jadval.

Ikkinchı tajriba variantları, (2019-2021 yy.).

No	Variantlar	Ko'chatlar ekish sxemasi
1.	Tuganak o'simtasidan olingen hujayra nihollari	5x5, 6x6, 7x7, 8x8, 9x9, 10x10
2.	Urug'dan nishlatib o'simtalardan olingen hujayra nihollari	5x5, 6x6, 7x7, 8x8, 9x9, 10x10

Tajriba 3 takroriylikda, qator oralig'i 45 sm, uzunligi 20 metr, qator soni 4 ta, eni 4 qatorniki 1,8 metr, bir delyankani maydoni 36 m^2 , hisob maydoni 18 m^2 , ko'chatlar pushtaga 5x5, 6x6, 7x7, 8x8, 9x9, 10x10 sxemalarda ekildi.

2.3.2 – jadval.

Uchinich tajriba variantları

O'zgartirilgan Murasiga va Skuga (MS) oziqa muhitining tarkibiy qismi.

No	Murasiga-Skuga	Saxaroza, mg/l	Gibberil- lin, mg/l	Kinetin, mg/l	IUK, mg/l
1.	Murasiga-Skuga, nazorat	30	1,0	0,1	2,0
2.	Murasiga-Skuga	60	1,5	0,1	0,1
3.	Murasiga-Skuga	60	2,0	0,3	0,3
4.	Murasiga-Skuga	60	1,5	0,5	0,5
5.	Murasiga-Skuga	60	1,5	1,0	0,7
6.	Murasiga-Skuga	60	1,5	1,5	0,9
7.	Murasiga-Skuga	60	1,5	1,5	1,0
8.	Murasiga-Skuga	60	1,5	1,5	2,0
9.	Murasiga-Skuga	60	1,5	1,5	2,5
10.	Murasiga-Skuga (nazorat)	90	1,0	0,1	0,1
11.	Murasiga-Skuga	90	0,5	0,3	0,3
12.	Murasiga-Skuga	90	1,0	0,5	0,5
13.	Murasiga-Skuga	90	1,5	0,7	0,7
14.	Murasiga-Skuga	90	1,5	0,9	1,0
15.	Murasiga-Skuga	90	1,5	1,0	1,2
16.	Murasiga-Skuga	90	1,5	1,5	1,5
17.	Murasiga-Skuga	90	1,5	1,0	2,0
18.	Murasiga-Skuga	90	1,5	1,0	2,5

Tajribada bir variantda 25 dona idish, 18 ta variantda 450 dona, bu 3 ta takroriylikda 1350 dona ozuqa muhitda shakllanitirilgan. Har bir idishga 10 donadan nihol qalamchasi ekilgan. Jami ekilgan nihol qalamchalari soni 13500 donani tashkil etgan. Tajribada kartoshkaning Red skarlet, Arnova, Pikasso va Sante navlari o'rganildi.

2.3.3 – jadval.

To'rtinchi tajriba variantlari

In-vitro da yetishtirilgan turli vazndagi minituganaklarni ekish chuqurligi, ekish sxemasi 60x20.

Nº	Kartoshka navlari	Tuganak vazni	Ekish chuqurligi,sm
1	Red skarlet navi	5 gramm gacha	3-4
2			5-6
3			7-8
4			9-10
5		5-10 gramm	3-4
6			5-6
7			7-8
8 ♂			9-10
9		10 grammdan yuqori	3-4
10			5-6
11			7-8
12			9-10
13	Arnova	5 gramm gacha	3-4
14			5-6
15			7-8
16			9-10
17		5-10 gramm	3-4
18			5-6
19			7-8
20			9-10
21		10 grammdan yuqori	3-4
22			5-6
23			7-8
24			9-10


Ekish sxemasi 60x20, Pogonometrda 5 dona. (Bir gektarda 16666 pogonometr bor, gektaridagi tup soni 83,3 ming dona /16666 = 5 dona to'g'ri keladi), ekish 20.02. va yig'ishtirish muddati 10.05.

Tajriba 3 takroriylikda, qator oralig'ida 60 sm, uzunligi 20 metr, qator soni 4 ta, eni 4 qatorniki 2,4 metr, bir delyankani maydoni 48 m^2 , hisob maydoni 24 m^2 , minituganaklar 60x20 sm sxemada ekildi.

2.4-§. Tajribada o'rganilgan kartoshka navlarining ta'rifi va minituganaklarni yetishtirish texnologiyasi

1. Sante. Gollandiyadan keltirilgan va keng ommabop moslanuvchan nav. O'rtatezpishar, plastik, intensiv. O'suv davri 81-85 kun. Palagi baquvvat past bo'yli, ko'p poyali, o'rtacha barglangan. Guli oq. Ertagi va ikkihosilli ekinlarga mos. Hosildorligi gektaridan bahorda 25-30, yozda 20-24 tonna. Mazasi va saqlanuvchanligi yaxshi, tunganagi sarg'ish, yumaloq-oval.

Kimyoviy tarkibining o'ziga xos xususiyati ildiz mevalardagi kraxmalning past nisbati xisoblanadi. Turli xil vitamin C, mikroelementlar va aminokislotalarga boy. Pishirilganda, bu navning ildiz mevalari yumshoq bo'lmaydi, shuning uchun ular qovurish va chipslar uchun mos keladi.



2.1-rasm. Sante navning kovlangandagi ko'rinishi.

2. Picasso. Gollandiyadan keltirilgan, moslanuvchan, o'rtapishar nav. O'suv davri 90-95 kun. Palagi baquvvat, baland bo'yli, ko'p poyali, kuchli barglangan. Guli oq. Ertagi va ikkihosilli ekinlarga mos. Hosildorligi ertagida 30-35, ikkihosillida 28-30 tonna. Mazasi va saqlanuvchanligi yaxshi. Tugunagi sarg'ish, ko'zi, qoshi qizil. Sho'rga

chidamli. Tuproq namligi kuzda 80% dan oshsa, haqiqiy qo'tirga chalinuvchan.

3. Red Skarlet – Gollandiyadan keltirilgan, tunganagi eti qizil o'rtatezpishar nav. O'suv davri 70-75 kun. Palagi baquvvat, baland bo'yli, serpoya va serbarg. Guli och pushti rangda, ertagi va ikki hosilga yaroqli. Hosildorligi 34-38 t/ga, ikki hosilli qilib ekilganda 26-30 t/ga. Tuganak mag'zi och sariq, eti qizil, ko'zchalari yuza joylashgan, kraxmal miqdori 14-15 %, tashiluvchan. Unib chiqqandan 50-55 kuni tunganaklar shakllangan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Nav moslanuvchan, fitoftoroz, mozaikaga chidamli.

4. Arnova. Gollandiyadan keltirilgan. Nav o'rtatezpishar, tunganagi oval-uzunchoq, silliq, tunganak eti sarg'ish, mag'zi och-sariq rangda. O'simlik bo'yli, baquvvat va baland serpoya va serbarg, guli oq. Hosildorligi 33-37 t/ga, ikki hosilli qilib ekilganda 26-28 t/ga. Tuganagi tashiluvchan, yuqori oziq-ovqat sifatiga ega. Uzoq muddatga saqlash tavsiya etilmaydi, yangi kovlangan holda oziq-ovqatga ishlatishga tavsiya etiladi.

2.5-§. Tajribada olib borilgan agrotexnik tadbirlar

Tajribalarimiz Samarqand viloyatida joylashgan Bog'bon biotexnologiya laboratoriysi sharoitida o'tkazildi.

Dastlab 2017-2018 yillarda kartoshka navlari yetishtirilgan tog'oldi mintaqadan rezavor mevalar terilib, botanik urug'lari ajratilib olingan. Birinchi tajribada 2019-2021 yillarda biotexnologiya laboratoriyasida 20 kun davomida nishlatilgan kartoshka tunganaklari o'simtalarini va aynan shu navning botanik urug'lari nishlatilib, 2019 yil 5-fevral, 2020 yil fevral va 2021 yil 5-fevral kuni bir vaqtida in-vitro sharoitida meristemani ajratdik va odatdagisi Murasiga-Skuga ozuqa muhitiga ekdik. Laboratoriya muhiti avtomatik tarzda boshqarilib, harorat 25-26°C, namlik 70-75%, bir kunda 16 soat yorug'lik, yorug'lik intensivligi 3-5 ming/lyuks ta'minlandi va har kuni kunning bir vaqtida soat 10.00 da kallus hosil bo'lishi, hujayralar induksiyasi kuzatib borildi.

Ko'paytirishga tayyor ko'chatlar 17-mart va 22-mart kunlari qalamcha qilib, ya'ni barg bandi bilan laminarda qalamchalanib, yangidan tayyorlangan MS ozuqa muhitiga ekilib, ikki hafta davomida kultura xonasida o'stirildi va probirka niholi olindi. Olingan probirka nihollari 8-10 aprel kunlari fitotronga 5x5, 6x6, 7x7, 8x8, 9x9, 10x10 sm sxemalarda ekildi.

Fitotronda ko'chatlar ekish oldidan oziqlantirish, sug'orish, kasalliklardan himoya qilish choralar ko'rildi. Rivojlanishning 30 va 60 kunlari ko'z bilan chamalab xamda serologik (viruslar zardobi bilan barg shirasini predmet oynasiga tomizib) quruq qoldiq qolish bilan viruslar bilan kasallanishi aniqlandi.

Hosilni yig'ishtirish 18-20 iyun kunlari kartoshka palagi to'liq pishib yetilmasdan gullash davrida yig'ishtirib olindi. Sababi to'liq pishib yetilmagan xom vazni 40-60 grammlı hosil olinib, keyingi tajribalarga berildi.

Tajribalarda minituganaklarni olishni takomillashtirish maqsadida 2020-2022 yillarda dastlabki olingen kallus to'qimalarni (botanik urug'dan nishlatilib olingen) Murasiga-Skuga ozuqa muhiti tarkibidagi Saxoraza, Gebberillin, Kinetin va IUK miqdorlarini muvofiqlashtirish asosida laboratoriyyada maxsus fiziologik plastmassa idish (eni, 7 sm buyi, 8 sm uzunligi 11 sm) larga ekilib, kultura xonasi muhitida (harorat 25-26°C, namlik 70-75%, bir kunda 16 soat yorug'lik, yorug'lik intensivligi 3-5 ming/lyuks) parvarishlandi.

2020 yil 10-yanvarda, 2021 yil 11 yanvarda va 2022 yil 12 yanvarda idishlarga ko'paytirishga tayyor nihollar qalamchalari ekilib, ekilganning 10-, 20-, va 30- kunlar kuzatuylar olib borildi, minituganaklarni shakllanishi kuzatib borildi. Hosil yig'ishtirish 2020 yil 10 aprel, 2021 yil 11 aprel va 2022 yil 12 aprelda olindi. Tajribalarda olingen minituganaklar va fitotronda ko'paytirib olingen hosilni ochiq dalada reproduksiyalarda o'stirish va parvarishlashda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan (2016) qabul qilingan agrotavsiyaga muvofiq olib borildi. Dala tajribasi o'tkazilgan 2019 – 2022 yillarda o'tmishdosh ekin bo'lib, ertangi karam va arpa xizmat qildi.

2.5-jadval

Kartoshka navlarini ertagi va ikkihosilli ekinlar sifatida o'stirish va yig'ish bo'yicha texnologik xarita.

№	Ishning		Agregat tarkibi	Mashina va quroq markasi	Ishni bajarish muddati
	Nomi	Sifat ko'rsatkichi			
Ertagi ekin sifatida					
1.	Yemi shudgorlash	28 – 30 sm	VT-150	PN-4-35 rusumli plug	4-5 noyabr
2.	Chizellash	16 – 18 sm	VT-150	ChKU-4-1	7-8 -mart
3.	Boronalash	8 – 10 sm	VT-150	BZSS-1,0	7-8 mart
4.	Molalash	tekislash va zichlash	VT-150	VP-8	9-mart
5.	O'g'itash	20 t/ga go'ng va P ₁₆₀ K ₁₀₀ me'yorda	T-28X4	NRU	1-3 noyabr
6.	Ekish	8-10 sm chugurlik	MTZ-80	SN-4B-2	8-10 mart
7.	1-kultivasiya	16 sm	MTZ-80	KRN-2,8A	5-8 aprel
8.	Kimyoiy ishlov	Kasallik va zararkunandalarga qarshi, Nuril-d, 0,7 l/ga	T-28X4	OVX	5-8 aprel
9.	Chopiq	Qo'ida	–	–	20-22 aprel
10.	2-kultivasiya	18 sm	MTZ-80	KRN-2,8A	1-5- may
		Azotli o'g'itilar N ₂₀₀ bilan unib chiqish va gullash oldidan	T-28X4	KRN-2,8A	1-oziqrantirish unib chiqish davrida, 5-8 aprel
11.	Oziqrantirish				2- oziqrantirish shonala什 davrida, 1-5 may,
12.	Sug'orish	1-1-5 (6) sxemada gektariga 500-700 m ³ suv me'yordi	-	-	O'suv davri davomida

13.	Hosilni yig'ish	4 t sig'imli telechkada	MTZ-80 MTZ-80	KST-1,4 2-PTF	28-30 iyun 28-30 iyun
14.	Tashish				1-2 iyul
15.	O'stiruvchi stimulyatorlar bilan ishlov berish				
		Ikkihossili ekin sifatida			
1.	Chizellash		VT-150	ChKU-4-1	24-25- iyun
2.	Boronalash	8 - 10 sm	VT-150	BZSS-1,0	25-26 iyun
3.	Molalash	tekislash va zichlash	VT-150	VP-8	25-26 iyun
4.	O'g'itlash	20 t/га go'ng va R _{ref} K ₁₀₀ me'yorda	T-28X4	NRU	Ekish bilan, o'suv davrida
5.	Ekish	8-10 sm chuoqurlik 16 sm	MTZ-80 MTZ-80	SN-4B-2 KRN-2,8A	4-5 iyul 3-5 avgust
6.	1-kultivasiya	Kasallik va zararkunandalar, Nurl-d, 0,7 l/ga	T-28X4	OVX	15-16 avgust
7.	Kimyoviy ishlov				
8.	Chopiq	Qo'ilda 18 sm	MTZ-80	KRN-2,8A	25-26 avgust 22-23 sentyabr
9.	2-kultivasiya				
10.	Oziqlantirish	Azotli o'g'itlar N ₂₀₀ bilan unib chiqish va gullash oldidan	T-28X4	KRN-2,8A	1-oziqrantirish unib chiqish davrida, 3-5- avgust 2- oziqrantirish shonalash davrida, - 22-23-sentyabr
11.	Sug'orish	1-1-5 (6) sxemada gektinga 500-700 m ³ suv me'yordi	-	-	O'suv davri davomida
12.	Hosilni yig'ish	4 t sig'imli teleshkada	MTZ-80 MTZ-80	KST-1,4 2-PTF	5-7 noyabr 5-7noyabr
13.	Tashish				

O'tmishdosh ekinlar yig'ishtirilib olingach, kech kuzda dalaga go'ng va mineral o'g'itlar solinib, 28-30 sm chuqurlikda shudgorlandi. Tuganaklarning ko'karishi va o'simlikning o'sishi uchun 6-7°C dastlabki xarorat xisoblanadi. Tuganaklarni yaxshi o'sishi uchun o'rtacha xarorat 19-23°C. Tuganak o'sayotgan vaqtida xarorat 3-5°C va 31°C dan yuqori bo'lsa tuganaklar ko'karishdan to'xtaydi.

II-bob bo'yicha xulosalar

-tajriba o'tkazish bo'yicha uslublar to'g'ri tanlangan, tajribada laboratoriya sharoitlarida ozuqa muhitlar, kultura xonasini boshqarish, sterilizasiya va fitotron tuproq iqlim sharoitlari boshqarilishi imkoniyati ega. Dala tajribalari Bog'bon Biotexnologiya kompleksi hududi dalalari kartoshka o'stirish va yetishtirish uchun qulay hisoblanadi.

-izlanishlar oldiga qo'yilgan vazifalarini amalga oshirish uchun tadqiqotlar tasdiqlangan dasturi, shaxsiy tadqiqotlar kalendar rejasiga asosida tajribalar ketma-ketligida asosiy yo'naliishlari bo'yicha O'simlikshunoslik ixtisosligi pasportiga mos uslublar to'g'ri tanlangan, tajribalar aprobasiyadan o'tkazilib, hududdagi agromaslahatlar asos qilib olingan.

III-BOB. KARTOSHKA NAVLARINI TUGANAK VA BOTANIK URUG‘ O‘SIMTALARIDAN IN VITRO DA MINITUGANAKLARI OLISH

3.1- §. Uchki meristema hujayralarini ajratish, hujayra morfogenezi

Meristema kulturası bu o‘simlikdan apikal meristema to‘qimasini ajratish va yetishtirishda yordam beradigan to‘qima kulturası usuli. Apikal meristema o‘simlikning uchi bo‘lib, unda turli xil o‘simlik to‘qimalariga differensialanishga qodir bo‘Imagan hujayralar mavjud. Meristema hujayralari o‘simliklarning kurtaklari va ildiz uchlarida joylashgan hujayralar guruhidir. Differensiatsianmagan ular ildiz hujayralari sifatida qaraladi, chunki ular o‘simlikning turli qismlarini ixtisoslashida ishtirok etadi [126; 337-340-p.].

Kartoshka ekinlarini yetishtirish uchun in-vitro usuli juda samarali ekanligi isbotlangan mos oziq moddalarini tanlash va optimallashtirish ishlab chiqarishning tejamkor usullaridan biriga aylanishi va manba materialining sifati va unumdorligini oshirishi mumkin [127; 357-368-b.]. O‘simliklarning hujayralari, to‘qimalari va organlari kulturalarini yetishtirishda ozuqa muhit tarkibi bilan belgilanadi. Kartoshka yetishtirish uchun hujayralar Murasiga-Skuga ozuqa muhitidan foydalilanadi.


Izolyasiyalangan apikal meristemalar kulturası, o‘simliklarni mikroklonal ko‘paytirish uchun ekiladigan virussiz materiallar olishda foydalilanadi. Virussiz material olish usuli kasal o‘simlikning o‘sish nuqtasiga yo‘nalishi bilan viruslarning miqdori kamayishiga asoslangan.

Odatda apikal meristema viruslardan umuman xolidir. Xususan viruslardan xoli apikal meristema faol bo‘linuvchan, uzunligi 0,1 mm, eni 0,25 mm bo‘lgan konus shaklidagi hujayralardan iboratdir. Asosan meristemani jaroxatlarsiz bo‘laklarga ajratish qiyin bo‘lganligi sababli, uni 1-2 barg primordiyalar (o‘lchami 100-250 mkm apekslar) bilan ajratib olinadi. Kartoshkaning faol sog‘lomlanishini o‘stirish uchun yuqori meristemalar usuli termoterapiya va kimyoterapiya bilan birlgilikda olib borish oziqa muhitlariga viruslarni ingibirlovchi moddalar qo‘shilishiga asoslangan. Apikal meristemalardan oziqa muhitda apikal kartoshkaning virussiz o‘simliklari olinadi, ular ko‘paytirilib, issiqxonalarga qayta ekiladi va virussiz tuganaklar olinadi. Sog‘lomlashtirilgan materialni tez ko‘paytirish uchun in-vitro da olingan tuganaklardan ham foydalinish mumkin.

Ishning borishi. Kartoshka tuganaklari 4-8°C da saqlanadi, so'ng qorong'ulikda 20-22°C da o'stiriladi. Meristemalarni bo'laklarga ajratish ishlari bakteriosid lampalar bilan sterillangan laminar bokslarda amalga oshiriladi. Ish boshlashdan avval ish joylari, stol, binokulyar lupalar va probirkali shtativlar spirt bilan artilib chiqiladi.

Bo'laklarga ajratish uchun ishlatiladigan asboblar (pintsetlar, skalpel va ignalar) har bir ajratishdan so'ng sterillanadi, buning uchun asboblar spirtga solinib, spirtovka alangasiga tutiladi. Nihollar meristemalarga ajratishdan oldin 3-5 daqqa davomida 0,1% li diasid eritmasida sterillanadi. Buning uchun nihollar kimyoviy stakanga solinib ustidan diasid eritmasi quyiladi. Keyin uch marta steril suvda chayiladi. Shuningdek 1-6% li kalsiy yoki natriy gipoxlorid eritmasida yoki 0,1% li sulema eritmasida ham sterillash mumkin. Sterillangan nihollar Petri likobchasiga joylanadi va qurib qolmasligi uchun bir necha tomchi sterillangan suv solinadi. Niholni bo'laklarga ajratishdan oldin, bargni yuqori va yon meristemalarni asta - sekinlik bilan yalang'ochlagan holda uning uchidan yopqich barglar olib tashlanadi. Bu ishni binokulyar mikroskop ostida ajratishni igna yordamida bajarish mumkin. 100-250 mk kattalikdagi boshlang'ich bargsiz meristema ushlagichga qistirilgan oddiy ingichka nina bilan bo'laklarga ajratiladi. Har bir bargni yulishda alohida sterillangan asbobdan foydalanish kerak. Izolyasiya qilingandan so'ng kartoshka navlarining meristemalari Murasiga-Skuga ozuqa muhitida o'stiriladi.

MS muhiti barcha in-vitro uchun ishlatiladi, jumladan meristema kulturalari, meristema xosilasi o'simliklarning mikroko'paytirilishi mikrotuganaklarning xosil bulishida ishlatiladi.



3.1-rasm. Apikal meristema ajratishga tayyorlangan tuganak.

Ajratilgan meristema ninaning uchida probirkadagi oziqa muhit yuzasiga joylashtiriladi. Probirka og'zi va paxta tinqin spirtovka alangasida sterillanib yopiladi va shtativga joylanadi. Shtativ probirkalar bilan to'lgandan so'ng oziqa muhit qurib qolmasligi uchun selofan qalpoqcha bilan yopib qo'yiladi. Avtoklavda 20 daqiqqa 1 atm bosimda sterillangan oziqa muhitlardan Murasiga-Skuga oziqa muhiti ishlataladi. Oradan 2,3,4 hafta o'tgandan so'ng meristemadan nihollarning rivojlanishi kuzatiladi va shu jarayon bosqichlari chizib olinadi.

Qalamchaning yon kurtagini oziqa muhitiga o'tkazilganda undan novda o'sib chiqadi. Keyingi qalamchalash har 14-21 kundan so'ng olib boriladi. Bitta o'simlikdan 5-8 qalamcha olinadi, 3 oy mobaynida qalamchalash yo'li bilan 3-5 ming o'simlik, 7 oy ichida esa ko'payish koyeffisentimi 30-40 mingga yetkazish mumkin. So'ngra, sog'lomlashtirib ekiladigan materiallarni ko'paytirishning keyingi bosqichi, ya'ni issiqxonalarda olib boriladigan bosqichiga o'tiladi. Bunda probirkadagi o'simliklar agarli oziqa muhiti bilan birgalikda tuproqli tuvaklarga ekiladi.



3.2-rasm. Apikal meristemadan in-vitro da hosil bo'lgan nihollar.

O'simliklar 3-7 kuni Murasiga-Skuga bo'yicha mikroelementlar bilan 5 ml boshlang'ich eritmaning 1x100 konsentrasiyali 1 ml suvdagi eritmasi bilan oziqlantiriladi. 7-100 kundan so'ng o'simliklar virussiz tunganaklar olish uchun, issiqxonalarga doimiy joyiga o'tkaziladi va olingen hosil keyinchalik dalaga ekiladi.

Laminarda probirkadan kartoshka o'simligi Petri likobchasiga olinadi, har birida bargi va qo'litiq kurtagi bo'lgan poya bo'laklariga bo'linadi. Barg tagidagi poya qismi barg ustidagi poya qismidan 2-3 marta kichik bo'lishi kerak. Ish davomida sterillikka katta ahamiyat berilishi lozim. Qalamchalarni modifikasiyalangan Murasiga-Skuga oziqa muhitni probirkalariga olib ekiladi. Bunda, mikroorganizmlar tushishining oldini olish uchun probirka og'zi va paxta tiqinlar spirtovka alangasida sterillanadi.

Tadqiqotlarning laboratoriya sharoitida meristema hujayralarini ajratish, o'stirish, dastlabki morfogenezni kuzatish ishlari bevosita in-vitro laboratoriyyasida 5 fevraldan boshlanadi. Ekilgan hujayralar kultura xonasida o'stirishga qo'yilib, kuzatuv olib borildi. Kuzatuv har kuni kunning aniq bir vaqtida (soat 10.00 da) o'tkazildi.

Kuzatuv jarayonida kallus to'qimalarni hosil bo'lish jarayoni variantlarda bir-biridan keskin farq qildi. Tuganak o'simtasidan olingen hujayralardan o'sish nuqtasini hosil bo'lishi 13-14 kunda, to'liq o'sish nuqtasini shakllanishi 18-20 kunda qayd etilgan bo'lsa, urug' nishlatilip uning o'simtasidan ajratilgan hujayralarda o'sish nuqtasini hosil bo'lishini boshlanishi 11-12 kunda, to'liq o'sish nuqtasini shakllanishi esa 17 kunda kuzatildi, tuganaklarni o'simtasidan ajratilgan hujayralarga nisbatan 2-3 kunga ertaroq qayd etildi. Tajribada ekilgan hujayralarni ayrimlari tuganak o'simtasidan olingen hujayralarning 10 ta namunaning 3 tasi, urug'dan nishlatilip, ularni o'simtasidan olingen hujayralar ekilgan namunalarning 10 tasidan 1 tasi rivojlanishdan orqada qolish kuzatildi. Bu jarayon hujayralarni ajratish jarayoniga bog'liq. Chunki ajratilgan hujayralar miqdori namunalarda bir-biridan son jihatidan farq qilishi mumkin. Ikkinchidan ajratilgan to'qima hujayralarning sog'lomligi, holati, ajratib ekish jarayonida mexanik shikastlanishi (pinset bilan ishlaganda), uchinchidan mikroigna bilan ishlaganda bir namunaning ikkinchi, yoki uchinchi namunaga viruslar, bakteriyalar, zamburug'lar o'tib qolishi, muhitni sog'lomligini ta'minlashda texnik xatolik bo'lishi mumkin. Tajribadagi namunalarning o'rta ko'rsatgichi shuni ko'rsatadi, bir nav ekin navining tukanagi va urug' o'simtalarining hujayralari bilan ishlaganda o'sish tezligi urug' o'simtasidan olingen namunalardan 3-4 kun oldin qayd qilindi. Ikkala namunalardan olingen kallus to'qimalar bosqichma-bosqich tajribaning keyingi qismiga o'tib, kallus to'qimalar tukanidan olingen hujayralar asosida shakllangan kallus va urug' o'simtasidan olingen hujayralarni o'stirish asosida shakllangan kallus 25 fevral kuni yangi to'yintirilgan ozuqa muhitga ekildi.

3.1-jadval

Tajribada kallus to'qimalar olish (2019-2021 yy.).

Nº	Variantlar	Hujayra ajratilgan, kun	Kallus shakillangan, kun	Kallus hosl bo'lish davomiyligi, kun	Kallus hujayralari qayta ekilgan, kun	Dastlabki o'suv nuqasi hosl bo'lgan kun	Ko'payti-rishga tayyor nihol
Arnova							
1	Tugananak o'sintasidan olingan in-vitro ko'chati	05.02.	22.02.	17	22.02.	8.03.	22.03.
2	Urug'ni nishlatib undan olingan in-vitro ko'chati	05.02.	19.02	14	19.02.	3.03.	17.03.
Pikasso							
1	Tugananak o'sintasidan olingan in-vitro ko'chati	05.02.	21.02.	16	21.02.	7.03.	21.03.
2	Urug'ni nishlatib undan olingan in-vitro ko'chati	05.02.	18.02.	13	18.02.	2.03	16.03.

Kallus to'qimalar ekilgan namunalar kultura xonasida kuzatilib, ulardan murtak hosil bo'lishi, o'sish nuqtasini o'sa boshlagan davri birinchi variant (tuganak o'simtasidan olingan in-vitro ko'chat) 22 fevral kuni ya'ni 17 kunda, ikkinchi variant (urug' o'simtasidan olingan in-vitro ko'chat) da esa 19 fevral kuni yoki 14 kunda, birinchi variantga nisbatan 3 kun oldin kuzatildi.

Kallus to'qimalarni namunalarini bir-biridan farq qilish jihatni, morfogenetika deyarli katta farq sezilmadi. Bu navlarni genotipik bir xilligini bildiradi, ya'ni urug'dan ham tuganakdan ham o'sirishga yaroqli hisoblanadi.

Tajribada ko'paytirishga tayyor kallus nihollari birinchi variantda 10 ta namunaning 7 tasi 5 aprelda tayyor bo'lgan bo'lsa, ikkinchi variantda esa 10 ta namunaning 9 tasi ya'ni 90% yoki birinchi variantdagi namunalarga nisbatan 20% ga ortiqdir. Birinchi variantda rivojlanishdan qolgan, talabga javob bermaydigan kallus to'qima nihollari salmog'i 25-30% bo'lib, urug'dan nishlatilib, o'simtalaridan olingan va shakllanrilgan kallus nihollari (ikkinchi variant) da bu ko'rsatkichdagiligi salmog'i 9-10% ni tashkil etdi, yoki ikkinchi variantga nisbatan birinchi variantdagi nihol namunalarining ko'paytirish koefisiyenti 20% ga ortiq ekanligi aniqlandi.

Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini jadal ko'paytirishda odatda urug'chilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar, klasterlarda sog'lom o'simlik tuplarini tanlash va ularni ko'paytirish asosida aniq bir urug'chilik tizimi (urug'chilik sistemasi va sxemasida) da olib boriladi. Biotexnologiyalarning rivojlanishi, yangi molekulyar darajada, hujayra darajasida ishlash imkonini beruvchi laboratoriyalarni ishlab chiqarishda joriy etilishi, urug'chilik tizimida mavjud muammolar urug' sifati, urug'bop o'simliklarni tanlash, ularni birinchi va ikkinchi yillari sinash, ajratilgan sog'lom (dala sharoitida ko'z bilan chamalab, sog'lom deb tanlab olingan) namunalarini ko'paytirish pitomniklarida bajariladigan ishlarni bartaraf qilib, qisqa vaqt ichida katta miqdordagi sog'lom o'simliklarni olish imkonini beradi.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasiga, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetimizning "Biotexnologiya" kafedrasiga olimlari bilan viloyatda tashkil etilgan biotexnologiya laboratoriysi bilan hamkorlikda ushbu tadqiqotlarni olib borgamiz. Kafedrada kichik biotexnologiya laboratoriyada hujayralarni ajratish va o'sirish uchun muhitni boshqarish imkonini cheklanganligi tufayli asosiy

ishlarimizni kafedramizning filiali tashkil etilgan in-vitro bog'bon biotexnologiya laboratoriyasida olib bordik.

Demak kartoshka navlarini in-vitro sharoitida jadal ko'paytirishda ularning tunganaklarini o'simtasidan ko'paytirish bilan birga, botanik urug'laridan nishlatib, o'simtalarini o'stirish tunganak o'simtalariga nisbatan 3-4 kun tez o'sishi, rivojlanishdan qoladigan to'qimalar salmog'i 16-18% ga kam, ko'payish koeffisiyenti 20-30% ga miqdor jihatidan kallus to'qimalar nihollarini ko'proq olish imkonini beradi. Bu o'z navbatida rivojlanishdan qoladigan, brak qilinadigan morfozlarga qilinadigan mehnat sarf xarajatni tejab qoladi.

3.2 -§. Probirka nihollarini o'sish va rivojlanishi

Respublikamizda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga yangi biotexnologiyalarni kirib kelishi, ekinlarni o'stirish va ularni o'sishi, rivojlanishini boshqarish, sog'lom urug'lik yetishtirish masalalari yangi biologik yondashuvlar asosida toza, ekologik sog'lom va kafolatlangan urug'lik yetishtirish joriy qilinmoqda [136; <https://www.fao.org/faostat/en/#home>].

Kartoshkachilikda keyingi yillarda tibbiy me'yorga ko'ra aholini yillik iste'mol me'yori 52,6 kg, bu 1,9 mln tonnani tashkil etadi, amaliyotda esa xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra 96,7 kg ni, bu yillik 3,4 mln tonnanni tashkil etadi [137; <https://www.atlasbig.com/ru/strany-po-proizvodstvu-kartofelya>].

Respublikada 2021 yilda 3,3 mln tonna hosil yetishtirilgan, ularning 650 ming tonnasi urug'lik uchun olib qolingga. 2022 yilda 243 ming hektar maydonga kartoshka ekilgan (barcha turdag'i xo'jaliklar hisobida) bu o'tgan 2021 yilga nisbatan 86 ming hektar ko'pdir. Fermer xo'jaliklarida 153 ming (2021 yilga nisbatan 70 ming hektar ko'p) va qishloq xo'jalik klasterlarida 115,5 ming hektar (65 ming/ga ko'p), asosiy ekin sifatida 7,3 ming hektar (4400 hektar ko'p), bog' va tokzorlar qator oralariga 30 ming hektar, tamorqa xo'jaliklarida 90 000 hektar (10 ming gektarga ko'p)ga 2021 yilga nisbatan. Ushbu maydonlardan 2022 yilda prognoz bo'yicha 4,1mln tonna hosil olish va (yoki 850 ming tonna ko'p 2021 yilga nisbatan), shundan 2,6 mln tonna fermer xo'jaliklari va 1,5 mln tonnasi esa tamorqa xo'jaliklarida yetishtiriladi [136; <https://www.fao.org/faostat/en/#home>].

Tajribada kartoshka nihollari to‘liq shakllangach ulardan minituganaklar yetishtirish uchun fitotronda 5x5 sm, 6x6 sm, 7x7 sm, 8x8 sm, 9x9 sm, 10x10 sm qilib ekildi. Nihollarni o‘sishi va rivojlanishi kuzatib borildi, ko‘chatlarda minituganaklarni yig‘ish oldidan o‘simliklar bo‘yi Arnova navida ekish sxemalari bo‘yicha tunganak o‘sintasidan olingan hujayra in-vitro o‘simliklarida 56,1-60,1 sm, yon shox soni 5,1-6,1 dona, barg soni 42,5-56 donani tashkil etgan bo‘lsa, kartoshkani botanik urug‘idan nishlatib, hujayralaridan olingan in-vitro ko‘chatlarida 56,4-63,5 sm o‘simlik bo‘yi, yon shox soni 5,5-6,1 dona, barg soni esa 44,7-62 donagacha o‘zgardi yoki dastlabki urug‘lik nihol olish usuliga nibatan ikkinchi usulda o‘simlik bo‘yi mos ekish sxemalariga ko‘ra 3,4 sm ga, yon shox soni 0,1-0,5 donaga, barg soni 2,2-8 donagacha ko‘p shakllanganligi aniqlandi.

Tajribada Picasso navida ham ushbu qonuniyat kuzatilib, o‘simliklar bo‘yicha ikkala dastlabki urug‘lik material olish usuliga ko‘ra o‘simliklar bo‘yicha 50,1-55,0 sm, 54-60,2 sm, yon shox soni 5,5-6,1 va 7,2-8,0 dona hamda barg soni 40,1-58,0 va 42,2-61,4 dona kuzatildi.



3.3-rasm. Probirkadagi qalamchalashga tayyor nixollar (2019 y.).

O‘simliklarni o‘suv davrida sog‘lomlik darajasini aniqlash va sog‘lom nihollarni ko‘paytirishda qayta viruslar bilan kasallanishini oldini olish uchun ekilganda, rivojlanishning 30-kuni va rivojlanishning 60-kuni ochiq holatda ya’ni ko‘z bilan chamarlab, o‘simlikning holatiga, viruslar chaqirishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar (barg buralishi, bargni orqaga qaytib buralishi, barg plastinkasi tortilishi, o‘simlik bo‘yini tortilib qolishi, supurgiga o‘xshab qolishi va boshqa) kabi belgilariiga qarab aniqlandi.

3.2 – jadval.

Tajribada ko‘chatlarni o‘sishi va rivojlanishi, (2019-2021 yy.).

Nº	Variantlar	O‘simlik bo‘yi, sm	Yon shox soni, dona	Barg soni,
Arnova navi				
Tuganak o‘simtasidan olingen hujayra nihollari				
1	5x5	56,1	5,1	42,5
2	6x6	58,2	5,4	46,4
3	7x7	59,0	5,6	50,1
4	8x8	60,1	6,1	56,0
5	9x9	60,0	5,8	56,0
6	10x10	56,0	5,4	48,0
Urug‘dan nishlatib o‘simtalardan olingen hujayra nihollari				
1	5x5	56,4	5,2	44,7
2	6x6	59,6	5,5	48,6
3	7x7	60,2	5,6	56,4
4	8x8	63,5	5,9	58,9
5	9x9	62,4	6,3	62,0
6	10x10	59,8	5,8	56,0
Pikasso navi				
Tuganak o‘simtasidan olingen hujayra nihollari				
1	5x5	50,1	6,1	40,1
2	6x6	52,3	6,0	46,0
3	7x7	54,7	5,7	48,1
4	8x8	55,0	5,6	52,0
5	9x9	54,2	5,5	55,6
6	10x10	55,0	5,8	58,0
Urug‘ dan nishlatib o‘simtalardan olingen hujayra nihollari				
1	5x5	54,8	7,2	42,3
2	6x6	56,7	7,3	45,6
3	7x7	56,9	7,4	52,4
4	8x8	58,7	7,4	55,0
5	9x9	60,0	8,0	58,6
6	10x10	60,2	7,5	61,4

Pikasso navi nihollarining in-vitro nihollarini sun’iy ozuqa muhitlarda, gruntga ekkanda va rivojlanishning 30 va 60 kunlari o‘simliklarni gabatiusini ko‘z bilan chamlab, 9 balli shkala asosida baholanganda tuganaklar o‘simtalari in-vitro ko‘chatlarida 7 ballni,

botanik urug' nihollari in-vitro ko'chatlarida 8 ballni tashkil etib, Arnova navi nihollariga nisbatan 1-2 ball yoki 10-15% fenotipik yuqoriligi kuzatildi. O'simliklarni fenotipik bir xilligi nihollar ekilgan, 30 va 60 kuni rivojlanish davrlarida ertalab ko'z bilan chandalab aniqlash asosida hisoblab chiqildi.

Tajribada o'simliklarni ochiq holatda viruslar bilan kasallanishini rivojlanishning 30-kuni kuzatilganda, Arnova navida tiganak o'simtasidan olingan nihollarda 0,6-1,2%, botanik urug' o'simtasidan olingan nihollarda 0,2-1,0%, rivojlanishning 60 kuni esa 1,7-3,7% va 1,6-3,1% qayd etildi. Pikasso navida rivojlanishning 30 kuni ko'chatlarni ekish sxemalari bo'yicha tiganak o'simtasidan olingan nihollarda 1,7-5,8%, rivojlanishning 60-kuni esa 3,6-7,5%, hosil yig'ish oldidan esa 3,9-11,05% o'simliklarda kasallanish alomatlari qayd etildi. Botanik urug'lar nishlatilib, o'simtasi apikal meristema hujayralaridan olingan nihollarda esa rivojlanishning 30-kuni 2,9-4,1%, 60-kuni 3,0-5,0% va hosil yig'ish oldidan esa 4,8-8,0% qayd etildi.

O'simliklarni o'suv davrida viruslar bilan kasallanishining aniq va ishonchli ma'lumotlar olish uchun yashirin holati ya'ni o'simlik barg shirasida maxsus viruslar zardoblari asosida mikroskopning predmet oynasiga o'simliklarni bir xil yarusdagi barglari olinib, barg shirasi predmet oynasiga tomizilib, ustiga X, U, M, S, L viruslar zardoblari tomizilib, qolgan qoldiqqa qarab aniqlandi. Bunda har bir virus uchun alohida zardoblardan foydalanib, barg shirasi zardoblar bilan ishlanganda qolgan qoldiq bo'lsa shu virus bilan kasallanganligi aniqlash asosida aniqlab chiqildi. Bunda Arnova navi nihollarida tiganak o'simtasidan olinganda nihollarning rivojlanishini 30-kuni 4,4-8,2%, 60-kuni esa 6,3-11,9% va hosil yig'ish oldidan esa 8,9-18,7% kasallanganligi va ular asosan mozaik viruslari bilan ya'ni barglarda dog'lanish chaqirishi, fotosintez faoliyatini pasaytirishga sabab bo'luvchi viruslar mavjud ekanligi aniqlandi.

Nihollarni ekish sxemalari bo'yicha o'rganilganda tup qalinligining oshishi bilan kasallanish darajasi oshib bordi, yoki 10x10 sxemada ekilgan 30-kuni rivojlanishda 4,4% kasallanish bo'lsa, 5x5 sxemada bu ko'rsatkich 8,2%, rivojlanishning 60-kuni esa 8,9 va 18,7%, nihollarni botanik urug'idan nishlatib, o'simtasidan olingan nihollarda esa ushbu ko'rsatkichlar birmuncha kichik yoki o'simliklar deyarli sog'lom ekanligi aniqlandi.

3.2.1 – jadval.

**O'simliklarni viruslar bilan kasallanishi, ochiq holatda,
(2019-2022 yy.).**

Nº	Variantlar	Ekilgan kun	30-kuni	60-kuni	Hosil yig'ish oldidan
Arnova navi					
Tugunak o'simtasidan olingan hujayra nihollari					
1	5x5	19.01	1,2	3,7	5,6
2	6x6	19.01	0,9	2,1	3,8
3	7x7	19.01	0,6	1,7	2,7
4	8x8	19.01	-	-	-
5	9x9	19.01	-	-	-
6	10x10	19.01	-	-	-
Urug'dan nishlatib o'simtalardan olingan hujayra nihollari					
1	5x5	14.01	1,0	2,0	3,1
2	6x6	19.01	0,2	1,0	2,1
3	7x7	19.01	0,4	1,0	1,6
4	8x8	19.01	-	-	-
5	9x9	19.01	-	-	-
6	10x10	19.01	-	-	-
Pikasso navi					
Tuganak o'simtasidan olingan hujayra nihollari					
1	5x5	20.01	5,8	6,0	11,0
2	6x6	20.01	4,9	7,1	9,7
3	7x7	20.01	3,6	7,5	9,6
4	8x8	20.01	2,4	5,5	6,0
5	9x9	20.01	2,0	4,8	5,2
6	10x10	20.01	1,7	3,6	3,9
Urug'dan nishlatib o'simtalardan olingan hujayra nihollari					
1	5x5	20.01	4,1	5,0	6,7
2	6x6	20.01	3,7	4,8	8,0
3	7x7	20.01	3,6	4,5	5,9
4	8x8	20.01	2,9	3,0	4,8
5	9x9	20.01	-	-	-
6	10x10	20.01	-	-	-

Kartoshkaning Pikasso navida viruslar bilan kasallanishi biroz yuqori, ya'ni tiganak o'simtasi hujayralari asosida olingan nihollarda 3,2 va 10,7% o'simliklarni 30-kuni rivojlanishida, nihollar kelgach 60-kuni rivojlanishda esa 6,0-14,3% kasallanishi, hosil yig'ish oldidan esa 11,0-19,0%, nihollarni botanik urug' o'simtalari hujayralari asosida olinganda rivojlanishning 30 kuni 3,1-8,1% va rivojlanishning 60-

kuni esa 5,8-12,4% va hosil yig'ish oldidan esa 9,6-16,5% kasallanish aniqlandi. Pikasso navi ko'chatlarini ekish sxemalari bo'yicha olganda yuqoridagi qonuniyat kuzatildi va 10x10 sm sxemada kasallanish kuzatilmadi, 5x5 sxemada esa 8-1, 12,4 va 16,5% bo'lishi kuzatildi.

3.2.2 – jadval.

O'simliklarni viruslar bilan kasallanishi, yashirin holatda, (2019-2022 yy.).

No	Variantlar	Ekilgan kun	30-kuni	60-kuni	Hosil yig'ish oldidan
Arnova navi					
Tuganak o'simtasidan olingan hujayra nihollari					
1	5x5	19.01	8,2	11,9	18,7
2	6x6	19.01	7,7	10,4	15,1
3	7x7	19.01	6,8	10,7	14,8
4	8x8	19.01	5,9	8,7	12,3
5	9x9	19.01	6,7	7,5	10,7
6	10x10	19.01	4,4	6,3	8,9
Urug'dan nishlatib o'simtalardan olingan hujayra nihollari					
1	5x5	19.01	1,6	2,9	4,1
2	6x6	19.01	2,0	4,6	5,7
3	7x7	19.01	-	2,3	4,6
4	8x8	19.01	-	-	2,5
5	9x9	19.01	-	-	-
6	10x10	19.01	-	-	-
Pikasso navi					
Tuganak o'simtasidan olingan hujayra nihollari					
1	5x5	20.01	10,7	14,3	19,0
2	6x6	20.01	8,6	12,7	17,2
3	7x7	20.01	7,5	11,9	15,3
4	8x8	20.01	5,0	9,3	14,7
5	9x9	20.01	4,1	6,7	12,0
6	10x10	20.01	3,2	6,0	11,0
Urug'dan nishlatib o'simtalardan olingan hujayra nihollari					
1	5x5	20.01	8,1	12,4	16,5
2	6x6	20.01	7,0	9,6	14,0
3	7x7	20.01	6,0	8,7	12,1
4	8x8	20.01	3,1	5,8	9,6
5	9x9	20.01	-	-	-
6	10x10	20.01	-	-	-

3.3- §. O'simliklarda mahsuldarlik

Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirishda hosildorligi navlarning biologik xususiyatlari, morfologik va xo'jalik omillariga va yetishtirish agrotexnologiyalariga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. O'simliklarni genetik sofligi, biologik xususiyatlari yuqori bo'lishi bilan ularni urug'lik sifatlari va yetishtirish agrotexnologiyalari ham yuqori darajada tashkil etilishi kerak. Ekinlarni navlari va ularni urug'lik sifatlari yuqori bo'lishi uchun birlamchi urug'lik materiallarini yetishtirish usuliga ham bog'liq bo'ladi.

Tajribalarimizda o'simliklarni mahsuldarligi o'rghanildi. Mahsuldarlik bir tup o'simlikdan olingen tiganaklar soni, ularni vazni, o'rtacha vazni, bir tupdagisi hosil ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Kartoshkaning Arnova navi ekilgan variantlarda nihollarning bir tupda hosili nihollarni ekish sxemasiga muvofiq o'zgarib, 3,1 donadan 6,3 donagacha, bir tupdagisi tiganaklarni o'rtach vazni 39,7-48,0 grammgacha va bir tupdagisi hosil esa 123,7-264,6 grammgacha o'zgardi.

Tiganak o'simtalaridan olingen nihollarda tiganaklar soni 3,1 donadan 5,7 donagacha, ularni vazni 39,7-44,9 grammgacha bir tupdagisi hosili esa 123,7-255,9 gramm bo'lib, bir metr kvadrat maydondan olingen tiganaklar soni 5x5 sm sxemada 62 dona, shundan 36 donasi urug'bop, 10x10 sm sxemada esa 57 dona shundan 54 donasi urug'bop, bir gektar maydondan olinadigan urug'bop tiganaklar eng ko'p 10x10 sm sxemada 540 ming donani tashkil etib, kelgusi yili ular 7,56 gektar maydonni urug'lik bilan ta'minlash imkonini beradi. Arnova navining botanik urug'idan nishlatib, o'simtani apikal meristema hujayralari asosida yetishtirilgan nihollar ekilganda ularda tiganaklar soni eng ko'p 10x10 sm sxemada 63 dona, o'rtacha vazni 48 gramm 7x7 sm sxemada olingen, bir tup hosili esa 264,6 gramm nihollarda 10x10 sm sxemada ekilganda olingen bo'lib, bir metr kvadrat maydondan olinadigan urug'bop minitiganaklar miqdori 60 dona, maydon birligida gektariga 600 ming donani tashkil etib, kelgusi yilda 8,4 gektar maydonni yuqori sifatlari urug'lik bilan ta'minlash imkonini beradi. Tajribada Pikasso navi bo'yicha olganda yuqoridagi Arnova navi kabi qonuniyatlar kuzatilib, tiganak o'simtasi hujayralaridan olingen nihollarda tiganaklar soni 2,9-5,6 donagacha, ularni vazni 27,0-45,0 grammgacha va bir tupdagisi hosil 78,3-252 grammgacha o'zgarib, eng yuqori tiganaklar soni 10x10 sm sxemada 56 dona, yuqori urug'bop tiganak vazni 45,0 gramm, hamda bir tupda eng yuqori hosil 252,0 grammni tashkil etgan bo'lsa, bir metr kvadratdan olinadigan minitiganaklar sonining

3.3 – jadval.

Tajribada ko‘chatlarni mahsuldarligi, (2019-2021 yy.).

Nº	Variantlar	Bir tupda tuganaklar soni, dona	Bir tupda o‘rtacha tuganaklar vazni gramm	Bir tupda tuganaklar hosili gramm	1m ² olingan tuganaklar soni shundan urug‘ bop tuganaklar soni dona	Bir gektar maydordan olinadigan tuganaklar soni, dona	Necha gektar maydonni urug‘ lik bilan ta’ minlaydi ga
Arnova navi							
Tuganak o‘sintasidan olingan hujayra nihollari							
1	5x5	3,1	39,7	123,7	62/36	360000	5,04
2	6x6	3,5	42,8	149,8	56/40	400000	5,6
3	7x7	4,6	45,9	211,1	64,4/45	450000	6,3
4	8x8	5,1	42,0	214,2	61,2/50	500000	7,0
5	9x9	5,4	41,8	225,7	59,4/52	520000	7,28
6	10x10	5,7	44,9	255,9	57/54	540000	7,56
Urug‘dan nishlatib o‘sintalardan olingan hujayra nihollari							
1	5x5	3,2	41,0	131,2	64/40	400000	5,60
2	6x6	3,7	43,0	159,2	59/44	440000	6,10
3	7x7	4,9	48,0	235,2	68/50	500000	7,0
4	8x8	5,6	46,7	261,5	67/55	550000	7,70
5	9x9	5,7	45,0	256,5	62/58	580000	8,12
6	10x10	6,3	42,0	264,6	63/60	600000	8,40
Pikasso navi							
Tuganak o‘sintasidan olingan hujayra nihollari							
1	5x5	2,9	27,0	78,3	58,0/30	300000	4,20
2	6x6	3,4	33,6	114,2	54,4/34	340000	4,76
3	7x7	3,7	40,6	150	51,8/36	360000	5,04
4	8x8	4,4	40,9	179,9	52,8/40	400000	5,60
5	9x9	5,0	42,7	213,5	55,0/45	450000	6,30
6	10x10	5,6	45,0	252,0	56,0/50	500000	7,0
Urug‘dan nishlatib o‘sintalardan olingan hujayra nihollari							
1	5x5	3,4	33,1	112,5	68/40	400000	5,60
2	6x6	3,6	34,5	124,2	57,6/44	440000	6,10
3	7x7	3,9	42,7	166,5	54,6/47,0	470000	6,58
4	8x8	4,6	45,6	209,7	55/52,0	520000	7,28
5	9x9	5,8	51,4	298,1	63/56,0	560000	7,84
6	10x10	6,2	52,0	322,4	62/58,0	580000	8,12

10x10 sm sxemada 50 dona yoki gektariga 500 ming dona bo'lib, kelgusida 7 gektar maydonni urug'lik bilan ta'minlash imkonini beradi.

Ushbu navning botanik urug'lari nishlatilib, o'simta apikal meristema hujayralari asosida yetishtirish nihollar ekilganda ekish sxemalari bo'yicha 3,4-6,1 dona minituganak, ularni vazni 33,1-52,0 grammgacha, bir tup hosil esa 112,5-322,4 gramm qayd etilib, bir metr kvadratda urug'bop tuganaklar chiqimi 58 dona 10x10 sm sxemada nihollar joylashtirilganda olinib, gektariga 580 ming dona yuqori sifatli urug'bop tuganaklar kelgusi yili 8,12 gektar maydonni urug'bop minituganaklar bilan ta'minlash imkonini beradi.

Kartoshka navlарини urug'idan o'stirib, pomidor ko'chatlari singari ko'chat ekini sifatida ko'chatlarni yarimsovq parniklarda o'stirib, ko'chatlarni ochiq dalaga aprel oyining ikkinchi o'n kunliklarda 70x10-1; 70x20-1 70x20-2; 70x30-1;70x30-2;70x30-3 sm sxemalarida o'stirib, nisbatan mayda 60-80 grammli yuqori sifatli urug'bop tuganaklar yetishtirilgan, eng yuqori hosilodorlik ko'chatlar ochiq dalada 70x20-2 sm sxemada gektariga 142400 tup ko'chat joylashtirilganda olingan. D.T.Abdukarimov, A.A.Elmurodovlarning ma'lumotlarida ko'chatxona yerida yozning ikkinchi yarimida botanik urug'larni ekib, minituganaklar yetishtirish usullarini joriy etgan.

Ko'chatxona yerida minituganaklarni yetishtirishda yozning issiq kunlarida urug'larni o'stirishni o'ziga xos qiyinchiliklari mavjudligi, ko'chatxona yerida asosan pomidor ko'chatlari yetishtirilishi, ko'chatlarni ildiz chirish bilan kasallanishi, minituganaklarni bahorgi ekish muddatlargacha saqlash, bahorgi muddatlarda ekish uchun ochiq dalaga tuproq mexanik tarkibi qumoq bo'lishi birmuncha, yog'ingarchiliklar bilan tuproq yuzasi qatqaloq bo'lib, minituganaklarni unib chiqishida muammolar bo'lgan.

Shu sababli aksariyat hollarda minituganaklarni issiqxona yoki fitotronda maxsus tayyorlangan gruntlarda ekib, nisbatan yirik 45-50 grammli tuganaklar olingan.

Lekin botanik urug'larni olish, ayniqa yuqori geterozigotali navlarni to'g'ri tanlash, ularni ajratish, tog'li mintaqaga ekib, rezavor mevasini olish muammolari bo'lganligi manbalarda ma'lum.

Bizlarni tajribada kartoshka navlарини botanik urug'lari kam miqdorda bo'lsada faqat dastlabki o'simtalar olish va ulardan nishlatib apikal meristema olish uchun kam miqdorda talab etiladi. Botanik urug'lardan foydalanishning afzalliliklaridan biri urug'lardan virusli, zamburug'li bakteriali kasalliklar o'tmaydi, yoki juda kam miqdorda

bo'ladi, tuganaklarni oziq-ovqatga ishlatib, botanik urug'lardan foydalanish usuli ham joriy qilingan.

Demak kartoshka navlarini in-vitro da ko'paytirishda tuganaklarni o'simtasi apikal meristema hujayralaridan yetishtirilgan nihollarda urug'bop minituganaklar chiqimi 50-54 dona m^2 bo'lsa botanik urug'dan nishlatib, o'simtalari apikal meristema hujayralari asosida yetishtirilgan nihollar ekilgan bir metr kvadratda 62-63 dona (gektariga 620-630 mingdona) yoki har bir metr kvadratdan 8-13 dona, gektarida 80-130 ming dona yuqori miqdorda urug'bop minituganaklar olish va kelgusi yili 8,1-8,4 gektarga yoki qo'shimcha 1,0-1,8 hektar maydonda urug'bop minituganaklar yetishtirish imkonini beradi.

3.4-§. Minituganaklarning urug'lik sifati

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga yangi texnika va innovatsion biologik texnologiyalarni joriy etilishi, sanoat urug'chiligin tashkil etilishi, sun'iy ozuqa muhitlarda, fiziologik idishlarda, mahsus ozuqaviy gruntlarda ekin, makro va mikro elementlarni va fitogarmonlarni tomchilatib, alohida ozuqa plitalarda o'stirish, o'sishni boshqarish orqali qishloq xo'jalik ekinlarining biologik hosildorligidan foydalanish imkoniyatini kengaytirib bormoqda. Ekinlarni biologik ishlov berish, hujayra darajasida sharoit yaratib, o'sishini, rivojlanishini boshqarish orqali bioinnovatsion texnologiyalar asosida in-vitro da gidropponika, sun'iy ozuqa muhitlarda aeroponika usullarda yil davomida istalgan miqdorda urug'lik yetishtirish, ayrim sabzavotlarni jadal iste'molga yetkazib berish joriy etilmoqda.

Tajribada urug'lik uchun kartoshka navlari dalasining nav tozaligi birinchi kategoriyada 99%, ikkinchi kategoriyada 97% va uchinchi kategoriya dalalarida 95% tozalikka ega bo'lishi lozim. Ekin dalasining nav tozaligi tuganaklar ekish oldidan saralash, to'liq unib chiqqan davrda va gullah fazasida nav va tur o'tog'i o'tkazish bilan amalga oshiriladi. Nav va tur o'tog'i o'tkazilganda dalada sog'lom o'simliklar salmog'i birinchi kategoriyada 99%, kasallangan va rivojlanishdan qolgan o'simliklar salmog'i 1,0% dan oshmasligi, hosil yig'ishtirishda aynigan tuganaklar salmog'i 1% dan oshmasligi belgilandi. Ushbu ko'rsatkichlar ikkinchi va uchinchi kategoriyalarda muvofiq ravishda 98%; 2,0%; 3,0; 95%; 3,0%; 5% ni tashkil etadi.

Birlamchi urug'chilik asosan dastlabki urug'lik materiallari namunalarini tanlash, avlodlarni sinash va ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Elita urug'lar navning qimmatli belgilarini yuqori

darajada saqlab qola oladigan, uning irsiyatini avlodga to‘la-to‘kis o‘tkazadigan bo‘lishi kerak.

3.4-jadval.

Urug‘lik dalalarda nav tozaligi bo‘yicha talablar.

№	Ko‘rsatkichlar	Kategoriylar bo‘yicha, %		
		I	II	III
1.	Nav tozaligi, % dan kam emas	99	97	95
2.	Sog‘lom o‘simpliklar salmog‘i	98	97	95
3.	Kasallangan va zararlangan o‘simpliklar salmog‘i	1,0	2,0	3,0
4.	Notekis aynigan tuganaklar chiqimi	1	3	5

Kartoshkachilik taraqqiy etgan mamlakatlarda kartoshka urug‘chiligiga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, virussiz urug‘lik material ishlab chiqarish maxsus tarmoq sifatida belgilangan. Urug‘chilik tuproq va iqlim sharoitlari qulay, navga xos belgilar yuqori darajada shakllanadigan va sog‘lom urug‘lik material olishni ta’minlaydigan yopiq ixtisoslashgan mintaqalarda joylashtirilgan.

Kartoshka ekinining urug‘chilik tizimida ishlab chiqarishda odatdagi 5 yillik va elita yetishtirish sxemasi va takomillashgan ikki hosilli ekin sifatida 3 yillik elita yetishtirish sxemasi biz tavsiya etayotgan elita yetishtirishning yangi istiqbolli ikki yillik in-vitro da yetishtirish usuli hisoblanadi.

Tajribada olingan ma‘lumotlarga ko‘ra urug‘lik dalalarda nav tozaligi yuqori bo‘lishi uchun dastlabki urug‘lik materialni to‘g‘ri tanlashga, tanlangan o‘simplik hosili (tuganagi, botanik urug‘i) sof, genetik toza bo‘lishi lozim. Buning uchun odatdagи ishlab chiqarishda 5 yillik elita yetishtirish sxemasida tuganaklarni daladan yuqori reproduksiyali dalalardan ko‘z bilan chamalab tanlab olingan o‘simplik tuganaklari asosida yetishtiriladi, 3 yillik elita yetishtirish sxemasida ham tartib avlodlarni sinash davomiyligi ikki yilda ya‘ni bahorda va yozda yangi kovlangan tuganaklarni ekish bilan ikki yilga qisqartirilgan, shu sababli 3 yillik elita yetishtirish hisoblanadi.

Ushbu ikkala tartibda ham o‘simpliklarni sog‘lomligi, ko‘payish koefisisiyenti, navlarni tozaligi, notejis tuganaklarni chiqimi, kasallangan va rivojlanishdan qolgan o‘simpliklarni salmog‘i birmuncha

standart talabalarga javob bermasligi mumkin. Shuning uchun ekinlarni urug'lik materiallarini yetishtirishning istiqbolli usullaridan biri bu biotexnologiya usuli bo'lib, kartoshka, tok, dekorativ gullar, manzarali va mevali danakli o'simliklarni ko'paytirish kabi kartoshkaning urug'lik tiganaklarini tiganagidan va ularni generativ urug'idan nishlatib, sog'lom o'simtalardan meristema hujayralari asosida yetishtirish sog'lomligi, qisqa ikki yil davomida elita tiganaklarni standart me'yordarga javob beradigan holatda yetishtirish imkonini beradi. Yuqorida qayd etganimizdek in-vitro usulida urug' nishlatilib, birinchi yili hujayrasidan in-vitro o'simliklarni urug'idan nishlatilib, meristema hujayralarini olish va in-vitro da ko'paytirish, sun'iy ozuqa muhitlarda minitugananaklar, ko'chat olish, fitotronda minitugananaklar yetishtirish tartibiga asoslangan. Kartoshka navlarini in-vitro da o'stirishning bir necha usullari mavjud bo'lib, ular barcha urug'lik materiallarini qisqa muddatlarda ishlab chiqarishga katta miqdorda yetkazib berish maqsad qilib olingan. Dastlab 1980 yillarda apikal meristema hujayralaridan probirka ko'chatlarini birinchi marta olinganda ular issiqxonada mini tiganak olish uchun ekilgan, 2000 yillarga kelib probirka nihollarini laboratoriya sharoitida in-vitro da bir necha bor regenerasiyasini o'tkazish orqali nihollar soni ko'paytirilgan, keyinchalik probirka nihollarini to'yintirilgan ozuqa muhitlarga ekib probirkalarda minitugananaklar olish (ularni vazni 3-5 gramm), hozirda aeroponika usullari ham joriy etilmoqda.

Kartoshka navlarini jadallashgan urug'chilik tartibi.

3.4.1-jadval

2-yil	I-yil	Birimchi yilgi avlodlarmi simash	Uruq, lik pitorningiz Tadbirlar	Ekish oldidan tunganaklar saralanib ekiladi	Bahorda sinash va yozda supayr-supere etila avlodlarmi ko, paytirish	Uruq, lik pitorningiz Tadbirlar	Mahallyy nay aralashmalaridan ommaviy tanlash yo'li bilan o'simlik to'plari tanlandi	Yozda yangi kovlangan tunganaklarni o'stiruvchi regulyatorlar bilan ishlab ekilgan dalalardan yakka tanlash yo'li bilan tanlanadi	Tawsiya etilgan urug'chilik tartibi (1991)	Tawsiya etilayotgan invitro usuli (2022)	Tadbirlar	Uruq, nishlatib, hujayrasidan in vitro ko, chet olish, yetishirish minitugækklar minituganaklar, fitotronda minituganaklar yetishtirish	Etila pitorningiz Tadbirlar	O'simliklarni urug 'idan nishlatib, meristema hujayralarni olish va invitroda ko 'paytirish. Sun 'iy ozuqa muhitlarda minituganaklar, fitotronda minituganaklar yetishtirish	Tadbirlar	Tawsiya etilayotgan invitro usuli (2022)
-------	-------	----------------------------------	------------------------------------	---	---	------------------------------------	--	---	---	--	-----------	---	--------------------------------	--	-----------	--

5-yil	4-yil	3-yil	Yillar	Elita pitoromi Ko', paytinch pitomniyi	Ikkinctchi yill avlodlarmi sinash pitomniyi	Tadbirlar Elita pitoromi Ko', paytinch pitomniyi	Ekish oldidan tuganaklar saralanib ekiladi	Tadbirlar Tadbirlar Tadbirlar	Tavsiya etilayotgan in- vitro usuli (2022)
							Nav va tur o'tog'i o'kaziladi		

III-bob bo'yicha xulosalar

-fitotronda minituganaklar 70x20 sm sxemada ekilganda o'simlik bo'yi 60,0-70,0 sm, poya soni 1,9-2,1 dona, bir tupdag'i tuganaklar soni 8,0-9,1 dona, ularni bir tupdag'i o'rtacha vazni 55,0-64,5 grammni tashkil etib, bir tupdag'i o'rtacha hosil 451,0-586,0 gramm bo'lsa, ularni gektariga matematik tup soniga ko'paytirish asosida hisoblasak 32,2-41,8 tonna gektariga tashkil etib, ularni 100% urug'liz sifatiga javob berishi kuzatilib, faqat mexanik va biologik ifloslanish jarayoniga 0,5-2,0% ni tashkil etadi;

-yozda navlarni yangi kovlangan tuganaklar bilan ekilganda eng yuqori ko'rsatkichlar, o'simlik bo'yi 74,5 sm Sante navida, poya soni (4,5 dona) bo'yicha Red Skarlet navida, bir tupdag'i tuganaklar soni 7,1 dona Red Skarlet navi, bir tupdag'i o'rtacha tuganaklar vazni bo'yicha Sante (130,8 gramm) navida, bir tupdag'i hosil bo'yicha Sante navida 889,4 gramm, hosildorligi (63,5 t/ga) va urug'liz tuganaklar chiqimi (98% va 62,2 t/ga) bo'yicha ham Sante navida aniqlandi.

- in-vitro da yetishtirilgan turli vazndagi minituganaklarni har xil ekish chuqurliklarida o'simlik bo'yi (45,3-47,6), poya soni (1,8-1,6) va barg soni (23,9-23,0) 5 grammgacha bo'lgan vaznda ularni 5-6 sm chuqurlikda ekilganda, 5-10 gramm minituganaklar Red skarlet navida esa 5-6 sm chuqurlikda o'simlik bo'yi (49,3), poya soni (2,3), barg soni (26,1) yuqori bo'lib, Arnova navida esa 5-10 grammli minituganaklar 7-8 sm chuqurlikda ekilganda o'simlik bo'yi (49,7 sm), poya soni (2,1) va barg soni (24,7) yuqori bo'lgan. Minituganaklarni 10 grammli va undan yuqori bo'lganlari ikkala navda ham ekish chuqurliklari 7-8 sm bo'lganda o'simlik bo'yi 54,5-54,8 sm, poya soni 3,0-2,6 dona va barg soni esa 27,3-26,4 donani tashkil etdi.

IV-BOB. IN VITRO DA MURASIGA-SKUGA OZUQA MUXITINI MUVOFIQLASHTIRISH VA MINITUGANAKLARNI O'SISHI RIVOJLANISHI VA MAXSULDORLIGI.

4.1-§. O'simliklar bo'yi va barg soni

O'simliklarni bo'yi va barg soni o'sish va rivojlanishdagi asosiy biometrik ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Su'niy ozuqa muhitlarda nihollarning o'sishi, rivojlanishi har 10 kunda, ya'ni dastlabki olingen meristema hujayra nihollarini qalamcha (barg bandi bilan kesib olib) qilib, yangi Murasiga Skuga ozuqa muhitining muvofiqlashtirilgan (modifikasiyalashtirilgan) variantlarga o'tkazildi.

Tajribada nihollar yangi ozuqa muhitga o'tqazilgach Red Skarlet navida 10-kuni saxaroza-60 mg/l da nazoratga nisbatan 8 variantda (gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin -1,5 mg/l, IUK-2 mg/l) o'simlik bo'yi 5,2 sm, barg soni 4,1 dona, 20-kuni esa 10,4 sm, barg soni 9,0 dona, 30-kuni esa 16,9 sm va 14,2 dona yoki birinchi nazoratga nisbatan 0,1; 0,2; 0,4;0,3; 0,2 va 0,1 donada yuqori bo'ldi.

Tajribada saxaroza 90 mg/l variantlarda o'simlik bo'yi va barg soni sezilarli yuqori bo'ldi. Eng yuqori 17 va 18 variantlarda (gibberillin-1,5-mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0-2,5 mg/l) 10-kuni kuzatuvda o'simlik bo'yi 5,5-5,7 sm, barg soni 4,6-5,1 dona, 20-kuni o'simik bo'yi 11,0-12,6 sm, barg soni 10,4-10,6 dona, 30- kuni o'simlik bo'yi 20,4-22,5 sm, barg soni 20,0-21,6 dona kuzatilib, birinchi nazorat variantga nisbatan o'simlik bo'yi 0,6; 2,6; 5,8 sm barg soni esa 1,2; 1,9 va 7,5 donaga ko'p, 10 variant (nazorat, saxaroza-90 mg/l da gibberillin-1,0 mg/l, Kinetin-0,1 mg/l, IUK-0,1 mg/l) ga nisbatan esa o'simlik bo'yi kuzatuvlarda 1,6; 3,0; 8,0 sm, barg soni bo'yicha esa 2,1; 3,6 va 9,6 dona ko'p shakklanganligi qayd etildi.


Tajribada nihollar yangi ozuqa muhitga o'tqazilgach Arnova navida 10-kuni saxaroza 60-mg/l da nazoratga nisbatan 8 variantda (gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,5 mg/l, IUK- 2 mg/l) o'simlik bo'yi 4,2 sm, barg soni 4,1 dona, 20-kuni esa 8,3 sm, barg soni 6,1 dona, 30-kuni esa 14,2 sm va 11,6 dona yoki birinchi nazoratga nisbatan 0,1; 0,5; 0,2;0,5;-1,1 va 1,3 donada yuqori bo'ldi.

Ozuqa muhit tarkibiga saxaroza -90 mg/l variantlarda o'simlik bo'yi va barg soni sezilarli yuqori bo'ldi. Eng yuqori 17 va 18 variantlarda (gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0-2,5 mg/l) 10-kuni kuzatuvda o'simlik bo'yi 4,5-4,6 sm, barg soni 4,4-4,5 dona, 20-kuni o'simik bo'yi 11,0-11,6 sm, barg soni 6,0-6,7 dona, 30- kuni o'simlik

bo'yi 17,3-18,4 sm, barg soni 12,1-13,0 dona kuzatilib, birinchi nazorat variantga nisbatan o'simlik bo'yi 0,5; 3,5 va 3,3 sm ga, barg soni esa 0,9; 1,1 va 2,7 donaga ko'p, 10 variant (nazorat, saxaroza-90 mg/l da gibberillin-1,0 mg/l, Kinetin -0,1 mg/l, IUK- 0,1 mg/l)ga nisbatan esa o'simlik bo'yi kuzatuvlarda 1,8; 3,5; 4,4 sm, barg soni bo'yicha esa 1,5; 2,0 va 2,3 dona ko'p shakllanganligi qayd etildi.

Ozuqa muhit tarkibiga saxaroza -90 mg/l variantlarda o'simlik bo'yi va barg soni sezilarli yuqori bo'ldi. Eng yuqori 17 va 18 variantlarda (gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0-2,5 mg/l) 10-kuni kuzatuvda o'simlik bo'yi 4,5-4,6 sm, barg soni 4,4-4,5 dona, 20-kuni o'simlik bo'yi 11,0-11,6 sm, barg soni 6,0-6,7 dona, 30-kuni o'simlik bo'yi 17,3-18,4 sm, barg soni 12,1-13,0 dona kuzatilib, birinchi nazorat variantga nisbatan o'simlik bo'yi 0,5; 3,5 va 3,3 sm ga, barg soni esa 0,9; 1,1 va 2,7 donaga ko'p, 10 variant (nazorat, saxaroza-90 mg/l da gibberillin-1,0 mg/l, Kinetin-0,1 mg/l, IUK-0,1 mg/l)ga nisbatan esa o'simlik bo'yi kuzatuvlarda 1,8; 3,5; 4,4 sm, barg soni bo'yicha esa 1,5; 2,0 va 2,3 dona ko'p shakllanganligi qayd etildi.

**Меристема жужайра николлари барг банди билан (каламча)
утказилганинг**



4.1-rasm. Meristema hujayralarini turli ozuqa muhitlarda o'simlik bo'yi va barg soni, (Red Skarlet navi, 2020-2022 yy).

Tajribada Picasso va Sante navlarida ham yuqoridagi qonuniyat kuzatidi. Navlar bo'yicha olinganda yuqori ko'rsatkichlar Red skarlet navida qayd etildi. Demak, kartoshka navlarini tezkor ko'paytirish maqsadida meristema hujayralarini sun'iy ozuqa muhitlarda o'stirishga

Меристема хужайра нихоллари барг банди билан
(карамча) утказилганинг



4.2-rasm. Meristema hujayralarini turli ozuqa muhitlarda o'simlik bo'yiy va barg soni, (Sante navi, 2020-2022 yy).

mo'ljallangan Murasiga-Skuga ozuqa muhitlari tarkibini takomillashtirish hisobiga to'yintirilgan ozuqa muhit tarkibiga meristema hujayralari nihollarini qalamcha qilib ekib, minituganaklar yetishtirish uchun nihollarni o'sishi, rivojlanishi muqobil ravishda bo'lganligi, o'simlik bo'yiy va barg soni tuganaklar hosil qilish uchun yetarli biomassa shakllanganligi aniqlandi.

4.2-§. O'simliklarda ildiz bilan ta'minlanganlik.

O'simliklarni navga xos morfobiologik belgi-xususiyatlarini shakllanishi, o'sishi, rivojlanishi, poya, barg hosil qilishi ularni ildiz bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Kartoshka navlarini meristema hujayralardan sun'iy ozuqa muhitlarda o'stirishda ularni ildiz hosil qilishi uchun ozuqa muhit tarkibi, hujayralarni o'stirish muhitiga bog'liq. Bizlar tajribada hujayra nihollari to'liq shakllangach, ularni yangi takomillashgan MS (Murasiga-Skuga) ozuqa muhitlarda qalamcha qilib ekilganning 10-, 20-, va 30-kunlari ildiz vazni hamda ildiz hajmlarini biotexnologiya laboratoriya sharoitida tarozida tortish va silindrda hajmlari o'rganildi.

Red Skarlet navida kuzatuvning 10-kuni birinchi nazoratda (saxaroza-30 mg/l, gibberillin-1,0 mg/l, Kinetin-0,1 mg/l, IUK-2,0 mg/l) ildiz vazni 11,0 gram, hajmi 4,1 g/sm³, 20-kuni kuzatuvda ildiz vazni 15,3 gramm, hajmi esa 5,1 g/sm³, kuzatuvning 30-kunida ildiz vazni

17,1 gramm, jami esa 5,7 g/sm³ bo‘lgan holatda, saxaroza 60-mg/l da 9 variantda (gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,5 mg/l, IUK-2,5 mg/l) kuzatuvning 10-kuni ildiz vazni 12,6 gramm, hajmi 5,4 g/sm³, 20-kuni ildiz vazni 17,4 gramm, hajmi esa 6,3 g/sm³, 30-kuni kuzatuvda 19,1 gramm va 7,1 g/sm³ qayd etilib, birinchi nazorat variantga nisbatan ildiz vazni kuzatuv kunlarida 1,6 ; 1,9 va 2,0 grammga ortiq va hajmi esa 1,3; 1,2 va 1,4 g/sm³ ga ko‘p shakllanganligi aniqlandi.

Tajribaning 10-nazorat (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,0 mg/l, Kinetin-0,1 mg/l, IUK-0,1 mg/l) variantida Red skarlet navida kuzatuvning 10-kuni ildiz vazni 9,6 gramm, hajmi 4,0 g/sm³, 20-kuni kuzatuvda ildiz vazni 16,2 gramm, hajmi esa 5,4 g/sm³, kuzatuvning 30-kunida ildiz vazni 15,6 gramm, hajmi esa 6,0 g/sm³ bo‘lgan holatda, saxaroza-90 mg/l da 18 variantda (gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,5 mg/l) kuzatuvning 10-kuni ildiz vazni 12,0 gramm, hajmi 7,5 g/sm³, 20-kuni ildiz vazni 20,0 gramm, hajmi esa 8,1 g/sm³, 30-kuni kuzatuvda 21,4 gramm va 8,6 g/sm³ qayd etilib, birinchi nazorat variantga nisbatan ildiz vazni kuzatuv kunlarida 1,0 ; 4,7 va 3,2 grammga ortiq va hajmi esa 3,4; 3,0 va 2,9 g/sm³ ga, ko‘p shakllanganligi, 10-nazorat variant (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,0 mg/l, Kinetin-0,1 mg/l va IUK-0,1 mg/l) ga nisbatan o‘rganilganda kuzatuvning 10-kuni 2,4 gramm ildiz vazni, kuzatuvning 20-kuni ildiz vazni 3,8 gramm, 30-kuni kuzatuvda esa 5,8 gramm, ildiz hajmi esa 3,5; 2,7 va 2,6 g/sm³ muvofiq ravishda kuzatuv kunlarida ortiq shakllanganigi aniqlandi.

Tajribada kartoshkaning Red Skarlet navida ildiz vazni va hajmi ozuqa muhit tarkibiga bog‘liq ravishda sezilarli farqlar kuzatilib, MS ozuqa muhit tarkibidagi saxarozaning 60 va 90 mg/l da gibberillin, kinetin va IUK larni tabaqlashtirilgan va muvofiqlashtirilgan tarkiblarda muqobil ildiz bilan ta‘minlanishi aniqlandi.

Demak, MS ozuqa muhiti tarkibida saxaroza-60 mg/l bo‘lganda gibberillin -1,5 mg/l, Kinetin-1,5 mg/l va IUK kislota 2,0-2,5 mg/l va saxaroza-90 mg/l bo‘lganda gibberillin-1,5 mg/l , Kinetin-1,0 mg/l va IUK-2,0-2,5 mg/l, tarkibli ozuqa muhitlarda kartoshka navlari meristema hujayra nihollarini minituganaklar olish uchun qayta qalamcha qilib ekish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4.2-jadval
**Tajribada kartoshkaning Red skarlet navini turli ozuqa muhitlarda o'simlik ildiz vazni va hajmi
(Samarqand, 2020-2022 yy.).**

№	Variantlar	10-kuni			20-kuni			Meristema hujayra nihollarinining ildiz rivojlanishi 30-kuni		
		Vazni, g	Hajmi, g/sm ³	Vazni, g	Hajmi, g/sm ³	Vazni, g	Hajmi, g/sm ³	Vazni, g	Hajmi, g/sm ³	
1	1 (nazorat)	11,0	4,1	15,3	5,1	17,1	5,7			
2	2	8,1	3,0	14,0	4,2	16,0	5,1			
3	3	8,4	3,1	14,1	4,3	16,3	5,2			
4	4	8,6	3,1	14,2	4,4	16,5	5,2			
5	5	8,9	3,2	14,4	4,5	16,7	5,4			
6	6	9,4	3,6	14,7	4,8	16,8	5,6			
7	7	10,6	4,1	15,2	5,3	17,1	5,8			
8	8	12,0	4,5	16,3	5,6	18,4	6,4			
9	9	12,6	5,4	17,4	6,3	19,1	7,1			
10	10 (nazorat)	9,6	4,0	16,2	5,4	15,6	6,0			
11	11	8,4	3,5	14,5	4,6	17,0	6,1			
12	12	8,7	3,8	14,8	5,0	17,0	6,2			
13	13	9,1	4,2	15,4	5,5	18,1	6,4			
14	14	9,4	4,9	15,7	5,8	18,3	6,5			
15	15	10,1	5,1	17,1	6,4	19,2	6,9			
16	16	10,5	5,6	18,0	6,9	20,1	7,0			
17	17	11,2	6,7	19,0	7,2	21,2	8,0			
18	18	12,0	7,5	20,0	8,1	21,4	8,6			

4.3-§. Minituganaklarni shakllanishi

Tajribalarda kartoshka navlarini biotexnologik laboratoriyalarda minituganaklarni yetishtirishda uchki meristema hujayralarni ko'chatlari probirkada, polietilen idishlarda, shisha idishlarda, maxsus fiziologik bioreaktorlarda, torfli gruntlarda nihollarini ekib, turli vazndagi minituganaklar olishning biologik texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Respublikamizda kartoshkachilikka ixtisoslashgan viloyat tumanlarida yangi biotexnologik laboratoriyalarni keltirilishi ushbu usullarda yetishtiriladigan kartoshka navlari minituganaklarni yuqori ko'payish koeffisiyentiga erishish, sifatli va sog'lomligini ta'minlash uchun ozuqa muhitlar tarkibini muvofiqlashtirish talab etiladi.

Tajribada Red Skarlet navida hujayralari yangi to'yintirilgan va muvofiqlashtirilgan MS ozuqa muhitiga ekilgach kuzatuv kunlarida poya va barg vazni, minituganak soni va o'rtacha vazni o'rganildi. Birinchi nazorat variantda (saxaroza-30 mg/l, gibberillin-1,0 mg/l, Kinetin-0,1 mg/l, IUK-2,0 mg/l) kuzatuvning 10-kuni poya va barg vazni 1,9 gramm, minituganak shakllanmagan, faqat kichik stolon o'mni mavjud, kuzatuvning 20-kuni poya va barg vazni 5,0 gramm, tuganak soni 2,7 dona, 30-kuni kuzatuvda poya va barg vazni 6,1 gramm, tuganak soni 4,0 dona va vazni 3,6 gramm bo'lib, saxaroza-60 mg/l da 8 variantda (gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,5 mg/l, IUK-2,5 mg/l) bo'lganda kuzatuvning 10-kuni poya va barg vazni 2,7 gramm, minituganak soni 3,0 dona, vazni 3,4 gramm, kuzatuvning 20-kuni poya va barg vazni 5,1 gramm, minituganak soni 7,8 dona, ularni vazni esa 5,4 gramm, kuzatuvning 30-kuni poya va barg vazni 7,5 gramm, minituganak soni 12,4 dona va ularni o'rtacha vazni 7,2 grammni tashkil etdi.

Ushbu variantda olingan ko'rsatkichlar birinchi nazorat (saxaroza-30 mg/l, gibberillin-1,0 mg/l, Kinetin-0,1 mg/l, IUK-2,0 mg/l) variantga nisbatan poya va barg vazni kuzatuv kunlarida 1,2; 0,1 va 1,4 gramm yuqori, minituganaklar soni 3,0; 5,1; 8,4 dona ortiq hamda minituganaklarni o'rtacha vazni bo'yicha 3,4; 2,9; 3,6 gramm yuqoriligi aniqlandi.

Tajribada ozuqa muhitning tarkibidagi saxarozaning miqdorin 90-mg/l oshirib, 10-variant (nazorat, saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,0 mg/l, Kinetin-0,1 mg/l, IUK-0,1 mg/l) ida poya va barg vazni kuzatuvning 10-kuni 1,9 gramm, minituganak soni 2,0 dona, o'rtacha vazni esa 2,9 gramm, kuzatuvning 20-kuni poya va barg vazni 4,9 gramm,

minituganaklar soni 6,0 dona va o‘rtacha vazni 4,9 gramm, kuzatuvning 30-kuni esa 7,2 ; 8,0 va 6,0 gramm qayd etilib, tajriba variantlarda eng yuqori ko‘rsatkichlar 17 variant (saxaroza-90 mg/l, giberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l va

4.3 – jadval.

Tajribada kartoshka Red Skarlet navini turli ozuqa muhitlarda minituganaklar shakllanishi (Samarqand, 2020-2022 yy.).

№	Variant lar	Kuzatuvlar							
		10-kuni			20-kuni			30-kuni	
		Poya va barg vazni, g	Mini tuganak soni, dona	Minituganak vazni, g	Poya va barg vazni, g	Mini tuganak soni, dona	Minituganak vazni, g	Poya va barg vazni, g	Mini tuganak soni, dona
1	1 (nazorat)	1,9	0	0	5,0	2,7	2,5	6,1	4,0
2	2	1,6	1,7	2,5	4,8	5,2	4,1	6,4	7,1
3	3	1,9	2,0	2,6	4,8	5,5	4,5	6,5	7,4
4	4	2,0	2,2	2,9	4,9	6,0	4,9	6,7	8,0
5	5	2,0	2,2	2,9	5,0	6,2	4,9	7,1	8,6
6	6	2,1	2,4	3,0	5,0	6,5	5,0	7,3	9,2
7	7	2,2	2,5	3,2	5,1	7,0	5,0	7,4	10,1
8	8	2,7	3,0	3,4	5,1	7,8	5,4	7,5	12,4
9	9	2,9	3,1	3,1	5,2	8,1	5,3	7,6	11,0
10	10 (nazorat)	1,9	2,0	2,9	4,9	6,0	4,9	7,2	8,0
11	11	2,0	2,1	2,9	5,0	6,2	5,0	7,3	8,1
12	12	2,1	2,4	2,9	5,1	6,3	5,1	7,3	8,2
13	13	2,4	2,9	3,4	5,4	7,0	5,5	7,5	8,9
14	14	2,5	2,9	3,5	5,4	7,1	5,9	7,9	9,8
15	15	2,6	3,1	3,5	5,5	7,4	6,2	8,0	10,8
16	16	2,7	3,2	3,8	5,9	8,0	6,1	8,2	11,6
17	17	2,8	3,3	4,1	6,0	8,5	6,5	8,4	12,9
18	18	2,9	4,0	4,0	6,2	8,9	6,2	8,9	13,5
									8,5

IUK-2,0 mg/l) da kuzatuvning 10-kuni poya va barg vazni 2,8 gramm, minituganak soni 3,3 dona, o'rtacha vazni esa 4,1 gramm, kuzatuvning 20-kuni poya va barg vazni 6,0 gramm, minituganaklar soni 8,5 dona, o'rtacha vazni 6,5 gramm, kuzatuvlarning 30-kuni esa poya va barg vazni 8,4 gramm, minituganaklar soni 12,9 dona, o'rtacha vazni 8,8 gramm qayd etildi.

Ushbu 17-variantdagи ko'rsatkichlar birinchi nazorat variantga nisbatan kuzatuvning 10-kuni poya va barg vazni 0,9 gramm, mintuganak soni 3,3 dona va o'rtacha vazni 4,0 gramm, kuzatuvning 20-kuni poya va barg vazni 1,0 gramm, minituganaklar soni 5,8 dona va o'rtacha vazni 4,0 grammga ortiq, kuzatuvning 30-kuni esa poya va barg vazni 2,3 gramm, minituganaklar soni 8,9 dona va o'rtacha vazni esa 4,8 grammga yuqori bo'lganligi, tajribadagi 10-nazorat variantga nisbatan taqqoslaganimizda kuzatuvning 10-kunida poya va barg vazni 0,9 gramm, minituganaklar soni 1,3 dona, o'rtacha vazni 1,2 gramm, kuzatuvning 20-kuni esa poya va barg vazni 1,1 gramm, minituganaklar soni 2,5 dona, ularni o'rtacha vazni esa 1,4 gramm, kuzatuvning 30-kuni o'rganilganda poya va barg vazni 1,2 gramm, minituganaklar soni 4,9 donaga va ularni o'rtacha vazni 2,8 grammga ortiq ekanligi aniqlandi.

4.3.1 – jadval.

Tajribada kartoshka navlarini turli ozuqa muhitlarda minituganaklarni biokimyoviy tarkibi, (2022 y.).

№	Navlar va variantlar	Bir idishdagи hosil, gramm	Kraxmal, %	Quruq modda, %	Vitamin C, mg %
Red Skarlet					
2	8-variant	89,3	17,5	24,1	12,9
3	17- variant	113,5	17,6	24,5	14,0
Arnova					
5	8-variant	85,6	16,0	23,7	12,0
6	17-variant	109,4	16,0	23,8	12,1
Pikasso					
8	8-variant	80,4	18,1	23,8	13,0
9	17-variant	115,0	18,2	23,9	13,6
Sante					
11	8-variant	90,1	18,9	24,1	13,6
12	17-variant	112,0	18,0	23,2	14,0

Demak, kartoshka navlarini uchki meristema hujayralaridan MS ozuqa muhitlarda yetishtirilgan nihollardan minituganaklar olish uchun nihollarni qayta ekishga mo'ljallangan MS ozuqa muhit tarkibiga gibberilin, Kinetin va IUK lar miqdorini o'zgartirib, muvofiqlashtirish hisobiga biotexnologik laboratoriyalarda kartoshka navlaridan yuqori miqdorda minituganaklar olish imkonini berdi.

Qishloq xo'jalik ekinlarini mahsulotni sifatini belgilashda mahsulotning tarkibidagi asosiy biokimyoiy tarkibi, oqsil, klekovina, kraxmal, vitaminlar, makro va mikroelementlar miqdori hisobga olinadi. Kartoshka navlari tuganaklarini kimyoviy tarkibida kraxmal, quruq modda, vitamin "C" miqdori yetishtirilgan minituganaklarda o'rganildi.

Tajribada o'rganilgan navlarda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishilgan variantlarda tuganaklarni kraxmal miqdori, quruq moddasi va vitaminlar ham aniqlandi. Bunda Red Skarlet navida kraxmal miqdori 8-variantda 17,5% ni, 17-variantda 17,6% ni tashkil etib, quruq modda miqdori esa 24,1-24,5% qayd etildi. Ushbu variantlarda askorbin kislotosi "C" vitamin 8-variantda 12,9 mg% va 17-variantda esa 14,0% kuzatildi.

Tajribadagi Arnova navida minituganak tarkibida quruq modda 8 variantda 23,7%, 17 variantda esa 23,8% bo'lib, vitamin C esa 12,0-12,1 mg% ni tashkil etdi. Pikasso navida quruq modda 23,8-23,9%, kraxmal esa 18,1-18,2% ni, vitamin C esa 13,0-13,6 mg% qayd etildi. Tajribadagi Sante navida quruq modda 24,1 va 23,2%, kraxmal miqdori esa 18,0-18,9% kuzatilib, vitamin C esa 13,6-14,0 mg% ni tashkil etdi.

O'rganilgan navlarda eng yuqori quruq modda miqdori Red Skarlet navida 17-variantda 24,5%, vitamin C miqdori ham eng yuqori ushbu navda 14,0% qayd etildi. Kraxmal miqdori saqlashi bo'yicha eng yuqori Sante navida 18,9% kuzatilib, tajriba variantlarida esa eng yuqori 17-variantdan olingen minituganaklarni qayd etildi.

Demak, kartoshka navlarini sun'iy ozuqa muhitlarda o'stirib, turli MS muvofiqlashtirilgan ozuqa muhitlarda yetishtirishda minituganaklarni tarkibidagi quruq modda, kraxmal navlarga xos miqdorlarda, vitamin C miqdori esa yirik vazndagi tuganaklarga nisbatan biroz yuqori saqlashi aniqlandi.

4.4-§. Navlarda serologik tahlil natijalari

Qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish va mahsulot yetishtirishda ularni sog'lomligi alohida ahamiyatga ega, jumladan kartoshka navlarini o'stirishda ham, ayniqsa kartoshka navlarini urug'lik uchun yetishtirish

yoki urug'lik uchun dastlabki material yaratishda o'simliklarni sog'lomligi tekshirib boriladi va fitosanitariya tadbirlari o'tkaziladi.

Bizlar tajribalarda o'rganilgan navlarning ozuqa muhitlar tarkibi bo'yicha variantlarda sun'iy ozuqa muhitdagi o'simliklarning har 10 donasining birinchi, ikkinchi va uchinchi yarusdagi barglar shirasini olib, predmet oynasiga qo'yib, ustiga viruslar zardobi tomizib, ularda 1-1,5 minut vaqtida quruq qoldiq bo'lsa, usha variantlarda viruslar borligiga qarab hisoblab chiqilgan.

Tajribada barcha variantlardagi idishlardan o'rtacha olinganda Red Skarlet navida 0,5-0,7%, Arnova navida 0,9-1,2%, Pikasso navida 0,7-0,9%, Sante navida 1,3-1,4% kuzatildi.

Odatda kartoshka navlari ochiq dalada o'stirilganda ko'z bilan chamalab, o'simliklarni tashqi morfologiyasini o'zgarishi ya'ni barglarni buralishi, barg plastinkasini tortilishi, barglarda dog'lanish, o'simlik tupining archa bo'lib qolishi, supurgisimon bo'lib qolishi va boshqa belgilarga qarab aniqlanadi.

4.4 – jadval.

Tajribada kartoshka navlarini turli ozuqa muhitlarda o'stirilganda sog'lomliligi, Serologik tahlil, %, (2020-2022 yy.).

No	Variantlar	Red skarlet	Arnova	Pikasso	Sante
1	1	0,5	1,2	0,6	1,3
2	2	0,6	1,2	0,8	1,4
3	3	0,5	1,0	0,8	1,5
4	4	0,5	0,8	0,7	1,2
5	5	0,6	1,3	0,9	1,3
6	6	0,0	1,4	0,7	1,4
7	7	0,0	1,0	0,8	1,5
8	8	0,0	1,2	0,9	1,4
9	9	0,5	1,2	1,0	1,4
10	10(nazorat)	0,6	1,2	0,9	1,2
11	11	0,7	1,1	1,1	1,3
12	12	0,6	1,0	1,0	1,4
13	13	0,7	0,9	1,2	1,5
14	14	0,5	0,9	0,9	1,6
15	15	0,0	1,2	1,2	1,4
16	16	0,0	1,2	1,0	1,5
17	17	0,0	1,3	0,9	1,4
18	18	0,7	1,0	1,0	1,5
	O'rtacha	0,38	1,12	0,91	1,4

Yashirin holda ya’ni serologik tahlilda yuqorida aytganimizdek, maxsus viruslar zardobi bilan o’simlik shirasi orqali tekshiriladi. Bundan tashqari immunoferment tahlillardan ham foydalanish mumkin.

Demak, kartoshka navlarini biotexnologik laboratoriyalarda sog‘lom urug‘bop minituganaklar yetishtirishda ularni dastlabki nihol olinganda, qayta qalamcha qilinganda, gruntga ekilganda, shonalash va gullash davrida hamda hosil yig‘ishtirish oldidan serologik tahlillar asosida fitosanitariya tadbirlar o’tkazilib, yuqori miqdorda viruslar saqlagan o’simlik to‘plari brak qilinib sog‘lomlari ko‘paytiriladi. Bizlarni tajribalarni meristema hujayralari asosida yetishtirilgan nihollarda minituganaklar olish uchun qayta to‘yintirilgan ozuqa muhitlarga ekilganda viruslar bilan kasallanishi juda kam, supersuperelita urug‘lik talablariga javob beradigan darajada sog‘lomligi aniqlandi.

4.5-§. Navlarda minituganaklar chiqimi

Kartoshkachilikda urug‘lik yetishtirishning asosiy jihatlaridan biri yuqori miqdorda sifatlari urug‘lik tuganaklar soniga erishishdir. Bunda biotexnologik laboratoriyalarda tuganaklarni sonini oshirishning turli usullari mavjud. Ulardan birida ozuqa muhitlar tarkibini to‘g‘ri tanlashdir.

Bizlar, tajribalarimizda kartoshka navlarini turli MS ozuqa muhitini turli modifikasiyalarida minituganaklar chiqimi o‘rganildi. Bunda bir fiziologik idish yuqori yuzasi 10 sm^2 ostki yuzasi $8,8 \text{ sm}^2$ bo‘lib, bir idishda 10 donadan nihol qalamchasi ekilgan. Laboratoriyyada uch qavat stelyajda joylashtirildi.

Tajribalarda navlar bo‘yicha minituganaklar chiqimi variantlarda sezilarli farq qildi. Navlar va variantlarda eng yuqori minituganaklar chiqimi Arnova va Sante navlarida kuzatilib, 8-variantda (saxaroza-90 mg/l da, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1, mg/l va IUK-2,0 mg/l) Arnova navida bir idishda 13,5 dona, bir metr kvadratda 148,5 dona, uch qavatda 445,5 dona olish (ikki oyida), bir yilda 2673 dona olish imkonini beradi. Ushbu nav nihollari 17 variant (saxaroza-90 mg/l, giberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l va IUK-2,0 mg/l) da bir idishda 13,9 dona, bir metr kvadratda 152,9 dona olingan, uch qavatda 458,7 dona (ikki oyda), bir yilda esa 2752,2 dona olish qayd etildi. Sante navlarida 8-variantda (saxaroza-60 mg/l da, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,5 mg/l va IUK-2,0 mg/l) bir idishda 12,7 dona, bir metr

4.5-jadval
Tajribada kartoshka navlarini turli ozuqa muhitlarda minituganaklarni mahsuldorligi, (2020-2022
yy.).

№	Variantlar	Red skarlet			Arnova			Tugananak soni, dona			Pikasso			Sante		
		Bir idishda	Bir m ² da	Bir idishda	Bir m ² da	Bir idishda	Bir m ² da	Bir idishda	Bir m ² da	Bir idishda	Bir m ² da	Bir idishda	Bir m ² da	Bir idishda	Bir m ² da	
1	1	9,6	105,6	12,1	133,1	8,6	94,6	11,9	130,9							
2	2	7,1	78,1	8,4	92,4	6,7	73,7	8,5	93,5							
3	3	7,4	81,4	9,0	99,0	7,6	83,6	8,6	94,6							
4	4	8,0	88,0	9,4	103,4	8,0	88,0	9,0	99,0							
5	5	8,6	94,6	10,1	100,1	8,9	97,9	9,8	107,8							
6	6	9,2	101,2	10,9	119,9	9,5	104,5	10,2	112,2							
7	7	10,1	111,1	12,4	136,4	9,8	107,8	11,5	126,5							
8	8	12,4	136,4	13,5	148,5	10,6	116,6	12,7	139,7							
9	9	11,0	122,1	12,0	132,0	11,4	125,4	11,5	126,5							
10	10 (nazorat)	8,0	88,0	9,0	99,0	7,6	83,6	9,0	99,0							
11	11	8,1	89,1	9,4	103,4	6,9	75,9	8,1	89,1							
12	12	8,2	90,2	10,2	112,2	7,1	78,1	9,4	103,4							
13	13	8,9	97,9	10,7	117,7	7,3	80,3	10,6	116,6							
14	14	9,8	107,8	11,3	124,3	7,8	85,8	11,7	128,7							
15	15	10,8	118,8	12,4	136,4	8,9	97,9	12,0	132,0							
16	16	11,6	127,6	12,7	139,7	9,6	105,6	13,4	147,4							
17	17	12,9	141,9	13,9	152,9	10,8	118,8	14,0	154,0							
18	18	13,5	148,5	13,0	143,0	11,8	129,8	13,0	143,0							

kvadratda 139,7 dona, uch qavatda 417,3 dona olish (ikki oyida), bir yilda 2503,8 dona olish imkonini beradi.

Ushbu nav nihollari 17 variant (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l va IUK-2,0 mg/l) da bir idishda 14,0 dona, bir metr kvadratda 154,0 dona olingan, uch qavatda 462,0 dona (ikki oyda), bir yilda esa 2772 dona olish qayd etildi.

Tuganaklarni chiqimi tajribadagi Red Skarlet va Pikasso navlarida ham ushbu qonuniyat kuzatildi. Olingen minituganaklar asosiy qismi 70-75% 5-10 grammdagi minituganaklarga to‘g‘ri keladi va ularni kelgusida 5 grammgacha, 5-10 gramm va 10 grammdan yuqori fraksiyalarga ajratilib, ularni ochiq dalaga yoki fitotronga turli ekish sxemalari va chuqurliklarida ekib o‘rganishga qoldirildi.

Izoh: bir idishda 9,6 dona, $8,8 \text{ sm}^2$ oziqlanish maydoni, 1 m^2 maydonga 11 dona idish joylashadi, va $9,6 \times 11 = 105,6$ dona, ularni uch qavat stelyajda joylashganda $105,6 \times 3 = 316,8$ dona. Bu ikki oyda 316,8 dona, ya‘ni bir yilda esa 1900,8 donani tashkil etadi.

Demak, urug‘lik minituganaklarni biotexnologik laboratoriyalarda yuqori sifatli va sog‘lom holda yuqori ko‘payish koefissiyentda yetishtirish uchun MS ozuqa muhitini tarkibini to‘g‘ri muvofiqlashtirish hisobiga yetishtirish mumkin.

4.6-§. Birinchi va ikkinchi tuganak reproduksiyalarda hosildorlik

Qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligi ularning urug‘lik sifatlariga, urug‘lik yetishtirishda agrobiotexnologik tadbirlarga bevosita bog‘liqdir. Urug‘likning bir necha reproduksiyalarda yuqori hosildorlikni ta‘minlashi urug‘likni yetishtirish usuliga, dastlabki urug‘lik material olish usuliga va urug‘lik yetishtirish jarayonida qo‘llaniladigan agrotadbirlar majmuiga ham bog‘liqdir.

Bizlarning tajribalarimizda maxsus fiziologik plastmassa idishlarda yetishtirilgan minituganaklarni dastlab fitotronda maxsus yuqori agrofonda ekib, navlarni hosildorligi o‘rganildi.

Fitotronda minituganaklar $70 \times 20 \text{ sm}$ sxemada ekilganda o‘simglik bo‘yi 60,0-70,0 sm, poya soni 1,9-2,1 dona, bir tupdag‘i tuganaklar soni 8,0-9,1 dona, ularni bir tupdag‘i o‘rtacha vazni 55,0-64,5 grammni tashkil etib, bir tupdag‘i o‘rtacha hoslil 451,0-586,0 gramm bo‘lsa, ularni gektariga matematik tup soniga ko‘paytirish asosida hisoblasak, 32,2-41,8 tonna gektariga tashkil etib, ularni 100% urug‘lik sifatiga javob berishi kuzatilib, faqat mekanik va biologik ifloslanish jarayoniga 0,5-2,0% ni tashkil etadi.

Tajribada navlar kesimida eng yuqori o'simlik bo'yи Sante navida 70, sm, eng yuqori poya soni Sante va Red Skarlet navlari 2,1 dona, eng yuqori bir tupdag'i tiganaklar soni 9,1 dona Red Skarlet navida, tiganaklarni o'rtacha vazni esa eng yuqori Red Skarlet navida 64,5 grammni tashkil etgan. Bir tupdag'i hosil 586,0 gramm va gektaridan eng yuqori hosil 41,8 tonna Red Skarlet navida qayd etildi.

Fitotronda yetishtirilgan navlarni tiganaklarni keyingi avlodlarda ikki hosilga yaroqliligini o'rganish maqsadida tiganaklarni yozgi muddatda o'stiruvchi stimulyatorlar va fungisidlar aralashmasida ishlab o'sishi, rivojlanishi va hosildorigi o'rganildi. Navlarda o'simlik bo'yи 68,3-74,4 sm, poya soni 4,0-4,5 dona, bir tupdag'i tiganaklar soni 6,0-7,1 dona, bir tupdag'i o'rtacha tiganaklar vazni 120,0-130,8 gramm, bir tupdag'i hosil 720,0-889,4 gramm tashkil etib, urug'lik chiqimi yuqori 98-99% ni qayd etdi.

4.6- jadval.

Minituganaklarni birinchi va ikkinchi tiganak reproduksiyalarda hosildorligi, (2020-2022 yy.).

№	Navlar	Mahsuldarlik va hosildorlik							
		O' simlik bo'yи, sm	Poya soni, dona	Bir tupdag'i tiganaklar soni, dona	Bir tupdag'i tiganaklarni o'rtacha vazni, gramm	Bir tup hosili, gramm	Hosildorlik, t/ga	Urug'lik hosili, %	Urug'lik hosili t/ga
Fitotronda minituganaklar ekilganda, ekish sxemasi 70x20									
1	Red skarlet	65,1	2,1	9,1	64,5	586,0	41,8	99,0	41,4
2	Arnova	60,0	2,0	8,0	56,7	453,6	32,3	98,0	31,6
3	Pikasso	62,5	1,9	8,2	55,0	451,0	32,2	97,0	31,2
4	Sante	70,0	2,1	8,9	61,8	550,0	39,2	98,0	38,4
Fitotronda yetishtirilgan urug'lik tiganaklarni o'stiruvchi stimulyatorlar va fungisidlar aralashmasida ishlab qayta ekish, ekish sxemasi 70x20									
1	Red skarlet	71,4	4,5	7,1	120,8	857,6	61,2	98,0	59,9
2	Arnova	70,2	4,2	6,7	115,7	775,2	55,3	97,0	53,6
3	Pikasso	68,3	4,0	6,0	120,0	720,0	51,4	98,0	50,3
4	Sante	74,5	4,4	6,8	130,8	889,4	63,5	98,0	62,2

Izoh: Minituganaklar birinchi reproduksiyasi fitotronda ekilgan va olingan hosil ochiq dalaga yangi kovlangan holda o'stiruvchi stimulyatorlar va fungisidlar aralashmasida ishlab qayta shu yilning o'zida ekilgan.

Yozda navlarni yangi kovlangan tuganaklar bilan ekilganda eng yuqori ko'rsatkichlar, o'simlik bo'yisi 74,5 sm Sante navida, poya soni (4,5 dona) bo'yicha Red Skarlet navida, bir tupdag'i tuganaklar soni 7,1 dona Red skarlet navi, bir tupdag'i o'rtacha tuganaklar vazni bo'yicha Sante (130,8 gramm) navida, bir tupdag'i hosil bo'yicha Sante navida 889,4 gramm, hosildorligi (63,5 t/ga) va urug'lik tuganaklar chiqimi (98% va 62,2 t/ga) bo'yicha ham Sante navida aniqlandi.

Fitotronda yetishtirilgan urug'bop tuganaklarni shakli, yirikligi, rangi, ko'zchalarini joylashishi bo'yicha yuqori fenotipik bir xillilikka ega.

4.6.1-jadval.

Turli ozuqa muhitlarda yetishtirilgan minituganaklarni birinchi va ikkinchi tuganak reproduksiyalarda hosildorligi (Samarqand, 2019-2022 yy.).

№	Navlar	Yillar bo'yicha hosildorlik , t/ga			
		2020	2021	2022	O'rtacha
Fitotronda minituganaklar ekilganda, ekish sxemasi 70x20					
1	Red skarlet	41,4	42,3	41,7	41,8
2	Arnova	33,5	32,0	31,4	32,3
3	Pikasso	32,0	31,9	32,7	32,2
4	Sante	40,1	38,7	38,8	39,2
	NSR, 05	3,60	3,75	3,83	
	R % =	3,07	3,24	3,31	
Fitotronda yetishtirilgan urug'lik tuganaklarni o'stiruvchi stimulyatorlar va fungisidlar aralashmasida ishlab qayta ekish, ekish sxemasi 70x20					
1	Red skarlet	60,5	62,1	61,0	61,2
2	Arnova	54,8	56,0	55,1	55,3
3	Pikasso	51,2	51,4	51,6	51,4
4	Sante	62,3	64,7	63,5	63,5
	NSR, 05	5,85	5,85	5,59	
	R % =	3,20	3,13	3,02	

Izoh: Minituganaklar birinchi reproduksiyasi fitotronda ekilgan va olingan hosil ochiq dalaga yangi kovlangan holda o'stiruvchi stimulyatorlar va fungisidlar aralashmasida ishlab qayta shu yilning o'zida ekilgan.

Faqat, botanik urug'dan nishlatib, o'simtalardan yetishtirilgan hujayralar asosida olingen minituganaklar, ular ekilganda tuganaklarni fenotipik bir xilliliqi farqlanishi mumkin. Lekin bizlar o'rgangan navlarni tuganak va botanik urug'laridan meristema hujayralarini ajratib olib, yetishtirilgan nihollarda o'rganilgan va fenotipik bir xillilik yuqori bo'lganligi sababli ularni ham tuganak ham botanik urug'larini nishlatilib, dastlabki urug'lik yetishtirish uchun donor material sifatida foydalanishni ko'rsatib o'tganmiz.

Tajribalarda navlarni yillar bo'yicha hosildorligi 2020 yilda fitotronda ekilgan 32,0-41,4 t/ga, 2021 yilda 31,9-42,3 t/ga va 2022 yilda 31,4-41,7 t/ga qayd etilib, o'rtacha 32,2-41,8 t/ga ni tashkil etdi. Yozgi muddatda ham hosildorligi 2020 yilda 51,2-62,3 t/ga, 2021 yilda 51,4-64,7 t/ga va 2022 yilda esa 51,6-63,5 t/ga kuzatilib, o'rtacha 51,4-63,5 t/ga ni tashkil etgan.

Demak, biotexnologik laboratoriyalarda MS muvofiqlashtirilgan ozuqa muhitlarda yetishtirilgan minituganaklarni dastlab fitotronda va ulardan olingen tuganaklarni yozgi muddatlarda tuganaklarni kelgusi yilingacha urug'lik uchun saqlamasdan yangi kovlangan tuganaklarni o'stiruvchi stimulyatorlar va fungisidlar aralashmasida ishlab ekib, yuqori sisftli urug'likni tezkor ko'paytirish asosida foydalanish maqsadga muvosiq.

4.7-§. Minituganaklarni mahsuldarligi

Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini mahsuldarligini o'rganganda ularda bir tupdag'i hosil va uning elementlari, kartoshkada bir tup hosili, tuganaklar soni va o'rtacha vazni e'tiborga olinadi. Bizlar tajribada to'rtta nav Red Skarlet, Arnova, Pikasso, Sante navlarining minituganaklari vaznlari va ularni ekish chuqurligi bo'yicha o'rgandik.

Tajribalarda Red Skarlet, Arnova, Pikasso, Sante navlarining minituganaklari olindi va 20-22-fevral kunlari fitotronga variantlar bo'yicha ekildi.

Red Skarlet navining 5 grammgacha bo'lgan minitugananak fraksiyalarida o'simlik bo'yi hosil yig'ish oldidan 44,6-45,3 sm gacha, poya soni 1,6-1,8 dona, barg soni esa 22,6 dona bo'lib, barg sathiga ega. Ushbu fraksiyada ekilgan variantlarda eng yuqori o'simlik bo'yi minituganaklarni 5-6 sm chuqurlikda ekilgan 45,3 sm bo'lib, poya soni 1,8 dona va barg soni esa 23,9 donani tashkil etdi. Tuganaklarni vazni 5-10 gramm fraksiyalarda o'simlik bo'yi eng yuqori 49,3 sm,

poya soni 2,3 dona bo'lib, barg soni esa tuganaklarni 7-8 sm chuqurlikda ekilganda 26,7 dona qayd etildi. Tuganaklarni vazni 10 grammidan ortiqlari turli ekish chuqurliklarida ekilganda eng yuqori o'simlik bo'yi 54,8 sm, poya soni 3,0 dona va barg soni ham yuqori 27,3 dona minituganaklarni 7-8 sm chuqurlikda ekilganda olindi. Minituganaklarni vazni ortishi bilan bir xil ekish chuqurliklarida o'simlik bo'yi baland bo'lishi, poya sonini ortishi va barg sonini ham ortishi kuzatildi. Bunda 5 grammgacha vazndagi minituganaklar ekilgan 5-6 sm chuqurlikda o'simlik bo'yi 45,3 sm bo'lsa, ushbu chuqurlikda 5-10 grammli vazndagi minituganaklar ekilganda 49,3 sm va 10 grammidan yuqori vazndagi tuganaklar ushbu ekish chuqurliklarida 54,8 sm qayd etildi. Xuddi shunday poya soni va barg soni ham oshib bordi. O'simliklarda poya soni tuganaklardagi ko'zchalar soniga ko'proq bog'liq, faqat ekish chuqurligini ortishi bilan poya sonini kamayib borishi 7-8 sm va 9-10 sm chuqurliklarda sezilarli farq bo'lди.

Tajribadagi Arnova navida esa o'simlik bo'yi minituganak vazni 5 grammgacha bo'lganda eng yuqori 47,6 sm, poya soni 1,6 dona va barg soni 23,0 dona ekish chuqurligi 5-6 sm da, minituganaklarni vazni 5-10 grammilarda o'simlik bo'yi 48,9 sm, poya soni 2,1 dona va barg soni 24,7 dona ekish chuqurligi 7-8 sm bo'lganda kuzatildi. Minituganaklarni vazni 10 grammidan ortiq bo'lganda ham eng yuqori ko'rsatkichlar ekish chuqurligi 7-8 sm bo'lganda qayd etildi. Navlar kesimida olinganda eng yuqori o'simliklarning bo'yi (45,3; 49,3; va 54,8 sm), poya soni (1,8; 2,3; va 3,0 dona), barg soni bo'yicha (23,9; 26,1; va 27,3 dona) ko'rsatkichlar Red Skarlet navida qayd etildi.

Demak, in-vitro da yetishtirilgan turli vazndagi minituganaklarni har xil ekish chuqurliklarida o'simlik bo'yi (45,3-47,6), poya soni (1,8-1,6) va barg soni (23,9-23,0) 5 grammgacha bo'lgan vaznda ularni 5-6 sm chuqurlikda ekilganda, 5-10 gramm minituganaklar Red Skarlet navida esa 5-6 sm chuqurlikda o'simlik bo'yi (49,3), poya soni (2,3), barg soni (26,1) yuqori bo'lib, Arnova navida esa 5-10 grammli minituganaklar 7-8 sm chuqurlikda ekilganda o'simlik bo'yi (49,7 sm), poya soni (2,1) va barg soni (24,7) yuqori bo'lgan. Minituganaklarni 10 grammli va undan yuqori bo'lganlari ikkala navda ham ekish chuqurliklari 7-8 sm bo'lganda o'simlik bo'yi 54,5-54,8 sm, poya soni 3,0-2,6 dona va barg soni esa 27,3-26,4 donani tashkil etdi.

4.7 – jadval.

Minituganaklarni mahsuldarligi, (Samarqand, 2020-2022 yy.).

№	Tuganak vazni	Ekish chuqurligi	10.05. Bir tup o'simlikning		
			Bir tupdag'i tugaraklar soni, dona	Bir tugarakni o'rtacha vazni, g	Tugaraklar hosili, g
Red Skarlet navi					
1	5 gramm gacha	3-4	4,7	46,4	216,2
2		5-6	5,0	49,3	246,5
3		7-8	4,8	47,6	228,5
4		9-10	4,7	46,5	218,5
5	5-10 gramm	3-4	4,8	41,8	200,6
6		5-6	5,5	47,3	260,1
7		7-8	5,3	45,4	240,0
8		9-10	5,4	44,9	242,5
9	10 grammidan yuqori	3-4	5,2	44,2	230,1
10		5-6	5,6	45,6	255,4
11		7-8	5,8	46,6	270,6
12		9-10	5,6	45,8	256,3
Arnova					
1	5 gramm gacha	3-4	4,3	49,1	211,2
2		5-6	4,7	58,3	272,8
3		7-8	4,6	55,0	253,0
4		9-10	4,5	54,9	247,2
5	5-10 gramm	3-4	4,7	50,1	235,5
6		5-6	5,6	54,4	304,8
7		7-8	5,7	53,5	305,3
8		9-10	5,6	53,7	300,7
9	10 grammidan yuqori	3-4	4,9	51,9	254,3
10		5-6	5,5	54,0	297,1
11		7-8	5,8	56,4	327,3
12		9-10	5,7	54,5	311,0

Tajribada Red Skarlet navi minituganaklari vazni 5 grammgacha bo'lgan variantlarda eng yuqori bir tupdag'i tugaraklar soni ekish chuqurligi 5-6 sm bo'lganda 5,0 dona, ularni o'rtacha vazni 49,3 gramm va bir tupdag'i hosil 246,5 gramm bo'lgan bo'lsa, minituganaklar vazni 5-10 grammililar ekilgan variantlarning 5-6 sm chuqurliklarda tugaraklar soni 5,5 dona, o'rtacha vazni 47,3 gramm va bir tupdag'i hosili 260,1 gramm kuzatilgan. Minituganaklar vazni 10 gramm va undan ortiq bo'lganda bir tupdag'i tugaraklar soni eng yuqori ekish chuqurligi 7-8

sm bo‘lganda 5,8 dona, o‘rtacha vazni 46,6 gramm hamda bir tupdag'i hosil 270,6 gramm qayd etildi.

Tajribadagi Arnova navida 5 grammgacha bo‘lgan minituganaklar ekilgan ekish chuqurliklarida bir tupdag'i tugaraklar soni 4,7 dona, bir tugarakni o‘rtacha vazni 5,8 gramm va bir tupdag'i hosil 272,8 grammni tashkil etgan bo‘lsa, 5-10 grammlı vazndagi ekish tugaraklarni ekish chuqurliklarida eng yuqori holat bir tupdag'i tugarakni soni 7-8 sm ekish chuqurliklarida 5,7 dona, o‘rtacha vazni 53,5 gramm va bir tupdag'i hosil 305,3 grammni tashkil etdi. Arnova navining 10 gramm va undan ortiq vaznidagi tugaraklar ekilgan ekish chuqurliklarida bir tupdag'i tugaraklar soni 5,8 dona, bir tugarakni o‘rtacha vazni 56,4 gramm va bir tupdag'i hosil 327,3 grammni tashkil etdi.

Tajribada minituganaklarni vazni bo‘yicha o‘rganganimizda vaznining ortishi bilan bir xil ekish chuqurliklarida bir tupdag'i tugarak soni, o‘rtacha vazni va bir tupdag'i hosili ortib bordi. Masalan, Red Skarlet navida ekish chuqurligi 5-6 sm bo‘lganda vazni 5 grammgacha bo‘lganda bir tupdag'i tugarak soni 5,0 dona, 5-10 grammlı vazndagi minituganaklarni 5-6 sm ekish chuqurliklarida tugaraklar soni 5,5 dona, ushbu ekish chuqurligida 10 va undan ortiq vazndagi tugaraklar ekilganda bir tupdag'i tugaraklar soni 5,8 dona qayd etildi. Xuddi shunday qonuniyat bir tugarakni o‘rtacha vazni va bir tupdag'i tugaraklar hosili bo‘yicha o‘zgarish kuzatildi.

Demak, xulosa qilib aytganda, turli vazndagi minituganaklarni turli ekish chuqurliklarida mahsuldarlik ko‘rsatkichlari sezilarli farq qilib, 5 grammgacha bo‘lgan vazndagi minituganaklarni 5-6 sm, 5-10 grammlı minituganaklarni 5-6 va 10 va undan ortiq vazndagi minituganaklarni 7-8 sm ekish chuqurliklarida maxsus to‘liq avtomatlashtirilgan va yuqori agrofon ta‘minlangan fitotron tuproqlarida ekish maqsadga muvofiq.

4.8-§. In-vitro da yetishtirilgan turli vazndagi minituganaklarni har xil ekish chuqurliklarida tugaraklar chiqimi.

Kartoshka navlarini in-vitro da yetishtirishda asosan ishlab chiqarish sharoitida urug‘lik uchun yetarli miqdorda urug‘lik yetishmaganda, qisqa muddatda yuqori ko‘payish koeffisiyentida xususiy urug‘lik bazasini shakllantirish uchun ekilganda navlarni to‘g‘ri tanlash, donor sifatida ishlab chiqarish sharoitida unga bo‘lgan talabni yuqoriligi, tovar ishlab chiqaruvchilar uchun arzon mahalliy urug‘liklar yetishtirishda agrobiotadbirlarni sisatlari o‘tkazish amaliy ahamiyatga ega.

Kartoshka navlarini biotexnologik laboratoriyalarda tezkor ko'paytirishda minituganaklarni sonini imkon darajada yuqori olish ahamiyatga ega. Bizlar tajribada yetishtirilgan minituganaklarni mahalliy tuproq iqlim sharoitlarni e'tiborga olib, minituganaklarni dastlab ko'paytirishga qulay joy sifatida fitotron tuproqlari tanlangan.

4.8 – jadval.

In-vitro da yetishtirilgan turli vazndagi minituganaklarni har xil ekish chuqurliklarida tuganaklar chiqimi, (2020-2022 yy.).

№	Tuganak vazni	Ekish chuqurligi	Tuganaklari soni, dona			Kelgusi yili (70x20 da) necha gektarni urug'lilik bilan ta'minlaydi
			Bir tupda, soni	1 m ² da dona	Bir gektarda, ming dona	
Red Skarlet navi						
1.	5 gramm gacha	3-4	4,7	23,5	390,1	5,46
2.		5-6	5,0	25,0	415,0	5,81
3.		7-8	4,8	24,0	398,4	5,57
4.		9-10	4,7	23,5	390,1	5,46
5.	5-10 gramm	3-4	4,8	24,0	398,4	5,57
6.		5-6	5,5	27,5	456,5	6,39
7.		7-8	5,3	26,5	439,9	6,16
8.		9-10	5,4	27,0	448,2	6,27
9.	10 grammidan yuqori	3-4	5,2	26,0	431,6	6,04
10.		5-6	5,6	28,0	448,0	6,27
11.		7-8	5,8	29,0	481,4	6,74
12.		9-10	5,6	28,0	464,8	6,50
Aranova						
1.	5 gramm gacha	3-4	4,3	51,5	356,9	4,99
2.		5-6	4,7	23,5	390,1	5,46
3.		7-8	4,6	23,0	381,8	5,34
4.		9-10	4,5	22,5	373,5	5,23
5.	5-10 gramm	3-4	4,7	23,5	390,1	5,46
6.		5-6	5,6	28,0	464,8	6,50
7.		7-8	5,7	28,5	473,1	6,62
8.		9-10	5,6	28,0	464,8	6,50
9.	10 grammidan yuqori	3-4	4,9	24,5	406,7	5,69
10.		5-6	5,5	27,5	456,5	6,39
11.		7-8	5,8	29,2	485,5	6,80
12.		9-10	5,7	28,5	473,1	6,62

Tajribalarimizda gektaridagi tup soni 83,3 ming dona, bir pogonometrda 5 dona to'g'ri keladi (ekish 20.02. va yig'ishtirish muddati 10.05.), maydon birligida tuganaklarni yuqori miqdorda olish va kelgusi yili qancha maydonni urug'lik bilan ta'minlash imkoniyati aniqlandi.

Bunda Red Skarlet navida 5 grammgacha bo'lgan minituganaklar ekilgan variantlarda bir tupda eng yuqori 5-6 sm chuqurlikda ekilganda 5,0 dona va bir metr kvadratda 25 dona bo'lib, bir gektarda 415 ming dona qayd etilib, olingan tuganaklar kelgusi yili 5,81 gektar maydonni sifatli urug'lik bilan ta'minlash imkonini beradi.

Tajribaning 5-10 grammli minituganaklar ekilgan variantlarda ekish chuqurligi 5-6 m bo'lganda bir tupda 5,8 dona, bir metr kvadratda 27,5 dona va gektaridan 456,5 ming dona olingan, kelgusi yili 6,39 gektar maydonni urug'lik bilan ta'minlash mumkin.

Ushbu navda minituganaklarni 10 gramm va undan ortiq vazndagilari ekilganda ekish chuqurligi 7-8 sm bo'lganda yuqori ko'rsatkichlar, ya'ni bir tupda 5,8 dona tuganak, bir metr kvadratda 29 donada va gektarida 481,4 ming dona olingan bo'lib, kelgusi yili 6,74 gektar maydonni urug'lik bilan ta'minladi.

Tajribalarimizda Arnova navida minituganaklarni turli ekish chuqurliklarida 5 grammgacha bo'lgan vazndagi tuganaklar ekilgan 5-6 sm chuqurlikda bir tupda 4,7 dona, bir metr kvadratda 23,5 dona va gektarida 390,1 ming dona olinib, 5-10 grammli minituganaklar ekilgan variantlarda eng yuqori 7-8 sm chuqurlikda qayd etilib, tuganaklar soni bir tupda 5,7 dona, bir metr kvadratda 28,5 dona va gektarida esa 473,1 ming dona tashkil etib, kelgusi yili 6,62 gektar maydonni urug'lik bilan ta'minlaydi. Ushbu navning 10 gramm va undan ortiq vazndagi minituganaklari ekilgan variantlarda 7,8 dona tuganak bir tupda, bir metr kvadratda 29,2 dona va gektaridan 485,5 ming dona olinib, kelgusi yili 6,8 gektar maydonni urug'lik bilan ta'minlash imkonini beradi.

Tajribada navlar kesimida eng yuqori tuganaklar chiqimi Arnova navida minituganaklar vazni 5-10 va 10 grammidan yuqori vazndagi tuganaklar bir metr kvadratda 28,5-29,2 dona, gektaridan esa 473,1 ming va 485,5 ming dona olingan bo'lib, chuqurliklari bo'yicha esa 7-8 sm da qayd etildi.

Demak, xulosa qilib aytganda, in-vitro da yetishtirilgan turli vazndagi minituganaklarni ekish chuqurliklarini to'g'ri belgilash tezkor ko'paytirilayotgan minituganaklar ko'payish koefisisiyentini oshirishga

xizmat qildi. Red Skarlet navi minituganaklarni 5 grammgacha bo‘lgan variantlarda tuganaklarni 5-6 sm, 5-10 gramm vazndagilarini 6-7 sm, 10 gramm va undan ortiq vazndagi minituganaklarni 7-8 sm, Arnova navida esa mayda 5 grammgacha bo‘lgan minituganaklarni 5-6 sm, 5-10 gramm va undan yirik vazndagilarini 7-8 sm chuqurlikda ekish maydon birligida har bir metr kvadratdan 25-30 dona, gektaridan 456,5-485,5 ming dona olish va kelgusi yili 6,7-6,8 hektar maydonni urug‘lik bilan ta’minlash mumkin bo‘ladi.

4.9-§. Minituganaklar hosildorligi va yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi.

Kartoshkachilik qishloq xo‘jaligining salmoqli tarmog‘i bo‘lib, unda ko‘plab muammolar mavjud bo‘lib, asosiy ishlar, eng avvalo, urug‘lik materiali sifatini, uning yuqori hosildorligini va ishlab chiqarish texnikasi samaradorligini oshirishga qaratilgan. Aholining kartoshka mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini yetarli darajada qondirish va mahalliy urug‘lik materiali sifatini yaxshilash, shu jumladan turli patogenlardan tozalangan va dastlab sof kultura bo‘lgan virussiz urug‘lik materialini sanoatda qo‘llash usullari asosida ishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalar ishlab chiqarish jarayonlarining asosiy bosqichlarida samaradorligini oshiradigan yangi texnologik texnika va usullarini izlash bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Kartoshka navlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini xisoblashda:

- bir gektarga qilingan jami xarajatlar summasi (ming so‘m);
- bir sentner kartoshka tannarxi (ming so‘m);
- bir sentner kartoshkani sotish baxosi (so‘m);
- bir gektardan olingan xosil qiymati (ming so‘m);
- bir gektardan olingan sof daromad (ming so‘m);
- rentabellik darajasi (%) va boshqa ko‘rsatkichlar e’tibor olindi.

In-vitro da yetishtirilgan minituganaklarni fitotron sharoitida sog‘lom va sifatli qilib ko‘paytirish asosida ularni 60 sm qator oralig‘ida 5-10 grammli minituganaklarni 9x9 sm sxemada 7-8 sm, 10x10 sm sxemada esa 5-6 sm chuqurliklarda ekish va yetishtirilgan minituganaklarni tovar hosil yetishtirishda mahalliy sharoitlarda kartoshka navlarini tuganak o‘sintalaridan foydalanish bilan birga ularni botanik urug‘larini nishlatib, urug‘ o‘sintalaridan ham

foydalanib, tezkor ko'paytirish usuli sifatida 3-4 reproduksiyagacha foydalanish maqsadga muvofiq.

Oziq-ovqat balansida kartoshkani asosiy kundalik iste'moldagi mahsulotlardan biri ekanligini e'tiborga olsak, mahalliy sharoitda yuqori sifatli urug'lik yetishtirishda dastlabki materiallarni olish usuliga, in-vitro da ularni sog'lom hujayralarini ajratish, ko'paytirish jarayonlarini takomillashtirish zarurati mavjud. Mahalliy sharoitda kartoshka navlарини uchki meristema hujayralaridan yetishtirishda, tuganak o'simtasi bilan ko'paytirish bilan birga navlarni botanik urug'idan nishlatib, o'simtlarni sog'lom hujayralari orqali jadal ko'paytirish dolzarb hisoblanadi.

Tajribada minituganaklar yetishtirishda probirka ko'chatlarini fitotron yerida turli ekish sxemalarida ekilganda ularni bir metr kvadrat maydonda olinadigan minituganaklarni gektariga ko'paytirib, iqtisodiy samaradorligi aniqlandi. Bunda metr kvadrat maydonga qilingan jami xarajatlar, olingen minituganaklar soni, ularni tan narxi va sotish bahosi, olingen foya hamda rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblab chiqildi.

Yetishtirilgan minituganaklarni tannarxi 0,4-1,0 ming so'm atrofida bo'lib, sotish bahosi esa bir tukanakniki 2 ming so'm qayd qilindi. Ko'chatlarni ekish sxemasi bo'yicha eng ko'p olingen minituganaklar soni Arnova navida 54 dona tukanak o'simtasidan olingen ko'chatlarning 10x10 sm sxemada, botanik urug'ni nishlatib, o'simtasidan olingen ko'chatlarning ushbu ekish sxemasida 60 dona olingen bo'lsa, Pikasso navida esa ushbu variantlarda 50-58 dona qayd etildi.

Eng ko'p qilingan xarajatlar ko'chatlarni 5x5 sm sxemada ekilganda 32-36 ming so'm /m² Arnova navida, Pikasso navida esa 30-36 ming so'm/m² ni takshil etdi.

Tajribada eng ko'p maydon birligida sotilgan mahsulot qiymati ko'chatlarni 10x10 sm sxemada Arnova navida 108-120 ming so'm/m², Pikasso navida esa 100-116 ming so'm/m² bo'lib, bir metr kvadratda olingen foya Arnova navida 86400-96000 so'm yoki rentabellik 400% ni, Pikasso navida 75000-92800 so'm/m² yoki 300-400% rentabellik qayd qilindi.

4.9 – jadval.

Tajribada iqtisodiy samaradorlik, (2021 y.).

Nº	Variantlar	Jami qilingan xarajatlar	1m ² olingen urug' bop tunganaklar soni dona	Bir tunganakni o'rtacha tan narxi, ming so' m,	Bir tunganakni sotish qiymati, ming so' m	Jami foyda so' m	Sof foyda so' m	Rentabilitik %
Arnova, Tuganak o'simtasidan olingen hujayra nihollari								
1	5x5	36000	36	0,9	2,0	72000	36000	100%
2	6x6	32000	40	0,8	2,0	80000	48000	150%
3	7x7	31500	45	0,7	2,0	90000	58500	185%
4	8x8	30000	50	0,6	2,0	100000	70000	233%
5	9x9	26000	52	0,5	2,0	104000	78000	300%
6	10x10	21600	54	0,04	2,0	108000	86400	400%
Urug'dan nishlatib o'simtalardan olingen hujayra nihollari								
1	5x5	32000	40	0,8	2,0	80000	48000	150%
2	6x6	30800	44	0,7	2,0	88000	57200	185%
3	7x7	30000	50	0,6	2,0	100000	70000	233%
4	8x8	26400	55	0,48	2,0	110000	83600	316%
5	9x9	26100	58	0,45	2,0	116000	89900	344%
6	10x10	24000	60	0,4	2,0	120000	96000	400%
Pikasso navi, Tuganak o'simtasidan olingen hujayra nihollari								
1	5x5	30000	30	1,0	2,0	60000	30000	100%
2	6x6	30600	34	0,9	2,0	68000	37400	122%
3	7x7	28800	36	0,8	2,0	72000	43200	150%
4	8x8	28000	40	0,7	2,0	80000	52000	185%
5	9x9	27000	45	0,6	2,0	90000	63000	233%
6	10x10	25000	50	0,5	2,0	10000	75000	300%
Urug'dan nishlatib o'simtalardan olingen hujayra nihollari								
1	5x5	36000	40	0,9	2,0	72000	36000	100%
2	6x6	35200	44	0,8	2,0	88000	52800	150%
3	7x7	32900	47	0,7	2,0	94000	61100	185%
4	8x8	31200	52	0,6	2,0	104000	72800	233%
5	9x9	28000	56	0,5	2,0	112000	84000	300%
6	10x10	23200	58	0,4	2,0	116000	92800	400%

4.10.-§. Ishlab chiqarish sharoitda yetishtirilgan urug'lik reproduksiyalarning hosildorligi va iqtisodiy samaradorligi

Tajribada navlarni urug'lik sifatlarini tahlil qilish uchun birinchi marta olingen minituganaklarni urug'lik sifatlari bo'yicha

supersuperelita hisoblab, ulardan olingen tiganak hosilni superelita, keyingisi elita va reproduksiyalar tartibida o'sishi, rivojlanishi hamda mahsuldarligi, hosildorligi ishlab chiqarish sharoitida o'rganildi.

4.10 – jadval.

Tajribada navlarning reproduksiyalarida mahsuldarligi, (2021 y.).

Nº	Variantlar	O'simlik bo'yisi	Poya soni, dona	Bir tupda tiganaklar soni, dona	Bir tupda o'rtacha tiganaklar vazni, g	Bir tupda tiganak-lar xosili, gramm	Tovarligi, %
Arnova navi, tiganak o'simtasidan olinib yetishtirilgan							
1	supersuperelita	88,9	3,2	8,1	95,6	774,3	98
2	superelita	86,7	4,6	11,0	115,7	1272,7	98
3	elita	82,3	4,5	10,2	110,6	1128,1	96
4	1-reproduksiya	80,1	4,3	9,0	108,0	972,0	95
5	2-reproduksiya	78,6	4,1	8,7	112,0	974,0	92
6	3-reproduksiya	75,4	4,0	7,1	110,0	981	90
Urug'dan nishlatib o'simtalardan yetishtirilgan urug'lik material							
1	supersuperelita	92,0	3,5	9,0	86,9	782,1	98
2	superelita	90,1	4,6	12,3	115,0	1414,0	98
3	elita	86,5	4,6	10,4	112,0	1164,8	97
4	1-reproduksiya	84,3	4,5	9,6	108,9	1045,4	96
5	2-reproduksiya	82,7	4,2	8,9	106,5	947,8	95
6	3-reproduksiya	79,6	4,1	8,0	110,5	884,0	95
Pikasso navi, tiganak o'simtasidan olinib yetishtirilgan							
1	supersuperelita	86,1	3,1	7,1	91,6	650,1	98,0
2	superelita	82,7	4,5	9,0	108,9	980,2	96,0
3	elita	80,3	4,4	8,6	110,4	950,1	95,0
4	1-reproduksiya	78,0	4,2	8,1	108,6	880,0	94,0
5	2-reproduksiya	75,4	4,0	7,4	110,8	820,0	93,0
6	3-reproduksiya	70,6	4,0	6,8	112,9	768,0	90,0
Urug'dan nishlatib o'simtalardan yetishtirilgan							
1	supersuperelita	95,6	3,6	8,6	87,6	750,7	98,0
2	superelita	90,7	4,7	10,2	102,9	1050,0	96,0
3	elita	88,5	4,6	9,8	98,0	960,7	96,0
4	1-reproduksiya	82,0	4,5	9,4	97,0	920,3	95,0
5	2-reproduksiya	80,1	4,2	8,5	100,0	850,0	94,0
6	3-reproduksiya	76,5	4,2	7,9	104,3	824,0	92,0

Tuganak o'simtasi hujayralari asosida yetishtirilgan Arnova navining urug'lik materiallari o'simlik bo'yi supersuperelitada 89,9 sm, 3-reproduksiyada 75,4 sm, poya soni 3,2-4,0 donagacha o'zgardi, bir tupdag'i tuganaklar soni eng ko'p superelita va elita variantlarda 10,2-11 dona, tuganaklarni o'rtacha vazni (110,6-115,7 g) va bir tupdag'i tuganaklar hosili (1128,1-1272,7 gramm) ham eng yuqori superelita va elita urug'liklarida qayd etildi.

Ushbu Arnova navini botanik urug'lari nishlatilib, o'simtalari meristema hujayralari asosida yetishtirilganurug'lik materiallarida ko'rsatkichlar birmuncha, o'simlik bo'yi supersuperelitada 92,0 sm, 3-reproduksiyada 70,6 sm, poya soni 3,5-4,1 donagacha o'zgardi, bir tupdag'i tuganaklar soni eng ko'p superelita va elita variantlarda 8,6-9,0 dona, tuganaklarni o'rtacha vazni (112,0-115,0 g) va bir tupdag'i tuganaklar hosili (1164,8-1414,0 gramm) ham eng yuqori superelita va elita urug'liklarida qayd etildi.

Tajribada Pikasso navida tuganak o'simtasi hujayralari asosida yetishtirilgan urug'lik materiallari o'simlik bo'yi supersuperelitada 86,1 sm, 3-reproduksiyada 70,6 sm, poya soni 3,1-4,0 donagacha o'zgardi, bir tupdag'i tuganaklar soni eng ko'p superelita va elita variantlarda 10,2-11 dona, tuganaklarni o'rtacha vazni (108,9-110,4 g) va bir tupdag'i tuganaklar hosili (950,1-980,2 gramm) ham eng yuqori superelita va elita urug'liklarida qayd etildi.

Pikasso navini botanik urug'lari nishlatilib, o'simtalari meristema hujayralari asosida yetishtirilgan urug'lik materiallarida ko'rsatkichlar birmuncha, o'simlik bo'yi supersuperelitada 95,6 sm, 3-reproduksiyada 76,5 sm, poya soni 4,6-4,7 donagacha o'zgardi, bir tupdag'i tuganaklar soni eng ko'p superelita va elita variantlarda 9,8-10, dona, tuganaklarni o'rtacha vazni (98,0-102,9 g) va bir tupdag'i tuganaklar hosili (960,7-1050,0 gramm) ham eng yuqori superelita va elita urug'liklarida qayd etildi.

Tajriba kichik maydonlaridan olingen mahsuldarlik ko'rsatkichlarini gektaridagi tup soniga nazariy ko'paytirib olingen hosildorlikni iqtisodiy proqnoz ko'rsatkichlarini tahlili 5.3-jadvalda keltirilgan.

4.10.1-jadval.

Tajribada xosildorlik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari,
(2021 y.).

Nº	Variantlar	Xosildorlik t/ga	Jami qilingan xarajattar, mln soʻ m	1 t xosilning tan narxi, mln. soʻ m	1 t xosilni sotish baxosi mln soʻ m	1 t gektarda sotilgan maxsulot mln soʻ m	1 gektardan olingan foyda mln soʻ m	Rentabillik, %
Arnova navi, Tuganak o'simtasidan olinib yetishtirilgan								
1	supersuperelita	44,2	362,4	8,2	10,0	442,0	79,6	21,9
2	superelita	72,6	500,9	6,9	8,5	617,1	116,2	23,1
3	elita	64,4	386,4	6,0	8,0	515,2	128,8	33,3
4	1-reproduksiya	55,5	288,6	5,2	7,1	394,0	105,4	36,5
5	2-reproduksiya	55,6	261,3	4,7	6,5	361,4	100,1	38,3
6	3-reproduksiya	44,5	200,2	4,5	6,0	267	66,8	33,3
Urug'dan nishlatib o'simtalardan olinib yetishtirilgan								
1	supersuperelita	44,6	356,8	8,0	10,0	446,0	89,2	25,0
2	superelita	80,7	532,6	6,6	8,5	685,9	153,3	28,7
3	elita	66,5	372,4	5,6	8,0	532	159,6	42,8
4	1-reproduksiya	59,6	303,9	5,1	7,1	423,1	119,2	39,2
5	2-reproduksiya	54,1	243,4	4,5	6,2	335,4	92,0	37,0
6	3-reproduksiya	50,4	221,7	4,4	6,0	302,4	80,7	36,4
Pikasso navi, Tuganak o'simtasidan olinib yetishtirilgan								
1	supersuperelita	37,1	319,6	8,6	10,0	371,3	51,7	16,7
2	superelita	55,9	396,8	7,1	8,5	475,1	78,3	19,7
3	elita	54,2	325,2	6,0	8,0	433,6	108,4	33,3
4	1-reproduksiya	50,2	271,0	5,4	7,1	356,4	85,4	31,5
5	2-reproduksiya	46,8	229,3	4,9	6,5	304,2	74,9	32,6
6	3-reproduksiya	43,8	205,8	4,7	6,0	262,8	57,0	37,6
Urug'dan nishlatib o'simtalardan olinib yetishtirilgan								
1	supersuperelita	42,8	333,8	7,8	10,0	428,0	94,2	28,2
2	superelita	59,9	425,3	7,1	8,5	505,7	80,4	18,9
3	elita	54,8	306,8	5,6	8,0	438,4	131,6	42,8
4	1-reproduksiya	52,5	262,5	5,0	7,1	372,7	110,2	42,0
5	2-reproduksiya	48,5	218,2	4,5	6,2	300,1	82,5	37,8
6	3-reproduksiya	47,0	210,1	4,4	6,0	282,0	71,9	34,2

Supersuperelita tuganaklari mayda shu sababli hosildorlik nisbatan kam, rentabellik ham ikkala variantda va navlarda 21,0-25,0 (Arnova),

16,8-28,0 (Pikasso) hamda yuqori reproduksiyali dalalarda faqat urug'likka xos qismi hisoblangan, shu sababli elita va undan keyingi dalalarda hosildorlik va rentabellik ko'rsatkichlari kamayib borgan. Bu o'z navbatida navlarni urug'lik tuganaklarini yangilab borishni, tuganak yoki botanik urug'larini nishlatib sog'lom apikal hujayralardan ko'paytirishni talab qiladi.

IV-bob bo'yicha xulosalar.

-kartoshka navlarni jadal ko'paytirish maqsadida asosan tuganaklarni o'simtalaridan olib ko'paytirish, botanik urug'larini o'stirish esa asosan seleksion maqsadlarda foydalanilgan, endilikda biotexnologik laboratoriyalarda sharoitlarni e'tiborga olib, mahalliy sharoitlarda sog'lom o'simtalarni olish uchun navlarni botanik urug'larini nishlatib, o'simtasidan sog'lom hujayralarni olish, ularni ko'paytirish imkonи mavjud. Tuganak o'simtalarini bilan ishlaganda ulardan ayrim holatlarda 20-30% gacha ajratilgan hujayra o'simliklari kasallanishi, rivojlanishdan orqada qolishi kuzatiladi. Shularni e'tiborga olib, biotexnologik jarayonlarni jadallashtirish, kasallanish va rivojlanishdan orqada qoladigan materiallarni kamaytirish maqsadida navlarni botanik urug'laridan foydalanish tavsiya etiladi.

-kartoshkaning Red Skarlet, Arnova, Pikasso va Sante navlarni botanik urug'lari o'simtasidan olingen kallus to'qimalar asosida takomillashgan MS ozuqa muhitida (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0 mg/l) bir metr kvadratda 154,0 dona, uch qavat stelajda 462,0 dona (ikki oyda) yetishtirish va minituganaklarni 9x9, 10x10 smda, 7-8 sm chuqurlikda ekip, yetishtirilgan urug'likni hosildorligi 40,0-42,3 t/ga, sof foyda 79,6-86,0 mln so'm va rentabellik 66,2-67,1% darajasi ta'minlandi.

V-BOB. ISHLAB CHIQARISH SHAROITIDA MAQBUL VARIANTLAR SINOVİ VA İQTISODIY SAMARADORLIGI.

5.1-§. MS-takomillashtirilgan maqbul ozuqa muhitlarida iqtisodiy samaradorligi.

O'simlikshunoslik sohasida ekinlarni o'stirish va yetishtirish jarayonida ularni iqtisodiy ko'rsatkichlari asosiy natijalardan biri bo'lib hisoblanadi. Kartoshkachilikda iqtisodiy ko'rsatkichlar maydon birligida qilingan xarajatlar, tannarx, maydon birligida sotilgan mahsulot qiymati, foyda va sof foyda hamda rentabellik hisoblab chiqiladi.

Bizlar tajribalarda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari tajriba qo'yilgan yillar va hududdagi bozor narxlarda sarf-xarajatlар asosida olib borildi. Biolaboratoriyalarda tuganak o'simtasi va botanik urug' o'simtalarini olish, ozuqa muhitlar, laminarda nihollarni ko'chirish, qalamchalar, yangi to'yintirilgan MS ozuqa muhitlari, kultura xonasida parvarishlar, sun'iy plastmassa idishlarda minituganaklar olish, fitotronda minituganaklarni turli ekish sxemalarda ekish, turli vazndagi minituganaklarni turli ekish chuqurliklarida ekish, parvarishlash, olingen hosilni reproduksiyalarda hosildorligini o'rganish jarayonlarida mehnatga haq to'lash prinsiplari asosida amalga oshirildi.

Biotexnologiya laboratoriyalarda bioreaktorlar qimmatligi sababli asosiy xarajatlari elektr energiya, laboratoriya jihozlari amartizatsiya va mehnatga ish haqiga haq to'lashga sarflandi.

Kartoshka navlarini tuganaklari o'sish nuqtasi (tuganak o'simtasi) dan meristemani ajratish, kallus olish, kallus to'qimalarni yangi ozuqa

5.1-jadval.

Birinchi tajribada ishlab chiqarish xarajatlari.

Nº	Xarajatlar tarkibi	So'mmasi, ming/so'm	%
1.	Urug'lik xarajati	5,3	3,0
2.	Mehnatga haq to'lash, maosh	53,7	30,0
3.	Laboratoriya xarajatlari (elektr energiya, namlikni boshqarish, yorug'likni boshqarish)	31,8	18,0
4.	Ozuqa muhitlar	14,15	8,0
5.	Laboratoriya jihozlari, amartizatsiya xarajatlari	54,8	31,0
6.	Boshqa xarajatlari	17,6	10,0
	Jami xarajatlar	176,9	100

muhitga o'tkazish bir metr kvadratda qilinadigan xarajatlar hisobiga olganda 5,3% ni, ish haqi uchun 30% yoki 53,7 ming so'm, eng yuqori xarajat laboratoriya jihozlari amartizatsiyasiga 31% yoki 54,8 ming so'm to'g'ri kelgan.

Biolaboratoriya sharoitida bir metr kvadrat maydonda qilingan jami xarajatlar MS (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IU-K-2,0 mg/l) variantida 176,9 ming so'm qilingan bo'lib olingan minituganaklar soni 136,1 donani tashkil etgan. Bir dona minituganaklarni tannarxi 1,3 ming so'm, ularni sotish qiymati 3,0 ming erkin narxda belgilangan. Bunda bir metr kvadrat maydondan olingan minituganaklar sotish qiymati 408,3 ming so'm bo'lib, foyda 234,1 ming va rentabellik 130,8% ni tashkil etdi. Ushbu MS (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IU-K-2,0 mg/l) variantida olingan ma'lumotlarni birinchi nazorat variantga nisbatan 9,3 dona minituganak ko'p, sof foyda 103,2 ming so'm ortiq va rentabellik esa 54,4% ga yuqori bo'lishi aniqlandi (27-ilovada).

Kartoshka navlari botanik urug'lari o'simtasidan meristema ajratib, nihol olingan va ulardan yetishtirilgan minituganaklar chiqimi bo'yicha iqtisodiy samaradorlik hisoblanganda MS (saxaroza-60 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,5 mg/l, IUK-2,0 mg/l) variantda va MS (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0 mg/l) variantida yuqori ko'rsatkichlar olinib, sof foyda 228,7-238,5 ming olingan va ushu variantlarda ham rentabellik bir muncha yuqori 130,7-130,8% bo'lganligi aniqlandi.

Demak, biotexnologiya laboratoriyasi sharoitida kartoshka navlarini meristema hujayralardan o'stirib, minituganaklar yetishtirishda tuganaklarni o'simtasidan meristema ajratish bilan birga ushbu navlarni botanik urug'lardan foydalanib, ularni o'simtalari meristema hujayralardan o'stirib foydalanish mumkin.

5.2-§. Minituganaklarni qulay ekish vazni, sxemasi va chuqurligi.

Qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini ekish chuqurligi, ekish muddati va ularni sug'orish hamda o'g'itlash me'yordi, yig'ishtirish muddatlari hamda minituganaklarni saqlash, alohida ahamiyatga ega.

Tajribalarimizda kartoshka navlarini in-vitro da yetishtirilgan minituganaklarni asosiy fraksiyalar 5-10 grammlni minituganaklar tashkil etadi va ularni maqbul ekish sxemalari va chuqurliklarida ekish

uchun ishlab chiqarish sharoitida Arnova va Pikasso navlarini 5-10 grammli minituganaklarni 9×9 va 10×10 sxemalarda 60 sm qator oralig'ida fitotronda o'rGANildi. Tajribalarimizda ishlab chiqarish xarajatlari 5,2 - jadvalda keltiring.

Shartli ravishda iqtisodiy ko'rsatkichlari olingen va maydon birligida bir metr kvadrat hisob maydonda hisoblab chiqildi. Asosiy xarajatlar minituganaklarni yetishtirishga 51,7%, ish haqiga 22,1% ga to'g'ri keldi.

5.2 – jadval.

Ikkinchagi tajribada ishlab chiqarish xarajatlari.

Nº	Xarajatlar tarkibi	So'mmasi, so'm	%
1	Urug'lik xarajati	24919	51,7
2	Mehnatga haq to'lash, maosh	10652	22,1
3	Fitotron xarajatlari (elektr energiya, namlik va yorug'likni boshqarish)	3807	7,9
4	Sug'orish va o'g'itlash	2554	5,3
5	Fitotron jihozlari, asbob-uskunalar amartizatsiya xarajatlari	3904	8,1
6	Boshqa xarajatlar	2361	4,9
	Jami xarajatlar	48200	100

Bu yerda barcha jarayonlar avtomatlashtirilganligi, fitotronda istalgan iqlimi hosil qilish imkoniyati mavjudligi uchun fitotronda elektr energiyasi, nam va yorug'likni boshqarish uchun 7,9% va fitotron asbob-uskunalarini amartizatsiyasi uchun 8,1% xarajatlar sarflangan.

Tajribalarda navlar kesimida muqobil variantlarni ishlab chiqarish sharoitlarida olinganda Arnova navida bir metr kvadrat maydonda olingen tuganaklar soni 57,1-60,3 dona, jami qilingan xarajatlar 45,7-48,2 ming so'm, tannarxi bir tuganak uchun 0,8 ming so'm va bir tuganakni sotish qiymati 1,9 ming so'm bo'lib, maydon birligida sotilgan mahsulot qiymati 108,5-114,5 ming so'mni tashkil etib, sof foyda esa 62,8-66,4 ming so'm va rentabellik 137,3-137,6% ni tashkil etgan.

Ushbu variantlarda Pikasso navida jami qilingan xarajatlar 44,0-46,7 ming so'm, bir metr kvadratda olingen tuganaklar soni 48,9-58,4

5.2.1-jadval

Ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiy samarradorlik, (2022 y.)

№	Minituganaklarni ekish	1m ² da Jami qilingan xarajatlar, ming so'm	1m ² olingan urug'bop tuganaklar soni, dona	Bir tuganakni o'rtacha tan narxi, ming so'm,	Bir tuganakni sotish qiymati, ming so'm	1m ² da sotilgan mahsulot qiymati, ming so'm	Sof foyda ming/ so'm	Rentabil lik %
	sxemasi	chuqurli gi,sm						

Arnova navi, tuganak vazni 5-10 gramm

5	10x10	5-6	45,7	57,1	0,8	1,9	108,5	62,8	137,3
6	9x9	7-8	48,2	60,3	0,8	1,9	114,5	66,4	137,6
Pikasso navi, tuganak vazni 5-10 gramm									
Izoh: ekish sxemasi 9x9 va 10x10, ekish chuqurligi 5-6 va 7-8 sm, qator oralig'i 60 sm									

donani tashkil etib, bir tuganakni yetishtirish tannarxi 0,8-0,9 ming so'm va sotish qiymati esa 1,9 ming bo'lib, maydon birligida sotilgan mahsulot qiymati 92,9-110,9 mingni va sof foyda 48,9-64,3 ming so'm ni tashkil etib, rentabellik 111,1-137,6 ming qayd etildi.

Tajribalarimizda minituganaklarni ekish sxemasi bo'yicha 9x9 sm sxemada, ekish chuqurligi bo'yicha 7-8 sm variantda va navlar kesimida ikkala navlarda ham yuqori iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishilgan.

Demak, minituganaklarni fitotron sharoitida sog'lom va sifatli qilib ko'paytirish asosida ularni 60 sm qator oralig'ida 9x9 va 10x10 sm tuganaklar orasida qoldirib, minituganaklarni 5-6-va 7-8 sm chuqurlikda ekish yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini berdi.

5.3-§. Biotexnologik laboratoriyalarda yetishtirilgan kartoshka navlarinning reproduksiyalarda hosildorligi va iqtisodiy samaradorligi.

Tajribalar davomida to'g'ridan-to'g'ri sun'iy ozuqa muhitlarda olingan minituganaklar va sun'iy ozuqa muhitlarda ko'chatlarni fitotronda muqobil ekish sxemalari va ekish chuqurliklarida ekib 45-60 grammlı tuganaklarni ochiq dalada elita, 1,-2- va 3-reproduksiyalarda ekib avlodlar hosildorligi va ularni iqtisodiy samaradorligi o'rganib chiqildi.

Ishlab chiqarish sharoitida tuganak o'simtasidan uchki meristemasidan ajratilgan hujayra nihollari asosida yetishtirilgan urug'lik tuganaklarni eng yuqori xarajatlar elita tuganaklarda 125 mln 200 ming so'm bo'lib, bir tonna hosilning tannarxi 2 mln 960 ming so'mni tashkil etib, 1 tonna hosilni sotish bahosi 5 mln so'm va eng yuqori bir gektarda sotilgan mahsulot qiymati 211 mln 500 ming so'm va sof foyda 86 mln so'mni tashkil etib, 68,6% rentabellikka erishilgan.

Ushbu variantlarda Arnova navning tuganak o'simtasi asosida yetishtirilganning 1-reproduksiyasida sof foyda 30 mln 896 ming so'm, 2- reproduksiyada 13 mln 462 ming so'm, 3-reproduksiyasida 3 mln 802 ming so'm va ularda rentabellik 26,6; 12,8 va 4,1% qayd etildi.

5.3 – jadval.

Tajribada hosildorlik, (2019-2021 yy.).

№	Variantlar	Yillar bo'yicha hosildorlik, t/ga			O'rtacha		
		2019	2020	2021			
Arnova navi							
Tuganak o'simtasidan olinib yetishtirilgan urug' lik material							
1	supersuperelita	45,1	43,6	43,9	44,2		
2	superelita	71,2	73,8	72,8	72,6		
3	elita	65,0	63,2	65,0	64,4		
4	1-reproduksiya	54,1	56,3	54,7	55,5		
5	2-reproduksiya	50,4	50,0	51,4	50,6		
6	3-reproduksiya	45,8	43,9	43,8	44,5		
Urug' dan nishlatib o'simtalardan olinib yetishtirilgan urug' lik material							
1	supersuperelita	43,8	45,7	44,3	44,6		
2	superelita	79,6	81,0	81,5	80,7		
3	elita	66,3	66,1	65,6	66,5		
4	1-reproduksiya	60,2	58,9	59,9	59,6		
5	2-reproduksiya	53,4	55,0	53,9	54,1		
6	3-reproduksiya	49,6	51,3	50,3	50,4		
	NSR ₀₅ =	4,30 t/ga	4,28 t/ga	4,11 t/ga			
	R, % =	3,58%	3,51%	3,24%			
Pikasso navi							
Tuganak o'simtasidan olinib yetishtirilgan urug' lik material							
1	supersuperelita	36,8	37,9	36,6	37,1		
2	superelita	55,2	54,4	58,1	55,9		
3	elita	53,1	54,2	55,3	54,2		
4	1-reproduksiya	48,7	51,3	50,6	50,2		
5	2-reproduksiya	45,6	46,9	47,9	46,8		
6	3-reproduksiya	42,8	43,5	45,1	43,8		
Urug' dan nishlatib o'simtalardan olinib yetishtirilgan urug' lik material							
1	supersuperelita	41,9	42,0	44,5	42,8		
2	superelita	58,6	60,3	60,8	59,9		
3	elita	57,7	52,5	54,2	54,8		
4	1-reproduksiya	51,3	52,8	53,4	52,5		
5	2-reproduksiya	47,6	48,1	49,8	48,5		
6	3-reproduksiya	46,0	47,3	47,7	47,0		
	NSR ₀₅ =	3,85 t/ga	3,82 t/ga	3,70 t/ga			
	R, % =	3,56%	3,28%	3,02%			

Reproduksiyalarni oshib borishi bilan hosildorlik ham kamayib borib, sof foyda va rentabellik ham pasayib borish qonuniyati kuzatildi.

5.3.1 – jadval.

Navlarning reproduksiyalarida mahsuldarligi, (2022 y.).

No	Variantlar	Jami qilingan xarajattar, ming so' m	Hosildorlik, t/ga	1 t mahsulotni tan narxi, ming so' m	1 tonna maxsulotni sotish qiymati, ming so' m	Bir gektarda soiligan mahsulot qiymati, ming so' m	Sof foyda, ming so' m	Rentabellik, %
Arnova navi, Jomboy tuman, Muzaffar Zamin fermer xo'jaligi								
Tuganak o'simtasidan olinib yetishtirilgan urug'lilik material								
3	elita	125,200	42,3	2960	5000	211,500	86,000	68,6
4	1-reproduksiya	116,304	36,8	3153	4000	147,200	30,896	26,6
5	2-reproduksiya	104,568	31,9	3278	3700	118,030	13,462	12,8
6	3-reproduksiya	91,238	26,4	3456	3600	95,040	3,802	4,1
Urug'dan nishlatib o'simtalardan yetishtirilgan urug'lilik material								
3	elita	119,020	39,7	2998	5000	198,500	79,480	66,7
4	1-reproduksiya	106,750	35,0	3050	4000	140,000	33,250	31,1
5	2-reproduksiya	96,338	30,2	3190	3700	111,740	15,402	15,9
6	3-reproduksiya	82,655	25,3	3267	3600	91,080	8,425	10,2
Pikasso navi, Tayloq tumani Zarafshon fermer xo'jaligi								
Tuganak o'simtasidan olinib yetishtirilgan urug'lilik material								
3	elita	121,097	41,6	2911	5000	208,000	86,903	71,7
4	1-reproduksiya	118,556	37,2	3187	4000	148,800	30,244	25,5
5	2-reproduksiya	110,572	34,5	3205	3700	127,650	17,078	15,4
6	3-reproduksiya	102,826	31,6	3254	3600	113760	10,934	10,6
Urug'dan nishlatib o'simtalardan yetishtirilgan urug'lilik material								
3	elita	120,320	40,0	3008	5000	200,000	79,680	66,2
4	1-reproduksiya	115,678	36,7	3152	4000	146,800	31,122	26,9
5	2-reproduksiya	105,286	32,1	3280	3700	118,770	13,484	12,8
6	3-reproduksiya	95,878	28,4	3376	3600	102,240	6,362	6,6

Arnova navining botanik urug'ini nishlatib, o'simtasidan yetishtirilgan nihollar va minituganaklarni ko'paytirib, elita va reproduksiyalarda hosildorligi hamda ularni iqtisodiy samaradorligi biroz yuqori bo'lishi qayd etildi. Bunda elita tuganaklar ekilganda jami xarajatlar 119 mln 020 ming so'm, hosildorlik 39,7 t/ga va gektaridan

olingen sof foyda 79 mln 480 ming so'm, rentabellik 66,7%, keyingi reproduksiyalarda 1-reprodukssiyada sof foyda 33 mln 250 ming so'm, rentabellik esa 31,1%, 2 va 3 reproduksiyalarda mos ravishda sof foydalar 15 mln 402 ming so'm, 8 mln 425 ming so'm va rentabelliklar 15,9 va 10,2% kuzatildi.

Tajribadagi Pikasso navida ham yuqoridagi qonuniyat kuzatilib, minituganaklarning avlodlarini ochiq dalada urug'lik va tovar hosil yetishtirishda hosildorlikni va sof foyda kamayib borish bilan rentabellik ko'rsatkichlari ham pasayib borish qonuniyati qayd etildi.

5.3.2- jadval.

Uchinchi tajribada ishlab chiqarish xarajatlari.

No	Xarajatlar tarkibi	So'mmasi, ming so'm	%
1	Urug'lik xarajati	68,484,4	54,7
2	Mehnatga haq to'lash, maosh	22,285,6	17,8
3	Kimyoviy moddalar, o'g'itlar, sug'orish	8,889,2	7,1
4	Yoqilg'i moylash materiallari	10,516,8	8,4
5	Qishloq xo'jalik texnikalari amartizatsiya xarajatlari	9515,2	7,6
6	Boshqa xarajatlar	5508,8	4,4
	Jami xarajatlar	125,200	100

Demak, iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zgarishi tiganak avlodlarini oshib borishi bilan hosildorlikni kamayib borishi va sof foyda va rentabellik darajasi 3-reprodukssiyalarda ham ijobji xarakterda bo'lib, tovar hosil yetishtirishda biotexnologiya laboratoriylarida mahalliy sharoitlarda kartoshka navlarini tiganak o'simtalaridan foydalanish bilan birga ularni botanik urug'larini nishlatib, urug' o'simtalaridan ham foydalanib, tezkor ko'paytirish usuli sifatida foydalanish maqsadga muvofiq.

V-bob bo'yicha xulosalar.

-biolaboratoriya sharoitida tiganak o'simtasi meristema hujayralari asosida yetishtirilgan nihollardan foydalanib MS (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0 mg/l) variantida o'stirilganda bir metr kvadrat maydonda nazorat variantiga nisbatan 9,3 dona minituganak ko'p, sof foyda 103,2 ming so'm ortiq va rentabellik esa 54,4 % ga yuqori bo'lishi;

-botanik urug'lari o'simtasidan meristemasi ajratib, nihol olingen va ulardan yetishtirilgan minituganaklar chiqimi bo'yicha iqtisodiy samaradorlik hisoblanganda MS (saxaroza-60 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,5 mg/l, IUK-2,0 mg/l) variantda va MS (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0 mg/l) variantlarida yuqori ko'rsatkichlar olinib, sof foyda 228,7-238,5 ming va ushbu variantlarda ham rentabellik bir munkha yuqori 130,7-130,8 % bo'lganligi;

-hosildorlik va iqtisodiy ko'rsatkichlar yuqoriligi elita, 1-, 2- va 3-reproduksiyalarda yuqoriligi kuzatilib, tovar hosil yetishtirishda biotexnologiya laboratoriyalarda mahalliy sharoitlarda kartoshka navlarini tuganak o'simtalaridan foydalanish bilan birga ularni botanik urug'larini nishlatib, urug' o'simtalaridan ham foydalanib, tezkor ko'paytirish usuli sifatida foydalanish maqsadga muvosiq.

XULOSALAR

1. Kallus to'qimalar ekilgan namunalarda murtak hosil bo'lishi, o'sish nuqtasini o'sa boshlagan davri tiganak o'simtalardan olinganda 17 kunda, urug' o'simtasidan olinganda esa 14 kunda, (3 kun oldin) kuzatilib, to'qimalarni bir-biridan farq qilish jihatni, genotipik bir xilligi ya'ni Arnova va Pikasso navlarini urug' hamda tiganak o'simtasidan o'stirishga yaroqliligi aniqlandi, urug'dan nishlatilib, olingen kallus nihollarida ko'paytirish koefisiyenti 20% ga yuqori bo'lishi aniqlandi.

2. Tajribalarda minituganaklarni yig'ish oldidan o'simliklar bo'yi Arnova navida 56,1-60,1 sm, yon shox soni 5,1-6,1 dona, barg soni 42,5-56 donani tashkil etgan bo'lsa, botanik urug'i hujayralardan olingen ko'chatlarida 56,4-63,5 sm o'simlik bo'yi, yon shox soni 5,5-6,1 dona, barg soni esa 44,7-62 donagacha o'zgardi yoki dastlabki donor nihol olish usuliga nibatan ikkinchi usulda o'simlik bo'yi mos ekish sxemalarida ko'ra 3,4 sm ga, yon shox soni 0,1-0,5 donaga, barg soni 2,2-8 donagacha bo'lgan. O'simliklarni rivojlanishini 30 va 60 kunlari gabatusini fenotipik bir xilliliqi yuqori (Pikasso 8 ball) ligi kuzatildi.

3. Kartoshka navlarini in-vitro da ko'paytirishda tiganaklarni o'simtasi meristema hujayralardan yetishtishtirilgan nihollarda minituganklar chiqimi 50-54 dona m^2 , botanik urug'dan nishlatib, meristema hujayralari asosida yetishtirilgan nihollar ekilgan bir metr kvadratda 62-63 dona yoki har bir metr kvadratdan 8-13 dona, gektarida 80-130 ming dona yuqori miqdorda minituganaklar olish ta'minlandi.

4. Ozuqa muhit tarkibida saxaroza-90 mg/l bo'lganda eng yuqori natija 17 va 18 tajribalarda (gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0-2,5 mg/l) 30-kuni o'simlik bo'yi 17,3-18,4 sm, barg soni 12,1-13,0 dona kuzatilib, birinchi nazorat tajribasiga nisbatan o'simlik bo'yi 0,5; 3,5 va 3,3 sm ga, barg soni esa 0,9; 1,1 va 2,7 donaga ko'p, 10 tajribada (nazorat, saxaroza-90 mg/l da gibberillin-1,0 mg/l, Kinetin-0,1 mg/l, IUK- 0,1 mg/l) ga nisbatan esa o'simlik bo'yi kuzatuvlarda 1,8; 3,5; 4,4 sm, barg soni bo'yicha esa 1,5; 2,0 va 2,3 dona ko'p shakllangan.

5. Ozuqa muhitda saxarozani miqdorini 90-mg/l oshirib, (gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l va IUK-2,0 mg/l) da kuzatuvning 30-kuni poya va barg vazni 8,4 gramm, minituganaklar soni 12,9 dona, o'rtacha vazni 8,8 gramm, viruslar bilan kasallanish Red Skarlet navida 0,5-0,7%, Arnova navida 0,9-1,2%, Pikasso navida 0,7-0,9%, Sante navida 1,3-1,4%, yuqori minituganaklar chiqimi Sante navida (saxaroza-90 mg/l da, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1, mg/l va IUK-2,0 mg/l) bir idishda 12,7 dona, bir metr kvadratda 139,7 dona, uch qavatda 417,3

dona olish (ikki oyida), bir yilda 2503,8 dona va saxaroza 90-mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l va IUK-2,0 mg/l variantlarda mos ravishda 14,0; 154,0; 462,0; 2772 dona olish aniqlandi.

6. Yetishtirilgan minituganaklarni fitotronda ekilganda o'simlik bo'yi 60,0-70,0 sm, poya soni 1,9-2,1 dona, bir tupdag'i tugaraklar soni 8,0-9,1 dona, ularni o'rtacha vazni 55,0-64,5 gramm, o'rtacha hosil 451,0-586,0 gramm, gektariga 32,2-41,8 tonna tashkil etib, olingen hosilni yozda yangi kovlangan tugaraklar bilan ekilganda yuqori o'simlik bo'yi Sante navida 74,5 sm, poya soni (4,5 dona) va tugaraklar soni 7,1 dona Red Skarlet navida, bir tupdag'i o'rtacha tugaraklar vazni (130,8 gramm) bir tupdag'i hosil 889,4 gramm, hosildorligi (63,5 t/ga) va urug'lik tugaraklar chiqimi (98% va 62,2 t/ga) bo'yicha Sante navida yuqori bo'lganligi aniqlandi.

7. Minituganaklarni 5 grammgacha bo'lgan vaznda ularni 5-6 sm chuqurlikda ekilganda o'simlik bo'yi (45,3-47,6 sm), poya soni (1,8-1,6) va barg soni (23,9-23,0), 5-10 gramm vaznda 5-6 sm chuqurlikda o'simlik bo'yi (49,3), poya soni (2,3), barg soni (26,1) yuqori bo'lgan. Minituganaklarni 10 grammli va undan yuqori bo'lganlari ikkala navda ham ekish chuqurligi 7-8 sm bo'lganda o'simlik bo'yi 54,5-54,8 sm, poya soni 3,0-2,6 dona va barg soni esa 27,3-26,4 dona ekanligi, navlarda 5 grammgacha tugaraklarni 5-6 sm, 5-10 grammalarini 6-7 sm, 10 gramm va undan ortiq vazndagilarni 7-8 sm da ekish gektaridan 456,5-485,5 ming dona tugarak olish imkonini beradi.

8. Tuganak o'simtasi meristema hujayralari asosida yetishtirilgan nihollar muvofiqlashtirilgan MS (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0 mg/l) ozuqa muhitida nazoratga nisbatan minituganak 9,3 dona ko'p, sof foyda 103,2 ming so'm va rentabellik esa 54,4% ga yuqori bo'lishi, botanik urug'lari meristemasi asosida yetishtirilganda MS (saxaroza-60 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,5 mg/l, IUK-2,0 mg/l) va MS (saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0 mg/l) variantlarida yuqori ko'rsatkichlar olinib, sof foyda 228,7-238,5 ming so'm va rentabellik 130,7-130,8% kuzatildi.

9. Minituganaklarni fitotron sharoitida sog'lom va sifatli qilib ko'paytirish asosida ularni 60 sm qator oralig'ida 5-10 grammli minituganaklarni 9x9 sm sxemada 7-8 sm, 10x10 sm sxemada esa 5-6 sm chuqurliklarda ekish va yetishtirilgan minituganaklarni tovar hosil yetishtirishda mahalliy sharoitlarda kartoshka navlarini tugarak o'simtalaridan foydalanish bilan birga ularni botanik urug'larini

nishlatib, urug‘ o‘samtalaridan ham tezkor ko‘paytirish usuli sifatida 3-4 reproduksiyagacha foydalanish maqsadga muvofiq.

10. Zarafshon vodiysi sharotida kartoshka navlari minituganklarini yetishtirish va ulardan yuqori hamda sifatli tovar hosil yetishtirish maqsadida:

-minituganaklar olish uchun in-vitro nihollarini muvosfiqlashtirilgan MS saxaroza-60 mg/l da, gibberillin-1,5 mg/l, Kinetin-1,5 mg/l va IUK-2,0 mg/l, va MS saxaroza-90 mg/l, gibberillin-1,5mg/l, Kinetin-1,0 mg/l, IUK-2,0 mg/l ozuqa muhitlarda o‘stirish;

-5 grammgacha minituganaklarni 5-6 sm, 5-10 va undan yirik vazndagilarni 7-8 sm chuqurlikda 9x9 va 10x10 sm sxemada ekish hamda 3-4 reproduksiyagacha foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 maydagi PQ-4707-son "Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug'chiliginini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaror
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni
4. O'zbekiston Respublikasining "Urug'chilik to'g'risida"gi Qonuni.-Toshkent, 2018 yil 18 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi tuproq qatlamlari atlasi. –Toshkent, 2010.-B.32-34.
6. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reyestri.-Toshkent, 2021.-110 b.
7. Avksentyeva O.A., Petrenko V.A Biotexnologiya vissix rasteniy: kultura in vitro : Uchebno-metodicheskoye. posobiye /. Xarkov: XNU im. V. N. Karazina, 2011. 60 s.
8. Azimov B.J., Azimov B.B., Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi.-Toshkent, "O'zbekiston milliy enseklopediyasi", 2002.-224 b.
9. Бабушкин Л.Н Об агроклиматическом раёнировании республик Средней Азии // Тр. САНИГМЦ, вып. 64 (79). –Ташкент, 1985. -114-120 с.
10. Доспехов Б.А Методика полевого опыта. –М.: "Колос", 1985. -280-285 с.
11. Методика исследований по культуре картофеля. –М.: ВНИИКХ, 1995. 105 с.
12. Методы агрохимических анализов почв и растений Средний Азии.- Т.: 1977.-188 с.
13. Nurmatov Sh., Mirzajonov Q., Avliyoqulov A., Bezbordov G., Ahmedov J., Teshayev Sh., Holiqov B., Niyozaliyev B., Hasanova F., Mallabayev N., Tillabekov B., Ibragimov N., Abdualimov Sh., Shamsiyev A., Isayev S. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent 2014.-B. 175.
14. Симаков И.А. Определение вкусовых качеств картофеля // Старт в науке. -2019.2-3 с.
15. Ушканенко В.А., Лазарев Н.Н., Голобородько С.П., Коковихин С.В. Дисперсионный и корреляционный анализ в растениеводстве и луговодстве. - М.: РГАУ-МСХА имени К.А.Тимирязева, 2011. -336 с.
16. Шевелуха В.С., Калашникова Е.А., Кошиева Е.З Сельскохозяйственная биотехнология /. Учебник для Вузов – Издательство: Высшая школа., 2008. – 104-105 с.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

17. Abdukarimov D.T Ostonaqulov T.E., Ergashev I.T va boshqalar. O'zbekistonda kartoshka seleksiyasiga oid tavsiyalar. –Samarqand. 2005.-34 b.
